

Nurobod tumani tashkil etilganligining
50-yillik yubileyiga bag'ishlanadi.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

MONOGRAFIYA

**“Access service” nashriyoti
Samarqand – 2025-yil**

BBK: T3(5Ў3)-2Ca
UDK: 908(575.43)

NUROBOD – QADIMIY MASKAN
MONOGRAFIYA (MUALLIFLAR JAMOASI)
-Samarqand: “Access service”, 2025. 180-bet

Mas’ul muharrir:

Raimqulov A.A. – Madaniy meros agentligi Samarqand arxeologiya instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori.

Taqrizchilar:

Ergashov O.T. – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti “Arxeologiya” kafedrası mudiri, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Xolmatov A.N. – Yahyo G’ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Loyiha ilmiy rahbari: *Ravshanov Lochinbek Urinovich – O’zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrası mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.*

G’oya muallifi va loyiha muvofiqlashtiruvchisi: *Soriyev Xolmurod Yaxshimurodovich – O’zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrası katta o’qituvchisi, O’zbekiston Respublikasi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi a’lochi, “O’zbekiston belgisi” ko’krak nishoni sohibi.*

Ushbu jamoaviy monografiyaning yaratilishida o’zlarining ilmiy maqolalari bilan faol ishtirok etgan Yahyo G’ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti “Arxeologiya” kafedrası, “Ipak yo’li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti huzuridagi “Ipak yo’li” xalqaro tadqiqot instituti hamda Samarqand davlat chet tillar instituti olimlari va magistrilariga, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilarga, loyihani bevosita qo’llab-quvvatlab, yaqindan yordam bergan Nurobod tuman hokimligiga hamda O’zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi rahbariyatiga, oliy maktab Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrası professor-o’qituvchilariga minnatdorchik bildiramiz.

Monografiyada Nurobod tumanning Sazag’on, Tepaqul, Jom, Changalli, Tim, Ag’ron, Qo’rg’oncha va boshqa qishloqlaridan topilgan arxeologik topilmalar – qadimiy qo’rg’on va qal’alar qoldiq izlari, tosh va temir qurollar, uy-ro’zg’or buyumlari, sopol idish parchalari, qadimiy tangalar, qoyatosh rasmlari, noyob qadimiy arxitektura va madaniy meros namunalari – Tim qishlog’idagi Arab ota maqbarasi, Oq masjid, Sahro qishlog’idagi Ostonabobo me’moriy yodgorliklari va boshqalar to’g’risida ilmiy-tahliliy ma’lumotlar beriladi.

Monografiya O’zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi ilmiy kengashining 07.11.2025-yildagi №1-sonli yig’ilish qarori bilan tasdiqlangan va nashr qilishga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-611-08-7

© Ravshanov L.U., Soriyev X.Y., 2025.

© “Access service” nashriyoti, 2025.

KIRISH

Tarix insoniyatning buyuk xotirasidir. Unda ajdodlarning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi. Inson tarixdan ta'lim-tarbiya oladi. Tarix saboqlaridan o'ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning qismati o'z-o'zidan ravshan. Kimki o'z Vatani tarixini bilmas ekan, unda milliy iftixor tuyg'ulari shakllanmay qolaveradi. O'z yurti, millati tarixidan olingan ma'lumotlar, xulosalar va faxr tuyg'usi inson uchun kelajakka qo'yiluvchi ishonchli qadam manbai bo'ladi. Bu fikrni qardosh yozuvchimiz Chingiz Aytmatovning "...Zamindan mahrum qilish mumkin, boylikdan mahrum qilish mumkin, hayotdan ham mahrum qilish mumkin. Lekin inson xotirasiga tajovuz qilish... chidab bo'lmas fojiaadir", degan fikri bilan yanada yaqqolroq asoslash mumkin.

O'tmishi buyuk, buguni sharaflı, kelajagi porloq yurtimizning sadim tarixida Nurobod tumani alohida o'rin tutadi. Nurobod hududi deyishganda kishining xayolidan beixtiyor sivilizatsiyalardan anchayin yiroqroq dasht va cho'ldan iborat keng dalalar, cho'l va tog'li hududlar o'tadi. Lekin keyingi yillarda tarixchi-arxeolog olimlarimiz tomonidan tumanda olib borilgan arxeologik dala qidiruv va ilmiy tadqiqot ishlari bu hududda ham insoniyat madaniy hayotining eng qadimgi izlari, o'choqlari mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Chunonchi, tumanning Sazag'on, Tepaqul, Jom, Changalli, Tim, Ag'ron, Qo'rg'oncha va boshqa qishloqlaridan topilgan arxeologik topilmalar – qadimiy qo'rg'on va qal'alar qoldiq izlari, tosh va temir qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari, sopol idish parchalari, qadimiy tangalar, qoyatosh rasmlari, noyob qadimiy arxitektura va madaniy meros namunalari– qadimiy Buxorodagi IX asrga oid Somoniylar maqbarasi bilan deyarli bir vaqtda bunyod etilgan Tim qishlog'idagi Arab ota maqbarasi, Oq masjid deb nom olgan machit, Sahro qishlog'idagi Ostonabobo me'moriy yodgorliklari, Sahoba qishlog'idagi sardoba qoldiqlari buni o'zida yaqqol aks ettirib turibdi. Qo'lingizdagi "Nurobod qadimiy maskan" deb nomlangan ushbu monografiyada mana shu fikrlarning ilmiy isboti berilgan. Monografiyani nashr etilishidan bosh maqsad – Nurobod tumanining qadim tarixini o'sib

kelayotgan yosh avlodga o'rgatish, bu tarix bilan faxrlanish, uni asrash borasidagi tushunchalarni shakllantirish va yanada boyitish, uni kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir. Taqdim etilayotgan ushbu monografiya ham ana shunday ezgu maqsadda yozilgan.

O'quvchilarga tumanning qadimgi tarixi haqida to'liqroq tasavvur berish uchun Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti "Arxeologiya" kafedrasi, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti huzuridagi "Ipak yo'li" xalqaro ilmiy tadqiqot instituti hamda Samarqand davlat chet tillar instituti olimlari va magistrarlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilarning Nurobod tumani tarixining tosh, bronza, ilk va o'rta asrlar davrilari, hududda hozirda saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari tarixiga oid ilmiy tahliliy maqolalari ushbu monografiyaga kiritilgan. Monografiya magistrlar, ilmiy izlanuvchilar, tadqiqotchilar va o'z yurti tarixi bilan qiziquvchi barcha o'quvchilarga mo'ljallangan. O'ylaymizki, siz undan Nurobodning qadim tarixiga oid muhim ma'lumotlarni bilib olasiz.

Ravshanov L.U.
Psixologiya f.d. (DSc), professor, podpolkovnik

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

**(Tumanda so‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar
xulosalari bo‘yicha)**

*Soriyev X.Y. – O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Serjantlar tayyorlash oliy maktabi
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi
katta o‘qituvchisi*

Qadimiy yurtimiz boy va betakror tarixga ega. Yurtimizning qaysi go‘shasiga qadam qo‘ysangiz, albatta biror bir arxeologik topilma, muqaddas ziyoratgoh yoki o‘ziga xos betakror bunyodkorlik yechimiga ega bo‘lgan tarixiy yodgorliklarga duch kelasiz. Jumladan, bugungi kunda bir yuz oltmish mingdan ortiq aholi istiqomat qilayotgan Nurobod tumani hududida ham ko‘plab tarixiy joylar, arxeologik-memoriy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar mavjud. Tuman uzoq o‘tmishga ega Jom, Tim, Sahoba, Ag‘ron, Sepki(hozirda Buloqboshi), Qo‘rg‘oncha kabi yirik; Ostonabobo, Sahro, Kattasoy, Oltio‘g‘li, Changali, Qo‘chqorli, Ilonli (hozirgi kunda bu qishloqda aholi yashamaydi), Tortuvli kabi kichik qishloqlarni o‘z bag‘riga olgan. Bu maskanlarning nomlanish sabablari ham turlicha bo‘lib, ba‘zilar tarixiy-ijtimoiy, ba‘zilar iqtisodiy-siyosiy va madaniy omillar asosida, boshqalari tabiiy-geografik belgi va xususiyatlarga qarab nomlangan. Yana ba‘zilariga etnonimlar sabab bo‘lgan.

Arxeolog olimlar Amriddin Berdimurodov, Samariddin Suyunov va mahalliy tarixchi – tadqiqotchi Xolmurod Soriyevlar tomonidan 2015-yilda nashr etilgan “Nurobod tuman arxeologik yodgorliklar katalogi”da qayd etilgan arxeologik topilmalar shuni tasdiqlaydiki, ushbu hududda ajdodlarimizning ilk makonlari eng qadimgi davrlardanoq mavjud bo‘lgan va kishilik taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi davomida katta o‘rin tutgan tarixiy shaharlarning rivojiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, qadimiy va hamisha navqiron Samarqandning shahar sifatida shakllanishi moziyning uzoq davrlariga borib tutashgan bo‘lib, bu jarayon uzoq va bosqichma-bosqich sodir bo‘lgan. Ushbu jarayonda Samarqand yaqin atrofida yashagan ibtidoiy

jamoʻa urugʻ-qabilalarning ham taʼsiri katta boʻlganligi olimlar tomonidan tan olingan. Chunonchi, Samarqandning shahar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan arxeologik yodgorliklar Nurobod tumanining Sazagʻon va Jom qishloqlaridan topilgan.

Maʼlumki, Nurobod tumanida paleolit, neolit, bronza, antik davrga oid boʻlgan yodgorliklari tadqiq etilgan. Ilk va rivojlangan oʻrta asrlarga oid boʻlgan qalʼa va qishloqlari hamda gidrotexnik inshootlar ham uchraydi.

Sharof Rashidov nomidagi SamDUNing bir guruh arxeologlari XX asrning 60-yillarida Nurobod tumanining Sazagʻon qishlogʻida arxeologik qidiruv ishlarini olib borishib, eng qadimgi davrlar tarixi – paleolit va neolit davri uchun gʻoyat muhim yodgorliklarni topib oʻrganishgan edi. Bu yerda qayd etilgan dastlabki yodgorliklardan tosh davrida yashagan ibtidoiy odamlarga tegishli tosh qurollar qoʻlga kiritilgan. Bu qurollar Zarafshon vohasida yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning turmush tarzlarini, maʼnaviy dunyoqarashini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Sazagʻon qishlogʻidan topilgan ikkinchi yodgorlik esa bronza davrida yashagan qabilalarga tegishli boʻlib, bu yodgorlikdan bronzadan yasalgan har xil taqinchoqlar, kamon oʻqlari va sopol idish-tovoqlar topilgan. Bu topilmalar Samarqand vohasida bronza davrida yashagan ajdodlarimizning madaniyatini oʻrganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. 2000-yildan buyon Sazagʻon qishlogʻi atrofida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan Samarqand arxeologiya institutining Oʻzbekiston-Italiya qoʻshma xalqaro ekspeditsiyasi ham bu hududdan qimmatli topilmalarni qoʻlga kiritdi. 2004-2005-yillarda bu yerda qoʻshma ekspeditsiya tomonidan qishloqning gʻarbiy tomonida joylashgan Boysaritepa nomli yodgorlikda (uzunligi 350, eni 110 metr) qazuv tadqiqotlari oʻtkazildi va bu yerda antik davrga oid yirik manzilgoh boʻlganligi, uning atrofi toshdan terilgan mustahkam mudofaa devori bilan oʻralganligi maʼlum boʻldi. Bu yerda olib borilgan tadqiqotlar mobaynida yettita qabr ochib oʻrganilib, qabrlarga erkaklar, ayollar va bolalar dafn etilganliklari aniqlangan. Ayollarning qabrlariga turli taqinchoqlar va uy-roʻzgʻor buyumlari qoʻyilgan, erkaklar esa jangovar qurollar bilan birgalikda dafn etilgan. Bu yerdan topilgan sopol idishlar oʻzining sifati bilan alohida ajralib turadi. Qabrlardan topilgan zargarlik buyumlari, qurol-yarogʻlar va sopol idishlar oʻz sifati bilan kishini hayron qoldiradi. Topilmalar bu davrda hunarmandchilik yuksak darajada rivojlanganligidan

dalolat beradi. Bu yerdagi arxeologik topilmalar erta ellinizm davridan boshlab hududi bir gektardan ortiq bo'lgan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qatlami yashaydigan, yarim yerto'la shakldagi uylari bo'lgan manzilgoh paydo bo'lgani aniqlash imkonini berdi¹.

Shuningdek, Boysaritepa yodgorligidan Aleksandr Makedonskiy tasviri tushirilgan kumush tangalar topilgani ham diqqatga sazovordir. Chunki, bu xildagi tangalar o'ta noyob hisoblanadi. Bu tanga Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq aloqalarida Jom mikro vohasi ham faol ishtirok yetganligidan shahodat beradi. Taxminan eramizdan oldingi II asrlarga kelganda noma'lum sabablarga ko'ra manzilgoh tashlab ketilgan va eramizning I-II asrlariga kelib qabris-tonga aylantirilgan.

Tumanning Tapaqul qishlog'i ham o'z o'tmishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Arxeologlar qishloqning yuqori qismidagi mavjud g'orlardan ibtidoiy odamlar foydalangan har xil ov, jang va mehnat qurollarini topganlar. Bu ashyolar Tapaqul qishlog'i hududi juda qadimdan ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilganini ko'rsatadi.

Nurobod tumani o'tmishi haqida gap ketganda, Jom qishlog'i tarixiga alohida to'xtalmoq zarur. Ko'hna tarixiy manbalarda qishloq nomining mashhur voqealar bilan bog'liq ravishda takror-takror qayd etilishi va Xitoy, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlarini bog'lovchi-Buyuk Ipak yo'lining Samarqand-Jom-Qarshi hamda Buxoro-Tim-Jom-Shahrizabz qismining markaziy chorrahasida joylashganining o'zi Jomning uzoq o'tmishga ega ekanligini bildiradi. Jom qishlog'idan arxeologlar 3600–3800-yillar ilgari yashagan qabilalarning qabrlarini topib o'rganganlar. Bu qabrlardan topilgan bronzadan yasalgan zargarlik buyumlari, jang, ov va mehnat qurollari, kulolchilik mahsulotlari Zarafshon vohasining qadimgi tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Jom qishlog'ining sharqiy tomonidagi Omondara soyining tog'darasida XII asrda qoraxoniylar hukmdorlar tomonidan barpo qilingan G'ishtbandli suv ombori va katta qal'a ham diqqatga sazovordir. Sug'orma dehqonchilik uchun suv taxchil bo'lgan qadim zamonlarda katta yer maydonini sug'orishga mo'ljallangan bu suv ombori ajdod-

¹А.Э.Бердимуратов, А.А.Раимкулов, Н.У.Холматов, Ф.Франческини (Самарканд, Болоня). Раскопки узбекско-итальянской археологической экспедиции на Бойсаритепа в 2004–2005 гг. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2004–2005–йиллар, 5–сон “Фан” Тошкент–2006. 65–бет.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

larimizning qishloq xo‘jaligini yuritishdagi omilkorligi hamda yuksak texnik mahoratlaridan guvohlik beradi.

Jom qishlog‘idagi yodgorliklardan yunon tangalarining topilgani bu yerdan haqiqatdan ham Buyuk Ipak yo‘li o‘tganligidan va Jomning bu yo‘ldagi savdo-sotiqda faol ishtirok etganligidan guvohlik beradi. Sirtiga hukmdor Antiox I Soter (eramizdan oldingi 280-261 yy) va Geliokl I (eramizdan oldingi 155-140 yy)ning tasvirlari tushirilgan tangalar Markaziy Osiyo arxeologiyasida juda kam uchraydigan noyob topilma hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm.

Tuman hududida 2022–2023-yillarda olib borilgan dala qidiruv tadqiqotlari natijasida aniqlangan yangi qoyatosh rasmlari Ziyovuddin tog‘ining Changallisoy, Uchtayoq, Hazrati Ali, Quduqchasoy, Tuyatosh kabi soy va daralarining yon qayirlaridagi ba’zi qoyalarga urib-cho‘kichlab ishlangan. Bu soylarda qadimgi ajdodlarimiz tomonidan chizilgan rasmlar nisbatan kam bo‘lib, ular urib-cho‘kichlash texnikasida, soya, sxematik va yarim sxematik uslublarda chizilgan. Xususan, Changallisoyda amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida bu yerda ikkita joydagi qoyatoshlarda tasvirlar borligi aniqlanib ro‘yxatga olindi (2-rasm).

Bu qoyatosh rasmlari orasida odam, tog‘ echkisi, arxar, jayron, ot, tuya, echki, bo‘ri, it, suvoriy (otliq), tamg‘a, turli shakldagi belgilar (solyarniy znak), kirill harfidagi yozuvlar, abstrakt (mavhum) tasvirlar va chala qoldirilgan hamda noaniq – xira ishlangan rasmlar borligi aniqlandi.



2-rasm.

2022–2023-yillarda tumanning Changalli qishlogʻida ilk oʻrta asrlarda kulolchilik xumdonlari topilgan boʻlib, bu xumdonlar qishloqning shu nom bilan ataluvchi soy boʻylab joylashgan. Xususan, 1-xumdon Changalli soyning chap tomonida joylashgan boʻlib, uning faqat olovxonasining devori va poli saqlanib qolgan. Xumdon olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan, yumaloq shaklda, sharqiy tomonida saqlanib qolgan olovxona devorining balandligi 1,2 m, aylanasini 1,7 m. Devor kuchli yongan olov taʼsirida qizgʻish tus olgan, qalinligi 10 sm. Xumdon ichida tuproq hamda kul qatlami qayd etildi (3-rasm).

2-xumdon 1-xumdonning janub tomonida joylashgan boʻlib, uning faqat olovxona qismi saqlanib qolgan. Bunda xumdonning olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan, yumaloq shaklda, diametri 1,7 m, devorining saqlanib qolgan balandligi 0,8 m. Xumdon ichida tuproq hamda kul qatlami qayd etild. 3-xumdon Changalli soyning oʻng tomonida joylashgan boʻlib, mahalliy aholining tuproq olishi natijasida buzilib ketgan. Natijada xumdonning olovxona va pishirish qavatlarini ochilib qolgan. Mazkur xumdon toʻliq ochib oʻrganildi. Xumdonning olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan boʻlib, yumaloq shaklda, diametri 2 m. Olovxona devorlari granit toshlaridan qilingan boʻlib, uning qalinligi 10 sm. Shuningdek, olovxonadan pishirish xonasiga yuqori haroratni oʻtkazib beruvchi xil novlari ham qayd etil-

di. Pishirish qavatida olovxona ichiga qulab tushganligi sababli yaxshi saqlanib qolmagan.



3-rasm.

Xumdonning pishirish qavatida kulolchilik charxida yasalgan krujka – yag‘log‘i qayd etildi. Yog‘log‘ilar kulolchilik charxida yasalgan, yupqa devorli, tanasi yumaloq, bo‘g‘zi silindrsimon, tanasi va bo‘g‘zini bir-biridan ajratib turuvchi valik o‘tgan. Bunday turdagi idishlar ilk o‘rta asrlarda So‘g‘dda keng tarqalgan².

Nurobod tumanining g‘arbiy qismidagi Beshtol tog‘ darasi yoqasida joylashgan, bugungi kunda 10 mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan Tim qishlog‘i ham insoniyat sivilizatsiyasi rivojida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

“Tim” forscha so‘z bo‘lib, usti yopiq, gumbaz ma’nosini anglatadi. Timlar qadimda asosan yirik shahar markazlarida, ko‘chalar kesishgan chorraha, chorsu, guzar maydonida, karvonsaroylar yaqinida

² Холматов А.Н., Сандибоев А.Н., Сorieв Х.Я., Ботиров И. 2022 йилда ўрта Зарафшон ҳавзасининг қоятош суратлари устида олиб борилган дала кидирув тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар/тўплам; масъул муҳаррир М.М.Саидов; Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Я. Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти – Самарқанд, 2023. 293–294–бетлар.

joylashgan. Usti gumbaz bilan qoplanib, bir necha hunarmandchilik do‘konlari va savdo rastalarini o‘z ichiga olgan.

Tim qishlog‘ining islom olami sivilizatsiyasida alohida o‘rni, ahamiyati borligi shubhasizdir. IX-XI asrlarda bu yerda islom dinini o‘rganadigan, targ‘ib qiladigan yirik ilmiy markaz faoliyat ko‘rsatganligini taxmin qilishimiz mumkin. Bu yerda faoliyat ko‘rsatganlarning biri Arabota nomi bilan mashhur allomadir. Bu zotning islom dinini rivojlantirishda alohida xizmatlari borligi uchun ham qabri ustiga hashamatli maqbara bunyod etilgan. Arabota maqbarasi Movarounnahrda saqlanib qolingani eng qadimgi musulmon maqbaralaridan biridir. Maqbara peshtoqida saqlanib qolingani ko‘fiy yozuvidan aniqlanishicha, me‘moriy yodgorlik Buxoro somoniylar sulolasidan bo‘lmish Nuh ibn Mansur (977-997) hukmronligi davrida qurilgan. Tarixshunos V.V.Bartold 1006-1007-yillarda qurilgan Qobus minorasini musulmon me‘morchiligi ichida eng qadimgisi deb ta’kidlagandi. Timdagi yodgorlik esa 367 hijriy-yil rabi al-soniy oyida, ya’ni 977-yilning oktabr oyida tugatilganligi qayd etilgan. Maqbaraning peshtoqi ham Markaziy Osiyo me‘morchiligida ana shunday shaklning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti munozarasiga aniqlik kiritadi (4-rasm).



4-rasm.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

XVI asrga kelib esa bu yerda Oqmasjid nomi bilan mashhur masjid barpo qilingan. Oqmasjid peshtoqli, ravoqli, bir xonali bo‘lib, tepasi gumbaz qilib yopilgan. Devorlari ganch bilan qoplangan. Eshik tepasidagi tobadan ganchgacha panjara bilan bezatilgan. Uning tepasiga darcha ishlangan. Ichki xonasining gumbaz osti bolorlari 16 qirrali ravoqsimon. Janubiy-g‘arbiy devoriga mehrob ishlangan (5-rasm).



5-rasm.

Ushbu maqbara va masjid o‘z me‘moriy yechimlari, bezaklari, naqshlari bilan Markaziy Osiyo me‘morchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Bir necha yuz yillardan ortiq vaqt mobaynida qad rostlab turgan ushbu tarixiy obida bugungi kunda barcha uchun tabarruk ziyoratgohga aylangan.

2021–2023-yillarda tumanning Tim qishlog‘i yaqinidagi Quduqchasoy, Tuyatoshda yangi qoyatosh rasmlari ro‘yxatga olindi. Bu yerdagi toshlarda suvoriy, yovvoyi tog‘ echkilari, arxar, turli geometrik belgilar, qadimgi turkiy-run bitiklari (taxmin) va alohida harflar kabi tasvirlar ham uchraydi. Xususan, Quduqchasoyda aniqlangan va biz tomonimizdan turkiy-run yozuvi deb taxmin qilinayotgan tasvirlar ayniqsa diqqatlidir (6-rasm).



6-rasm.

Bu yerda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida qoyatoshdagi bu turli belgi tasvirlari diqqat bilan o'rganildi, bu belgi tasvirlari respublikamiz va unga qo'shni davlatlarning turli hududlaridan topib o'rganilgan turkiy–run yozuvlari qiyosiy tahlil qilinib, mana shu taxminiy xulosalarni ilgari surildi. Tasvirlar har xil shakllarda, ya'ni aylana, burchakli, uchburchak, ovalsimon ko'rinishlarda aks ettirilgan. Bu rasmlarning ko'pchiligi uzoq yillik tabiat hodisalari ta'siri natijasida yemirilib, siypalanib noaniq–xira holatlarga kelib qolgan (7-rasm).

2022–2023-yillarda arxeolog Alisher Sandiboev boshchiligida Nurobod tumani Tim hamda Changalli qishloqlarida olib borilgan arxeolgik izlanishlar natijasida bronza davriga oid bo'lgan mis koni hamda hamda ilk o'rta asrlarga oid bo'lgan xumdonlar o'rni ochib

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

o‘rganildi. Jumladan, Nurobodning Tim qishlog‘i hududidagi Otkamarsoyning o‘ng tomonida bronza davriga oid bo‘lgan 3 ta mis eritish pechining o‘rni qayd etildi. Bu yerda qayd yetilgan sopol idishlar bronza davri Andronova madaniyati jamoalariga xos bo‘lgan chorvadorlar faoliyati bilan bog‘liqdir. Mazkur soyda grandiorit qoyalarga urib-cho‘kichlab ishlangan qoyatosh rasmlari kashf etildi. Bu tasvirlar mazmuni va syujeti xilma-xil bo‘lib, ular odam, hayvonlar hamda noaniq tasvirlardan iborat.



7-rasm.

Shuningdek, Tim qishlog‘i mahalliy aholisi tomonidan topilgan kamon o‘qi uchlari VII-VIII hamda X-XII asrlar bilan davrlashtirildi.

Tim qishlog‘idan uncha uzoq bo‘lmagan Zirabuloq tog‘ yonbag‘rida, Ingichka tog‘-kon markazidan 10 km shimolda joylashgan Ostonabobo qishlog‘ida tarixga “Langar shayxlari” nomi bilan kirgan, hududda islom dinining rivojiga katta hissa qo‘shgan “Al-ishqiya” suluki yo‘lida faoliyat olib borgan shayxlar ziyoratgohi mavjud. “Al-ishqiya” suluki vakillari o‘zlari va avlodlarining katta xizmatlari orqali Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson va Hindistonda tanilgan uch ulug‘ shayx: Shayx Xudoyquli, Shayx Muhammad Ahmad va Shayx Ilyos ibn Muhammad sharafiga bu yerda XIV asrda Ostonabobo maqbarasi va uning sharqiy tomonida masjid barpo qilingan. Ulug‘ o‘zbek mumtoz shoiri Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhab-

bat” nomli asarida Ilyos shayx haqida: “Ilyos shayx-rahmatullohi taoli Muhammad shayx rahmatullohi taolining o‘g‘lidir. Zohir ilmida bu silsilada andin olimroq yo‘q ermish va haj davlatiga musharraf bo‘libdur. Arabiatda mohir ermish va ul til birla so‘zlashuv ermish va nazm dog‘i aytur ermish. Samarqandda Tum (Tim) tog‘ida sokin emish”, - deya e‘tirof etgan.

2024-yil 10-aprel kuni Nurobod tuman hududida arxeologik tadqiqot olib borayotgan Samarqand arxeologiya instituti ilmiy yekspeditsiyasi a‘zolari bilan institut yetakchi ilmiy xodimi Komiljon Rahimov rahbarligida Ag‘ron qishlog‘i hududida dala qidiruv tadqiqot ishlarini olib bordik. Bu yerda birinchi navbatda e‘tiborni tortadigan holat Usmon ota qabristoni deb atalgan tepalik ustiga qurilgan gumbazli xonaqohdir. Xo‘sh, bu xonaqoh bu yerda qachon va qay tarzda paydo bo‘lgan? Bu savolga javob topish uchun avvalo bu qabriston – tepalikning o‘zi qachon va qay tarzda paydo bo‘lgan degan savolga javob topishga to‘g‘ri keladi.

Geografik jihatdan olib qaraganda, tepalik shimol tomondan shu hududda muhim strategik mavqega ega, hudud ijtimoiy-ma‘naviy, siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan Changalli, Ostonabobo, shimoliy-g‘arb tomondan Tim, janubiy sharq tomondan Jom qishloqlari o‘rtasida joylashgan bo‘lib, bu tepalik, bizning fikrimizcha, bir paytlar, bundan bir yarim ming yillar (V-VII asrlar) oldin savdo karvonlari to‘xtab o‘tadigan va savdo bo‘ladigan, harbiy jihatdan esa muhim bo‘lgan qo‘rg‘on sifatida faoliyat yuritgan bo‘lishi kerak. Buni qabriston hududida topilgan sopol pishirish qoldiqlari (shlaklar) tasdiqlaydi (8-rasm).

Arxeolog olimlar A.Berdimurodov va K.Rahimovlarning xulosalariga ko‘ra, gumbazli xonaqoh g‘ishtlari XVI asrga oid bo‘lib, faqat gumbazli xonaqoh o‘rni hozirgi qad ko‘targan joyida emas, birmuncha sharq tomonda bo‘lgan. Taxminan 250-300 yillar oldin eski g‘ishtlari ko‘chirib olinib, hozirgi turgan joyiga qayta qurilgan. 1966-yilda esa mahalliy ustalar tomonidan yangisi qurilgan (9-rasm).



8-rasm.



9-rasm.

Shu yodgorlikning g'arbiy qismida joylashgan Saritepa yodgorligidan topilgan tarixiy buyumlar ham muhim ahamiyatga egadir. Bu yerdan VI-VII asrlarda dafn etilgan turk jangchisining qabri topilgan. Turkiy xalqlar odatiga ko'ra, jangchi qurol-yarog'lari va oti bilan birgalikda dafn etilgan. Shuningdek, qabrdan topilgan kamon o'qlari va sopol idish parchalari o'sha davr hunarmandchiligi va madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi (10-rasm).



10-rasm.

Shu yili Nurobod tumani O'rtabo'z qishlog'ida qadimgi qishloq makoni qayd etildi. Ushbu yodgorlik Sho'rsoyning chop tomonida joylashgan. Yodgorlik mahalliy aholi tomonidan "tepalik" deb nomlanadi. Yodgorlik to'g'ri to'rtburchak shaklda, unga kirish eshigi shimol tomonda joylashgan. Ushbu tepalikda somoniylar davri tangasi hamda qoraxoniylar davri sopol idish bo'laklari qayd etildi (11-rasm).

Hududda hunarmandchilik bilan bir qatorda eng qadimgi davrlardan ya'ni eramizdan oldingi II yillik o'rtalaridan boshlab konchilik rivojlana boshlangan. Chunonchi, arxeolog olimi N.Avanesovanning ma'lumotiga ko'ra, Changali qishlog'idan 1,6 km shimoli sharqda Kesiktosh qalayi ma'dan koni joylashgan. Kon dengiz sathidan 850 metrdan ziyodroq balandda soy yon bag'rida joylashgan. Kondan ilk bor miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab qalayi ma'danini kovlab olingan. Kon eni 0,5-2 metrgacha, chuqurligi 2-15-25 metrgacha, uzunligi 5-20-50 metrgacha bo'lgan³ (12-rasm).

³ Аванесова Н. Древние горняки Зарафшана. Археология Узбекистана, 2012, № 1 (4). С 11-13.



11-rasm.



12-rasm.

Bu yerdagi qalayi ma'dani konlaridan bronza davri, ya'ni eramzdan oldingi II-ming yilliklardan to milodiy XII asrlarga qadar kovlab olish ishlari olib borilgan.

Taniqli arxeolog olim Amriddin Berdimurodov va Shoiri Indiaminovaning ta'kidlashicha, Markaziy So'g'ddagi Samarqand, Panjikent, Rivdod, Bosida, Dobusiya, Ishtixon, Kushoniya, Vidor, Sog'arj, Rabinjon; Buxoro So'g'didagi Paykent, Varaxsha, Romitan, Karmana; Qashqadaryo So'g'didagi Qarshi, Kesh, Kitob, Sangirtepa kabi shaharlarning Buyuk Ipak yulining rivojida bemisl xizmatlari bor⁴. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Nurobod tumani qisman tog'li hududlardan tashqari asosan cho'l va dasht hududlardan tashkil topgan bo'lsada, lekin Buyuk Ipak yo'lining rivojida munosib hissa qo'shgan. Xususan, Tim qishlog'idan Buyuk Ipak yo'lining muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri o'tgan, ya'ni Samarqanddan chiqqan savdo karvonlari Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Dobusiya orqali Qoracha tog'laridagi buloq suvlaridan bahramand bo'lib, Changalli, Ostona-bobo qishloqlari orqali Tim qishlog'iga yetib kelgan va so'ngra janub tomonga Qarshi, g'arb tomonga Buxoro tomon o'z safarlarini davom ettirganlar. Bu xalqaro savdo yo'lining ikkinchi tarmog'idan esa karvonlar Jom qishlog'i orqali bir tarafi Sazag'an, Tepaqul qishloqlari bo'ylab Samarqandga, ikkinchi tomoni Qarshi, Kesh, Kitob, Sangirtepa bo'ylab Termizga va boshqa janubiy viloyatlarga yo'l olganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Nurobod tumani hududida bir qancha muqaddas ziyoratgoh va qadamjolar mavjudki, bu ziyoratgohlar hozirda ham kishilar e'tiboridadir. Xususan, tuman hududidagi Qo'chqorli ota, Usmon ota, Sahoba ota, Ibrohim ota, Najmiddin ota, Tim ota kabi ziyoratgoh va qadamjolarning har biri o'tmish ma'naviy tariximizda alohida ahamiyatga egadir.

Quyidagilarni ilmiy xulosalar sifatida ko'rsatish mumkin bo'ladi:

-hozirgi Nurobod tumani hududi insoniyatning eng qadimda yashagan hududlardan (Tepaqul, Sazag'on, Jom, Tim, Changali qishloqlaridan topilgan eng qadimgi tosh davri arxeologik topilmalar misolida) biridir. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, tuman hududida

⁴Буюк Ипак йўли: қиъалар ва асрлар оша /А.Бердимуроdов, Ш.Индиаминова; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Яхё Ғуломов номидаги археология институти; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Самарқанд давлат чет тиллар институти:-Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 50–бет.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

odamzod kishilik tarixi tosh davri oʻrta paleolit (bundan 100-40 ming yil oldin) davridan eʼtiboran yashab kelmoqda.

- eng qadimgi ibtidoiy sanʼat va madaniyat oʻchoqlaridan biri hisoblanadi (Tepaqul, Sazagʻan, Jom, Changali, Qoʻrgʻoncha, Tim qishloqlari togʻ-qoyalaridan topilgan qoyatsh rasmlari va qadimgi runiy yozuvlar (**runiy yozuvlari – hozircha taxmin**) misolida).

- Buyuk Ipak savdo yoʻlining chorraha yoʻllari kesishmasida joylashib, bu savdo yoʻli rivojida oʻziga xos muhim rol oʻynagan (Jom, Tim qishloqlari misolida).

- hunarmandchilik, ayniqsa, sopol ishlab chiqarish hunarmandchiligi rivojlangan hududlardan biridir (Jom, Tim, Changalli, Agʻron qishloqlari hududlaridan topilgan xumdonlar misolida).

- tuman hududida bronza davri (eramizdan oldingi II-ming yillik oʻrtalari) dan boshlab konchilik (mis-qalayi qazib olish) paydo boʻlgan va rivojlangan (Changali qishlogʻidagi Kesiktosh qalayi maʼdan koni misolida).

- hudud islom dinini keng yoyishda muhim oʻrin tutgan maskan (Timdagi Arab ota yodgorligi, Sahro qishlogʻidagi Ostonabobo maqbarasida dafn etilgan va tarixga “Langar shayxlari” nomi bilan kirgan, hududda islom dinining rivojiga katta hissa qoʻshgan “Al-ishqiya” suluki yoʻlida faoliyat olib borgan uch ulugʻ shayx: Shayx Xudoyquli, Shayx Muhammad Ahmad va Shayx Ilyos ibn Muhammad faoliyatlari misolida)lardan biridir.

Tuman hududida hali ochilmagan juda koʻp tarixiy va arxeologik yodgorliklar mavjud. Bu yodgorliklarni oʻrganish, tadqiq etish bugungi kun tarix-arxeologiya fani olimlarining dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Э. Бердимуродов, С.С.Суюнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1-том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2-қисм. - Самарқанд: “Зарафшон”, 2015.

2. Бердимуратов А.Э., Хасанов М.Х., Франческини Ф. “О работах на Бойсаритепа в 2007 году//Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007 годы. Выпуск 6. Тошкент, 2009. С. 57-64.

3. Буюк Ипак йўли: қитъалар ва асрлар оша/А. Бердимуродов, Ш.Индиаминова; Ўзбекистан Республикаси Фанлар академияси Я.Ғуломов номидаги археология институти; Ўзбекистан Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Самарқанд давлат

чет тиллар институти: - Тошкент: “�збекистон” НМИУ, Тошкент, 2017.

4. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар//Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010–2011 йиллар, 8 сони. Самарқанд, 2012. 6. 90-100.

5. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Ташкент: Фан, 1991.

6. Сандибоев А.Н. Маймуғ мулклиги илк ўрта асрларда (археологик ва ёзма манбалар асосида) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд, 2020. 48 б.

7. Сандибоев А.Н. Маймуғ мулклиги илк ўрта асрларда. Замин-нашри, 2021. 203 б.

8. Сандибоев А.Н., Раҳимов К.А., Холматов А.Н., Раҳмонов Ҳ.Ў., Хўжамов С.Ҳ., Алибеков А., Алимов Н., Ботиров И. 2022 йилда Самарқанд вилоятида олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари // Ўзбекистон археологик тадқиқотлар: 2022 йил. 15-сон. Самарқанд, 2023. Б. 249-256.

9. Холматов А.Н., Сандибоев А.Н., Сorieв Х.Я., Ботиров И. Ўрта Зарафшон ҳавзасининг қоятош суратлари устида олиб борилган дала қидирув тадқиқотлар// Ўзбекистон археологик тадқиқотлар: 2022 йил. 15-сон. Самарқанд, 2023. Б. 292-295.

10. Холматов Н.У. Мезолит низовев Зарафшана // История материальной культуры Узбекистана. №31, 2000. С. 25-34.

11. Холматов Н.У. Очилғор макони тадқиқотлари // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2004-2005 йиллар. 5-сон, Тошкент, 2006. Б. 220-225

12. Холматов Н.У. СамДУ археологик гуруҳининг 2006 йилги тадқиқоти натижалари // Ўзбекистон археологик тадқиқотлари 2006-2007 йиллар. 6-сон, Тошкент, 2009. Б. 259-267.

13. Холматов Н.У. СамДУ археологик гуруҳининг 2008-2009 йиллардаги тадқиқотлари тўғрисида // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2008-2009 йиллар. 7-сон, Ташкент, 2006. В.187-198.

14. Yuldashev J. Nurobod tumanidagi ayrim etnooykonimlar xususida mulohazalar. TAMADDUN NURI_jurnali, 2024-yil, 1-son, (52) 121-bet.

15. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/482-nasoim-ul-muhabbat-iii-qism-alisher-navoiy.html>.

NUROBOD TUMANI TOSH DAVRI MADANIYATI TARIXIDAN LAVHALAR

Xolmatov N.O‘. – tarix fanlari doktori, professor,

Umarov U.A. – t.f.f.d (PhD dotsent,

O‘razov D.N. – Arxeologiya kafedrasi magistri,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Vatanimiz hududi kishilik tarixi ibtidoiy davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotida Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan (Mavlon Djurakulov, Ochil Ibragimov, Normahammad Xolmatov, Orif Ibragimov, Ilhom Qurbonboev, Ulug‘bek Umarov) o‘rta Zarafshon vohasi Nurobod tumani Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘rida amalga oshirilayotgan izlanishlar natijalari muhim ma‘lumotlarni taqdim etmoqda. Bu tadqiqotlar mazkur mintaqada o‘rta paleolit davridanoq (bundan 100-40 ming yil oldin) odamzod yashay boshlaganini ko‘rsatmoqda. Bu haqda shu joylardan topilgan tosh davri jamoalariga tegishli yodgorliklar tadqiqoti ma‘lumot beradi.

Ma‘lumki, Zarafshon vohasi Vatanimizning ko‘hna madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Voha o‘z mazmun-mohiyati xususiyatlariga ko‘ra yuqori Zarafshon, o‘rta Zarafshon (Samarqand pastqamligi) va bir necha qadimiy o‘zanlardan iborat bo‘lgan quyi Zarafshon kabi tarkibiy qismlardan iborat (1-rasm). Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri o‘rta Zarafshon vohasi bilan bog‘liq bo‘lib, voha bilan parallel holatda taxminan 50 kilometrlar chamasi masofada g‘arb tomon cho‘zilgan hudud hisoblanadi (Nurobod tumani sarhadlariga to‘g‘ri keladi). Tadqiq etilgan va tadqiqoti davom etayotgan hamda arxeologik dala qidiruv ishlari natijasida yangi kashf etilayotgan tosh davri yodgorliklari joylanish holatlari shu tog‘ yon bag‘ridan o‘z suvlarini voha tomon oqizib chiquvchi yirik soylar (Ohalik, Mironqul, Tepaqul, Egriqul, Sazag‘on, Katta va Kichik Quruqsoy, Oqsoy kabi) yon qayirlari va ular yon daralaridagi g‘or va o‘ngurlar bilan bog‘liq (2-rasm). Bu makonlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur joylar dengiz sathidan 800-1000 metrlar chamasi yuqorida joylashgan.

Mazkur mintaqada tosh davri jamoalari moddiy madaniyatini yaxlit, to'liq tasavvur etish uchun biz tadqiq etilgan va tadqiqoti davom etayotgan makonlarni tosh davri bosqichlari taraqqiyot ketma-ketligi (paleolit, mezolit, neolit) bo'yicha bayon etishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Paleolit. Olmabuloq paleolit makoni. O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridan voha tomon o'z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo'lgan Sazog'onsoy yon qayirida joylashgan (Nurobod tumani, Sazog'on qishlog'i markazidagi Olmabuloq chashmasi yonida) (10-rasm). Olmabuloq makoni Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 2000-yili kashf etilib, 2001-yili ham tadqiqoti davom ettirilgan yodgorlik hisoblanadi. Makon tadqiqoti jarayonida qiziqarli arxeologik manbalar to'plashga, shuningdek makon stratigrafik holati, madaniy qatlami xususiyatlari borasida ham qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritishga erishilgan. Xususan, tosh buyumlar kolleksiyasi *levallua-muste* texnologik uslubi asosida ishlov berilgan tosh o'zaklari, qirg'ichlar, kertuv usuli bilan ishlov berilgan arxaik ko'rinishidagi paraqalar, pichoqsimon qurollar, uchburchaksimon paykon quroli, qayroqtosh qurollari bo'laklari hamda ishlab chiqarish chiqindilaridan iborat. Bu mehnat vositalari turmushda bajargan o'z funksiyasi, yasaliş shakli, ishlov berilishi uslublari jihatidan Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Omonqo'ton kabi paleolit makonlari tosh qurollariga yaqin. Eng qizig'i, ba'zi tosh qurollarda Samarqand so'ngi paleolit makoni tosh qurollariga xos texnologik uslub va xususiyatlar ham saqlanib qolinganligi holatlarini kuzatish mumkin.⁵ Bular Olmabuloq o'rta paleolit jamoalari moddiy madaniyatining o'ziga xos qirralarini belgilovchi omillar hisoblanadi.

Mezolit davri yodgorliklari

Sazog'on I makoni. O'rta Zarafshon vohasi mezolit jamoalari moddiy madaniyatini yoritishda Sazog'on I makoni tadqiqoti natijasida qo'lga kiritilgan arxeologik manbalar ahamiyati muhim hisoblanadi. Makon O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridan voha tomon o'z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan

⁵ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Самарқанд давлат университети тадқиқотларидан. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар-2000, Самарқанд, 2001. Самарқанд давлат университети дала қидирув тадқиқотлари саҳифасидан. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар-2001, Тошкент, 2002.

biri bo'lgan Sazog'onsoy yon qayirida joylashgan (Samarqand viloyati, Nurobod tumani Sazog'on qishlog'i yuqori qismida) (3-rasm). Makon kashf etilishi Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotlari bilan bog'liq bo'lib, makonda 1967–1968-yillari D.N.Lev, 1969–1977-yillar maboyinida M.J.Djuraqulov rahbarligida arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Hammasi bo'lib 100 metr kvadratdan ortiqroq maydon sathida madaniy qatlam ochilib, 2,5 mingdan ortiq arxeologik ashyoviy dalillar qo'lga kiritilgan. Makon tosh industriyasi uchirindili-parakali industriya bo'lib, tosh qurollari tipologik tahlili uni O'rta Osiyo tog' mintaqasi mezolit–neolit jamoalari moddiy madaniyatiga o'xshashligini ko'rsatdi. Shu xususiyatlar asosida Sazog'on I makoni mezolit davri so'nggi bosqichlari va ilk neolit jamoalariga tegishli ekanligi aniqlandi.⁶ Eng qizig'i, makon tosh industriyasida Samarqand so'ngi paleolit yodgorligi tosh qurollariga xos bo'lgan qurollarga ishlov berish texnologik uslublari an'analari saqlanib qolganligi holatini kuzatilishi bo'ldi. Bu xususiyat madaniyatlar kelib chiqishi ildizi masalasini oydinlashtirishda muhim omil bulib xizmat kilishi mumkin.

Zamicha – tosh makoni. Makon 1989-yili O'zR FA arxeologiya institutining paleolit guruhi xodimlari tomonidan kashf etilgan bo'lib, Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridan voha tomon chiqib keluvchi soylardan biri bo'lgan Sevasoy yon qayirida joylashgan. (Samarqand viloyati Urgut tumani). Bu makon yodgorliklarning o'ngur tipiga kirib, uning o'lchamlari quyidagicha: og'iz qismi eni 10 metr, ungur tubiga qarab 4 metr. Arxeologik qazishma ishlari jarayonida makonda ikkita madaniy qatlam borliligi aniqlanib, ularda qiziqarli arxeologik manbalar topishga erishilgan. Xususan, tosh buyumlarning tipologik tahlili natijasida tadqiqotchilar makonni mezolit jamoalariga tegishli ekanligi haqida xulosa chiqarishganlar.⁷

Qorakamar g'or makoni. Sazog'onsoyning qo'shni soylaridan biri Katta Quruqsoy hisoblanadi. Bu soy Sazog'onsoydan taxminan 1,5 kilometrlar chamasi g'arb tomonda joylashgan (4-rasm). Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi 2000-yil kuzida

⁶ Холлюшкина В.А., Холлюшкин Ю.П. к вопросу с характере развития мезолитической индустрии сазагон II Сибирь в древности. Новосибирск.1979. Джуракулов М.Ж, Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана., Тошкент. 1991.

⁷ Худойбердиев Р.А. Гречкина Т.Ю. Замича-тош–Новый памятник каменного века. Палеоэкология и проблемы первобытной археологии Центральной Азии. ТДК, Самарканд, 1992.

Sazog'onsoy va unga qo'shni bo'lgan soylar yon daralarida arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirayotgan paytda Katta Quruqsoy yon darasida Qorakamar g'or makonini kashf etishga erishgan. Qazilma ishlari N.Xolmatov tomonidan amalga oshirilgan. Qorakamar g'or makoni soyning hozirgi o'zanidan taxminan 15 metrlar chamasi yuqorida joylashgan bo'lib, g'orning og'iz qismi shimoliy-sharqqa qaragan va pastki maydon qismi esa tuproqli qatlamdan iborat. G'orning o'lchamlari quyidagicha: uning og'iz qismi balandligi 5,8 metr, eni esa 6,6 metr, ichki, ya'ni g'orning tubi tomon uzunligi 10,5 metrni tashkil etadi. Shu yili g'or makoni og'zi qismida dastlabki 8X1 metr maydon sathida arxeologik qazishma ishlari bajarilib, qimmatli arxeologik ash-yoviy dalillar (tosh buyumlar, sopol buyum parchalari, suyak qurollari bo'laklari, hayvon suyagi qoldiqlari va h.k) topilgan, hamda 2 ta o'choq qoldig'i borligi ham aniqlangan. Tosh qurollarining tipologik tahlili makon tosh industriyasi mezolit-neolit davri jamoalariga tegishli ekanligidek dastlabki xulosa chiqarish imkonini bermoqda.⁸

Neolit davri yodgorliklari. O'rta Zarafshon vohasi neolit davri jamoalari moddiy madaniyati juda yaxshi tadqiqot etilgan. Xususan, Quyi Zarafshon vohasi, uning qadimiy o'zanlari Echkiliksoy, Oyoqagitma, Daryosoy, Chorbaqti, Xo'jayli va Mahondaryo vohalarida ko'plab ibtidoiy makonlar topilib, ular Kaltaminor jamoalariga tegishli ekanligi aniqlangan⁹. Yuqori Zarafshon vohasida neolit jamoalari moddiy madaniyati Oq-Tanga makonida V.A.Ranov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlari natijalari bilan fanga ma'lum¹⁰. O'rta Zarafshon vohasi neolit jamoalari moddiy madaniyati esa Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri yirik soy yon qayirlariga tarqalgan Sazog'on madaniyati asosida o'rganilgan.¹¹ Ta'kidlash joizki, Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'tgan asrning 60-yillari ikkinchi yarmida kashf etilgan Sazog'on madaniyati makonlari tadqiqoti hozirgi kungacha davom etib kelmoqda va madaniyatga oid yangi makonlar topilmoqda.¹² (ayni kunda 30 dan ortiq makonlar arxeologik xaritaga olingan). Biz quyida O'rta Zaraf-

⁸ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Самарканд университети тадқиқотларидан. Ўзбекистон археологик тадқиқотлар, 2000,- Самарканд, 2001.

⁹ Гулямов Я.Г., Исломов У.И., Аскаров А.А., Первобытная культура и возникновение орашаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Тошкент, 1966, Виноградов А.В., Древние охотники и раболовы Среднеазиатского междуречья. ТХАЭ Т.ХІІІ., "Наука" 1981.

¹⁰ Ранов В.А. Неолит (гиссарская культура). История таджикского народа. Том.І. Душанбе. 1998.

¹¹ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Кўрсатилган адабиёт, Тошкент. "Фан".1991.

¹² Холматов Н.У.Кўрсатилган адабиёт, 2003.

shon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri miqiyosida tadqiqot etilgan va tadqiqoti davom etayotgan neolit makonlari bayonini keltiramiz.

Ohalik makoni. O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ridan voha tomon o‘z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo‘lgan Ohaliksoy yon qayirida joylashgan (Samarqand shahridan taxminan 18 kilometrlar chamasi janub tomonda). Makon 1986-yili O‘z FA Arxeologiya instituti paleolit otryadi xodimlari tomonidan kashf etilgan. Tadqiqot ishlari esa 1991-yili bajarilib, mahalliy aholi tomonidan Sangi-Shoh deb ataluvchi katta xarsang tosh pastki kovak qismi yer sathidan 18 metr kvadrat maydonda madaniy qatlam qazib ko‘rilgan. Tadqiqotlar natijasida makon ikki madaniy qatlamli ekanligi aniqlanib, ulardan 486 dona tosh buyumlar topilgan. Tosh qurollari tipologik tahlili makon moddiy madaniyati mezolit davri so‘ngi bosqichlari va ilk neolit jamoalariga tegishli ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini berdi.¹³

Sazog‘on II makoni. Mazkur makon O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘rida tarqalgan Sazog‘on neolit madaniyatining asosiy tayanch yodgorligi hisoblanadi. Bu makon ham Sazog‘onsoy chap yon qayirida joylashgan (Sazog‘on I mezolit makonidan soy o‘zani bo‘ylab taxminan 2,5 kilometrlar chamasi yuqorida) (5-rasm). Yodgorlik tadqiqoti Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, garchi makon 1966-yili Sazog‘on I makoni bilan bir qatorda kashf etilgan bo‘lsada, lekin tadqiqot ishlari makonda 1971–1982-yillar mobaynida amalga oshirilgan. Tadqiqotlar jarayonida 400 metr kvadratga yaqin maydon sathidan madaniy qatlam o‘rganilib, o‘n mingga yaqin arxeologik manba topilgan. Arxeologik ashyoviy dalillar asosiy qismini tosh buyumlar (besh mingga yaqin), sopol buyum parchalari, hayvon suyagi qoldiqlari, qisman esa suyak qurollar, taqinchoqlar tashkil etadi. Eng muhimi, makon madaniy qatlamidan antropologik manbalar, turar joylar qoldiqlari topilishi ahamiyatli hisoblanadi. Makon tosh qurollari tipologik tahlili sazog‘on jamoalari moddiy madaniyati o‘z xususiyatlari bilan O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi neolit jamoalari madaniyatlariga yaqinligini ko‘rsatdi, shuningdek jamoalarning o‘ziga xronologik jihatdan tengdosh bo‘lgan

¹³ Худойбердиев Р.А. Агалик – новая стоянка каменного века. Узбекистон в древности и средневековье, Самарканд. 1992.

jamoalar bilan o‘zaro qo‘ni-qo‘shnichilik madaniy aloqadorlikda bo‘lishganliklari borasida ham qimmatli ma’lumotlar olingan.¹⁴

Djanganl I makoni. O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ridan voha tomon o‘z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo‘lgan Egrikulchasoy yon qayirida joylashgan (Samarqand viloyati Nurobod tumani Egrikul qishlog‘i yuqori qismida) (6-rasm). Egrikulchasoy Sazog‘onsoyga qo‘shni soy hisoblanadi. Makon joylashgan qayir soyning chap qirg‘og‘ida bo‘lib, qayirning pastki qismi soyga yaqin joyida katta buloq mavjud. Aniqrog‘i, ana shu buloqning ustidagi qayirda makon joylashgan. Djanganl I makoni Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1986–1989-yillar mobaynida tadqiq etilgan. Qazilma ishlari N.Xolmatov tomonidan amalga oshirilgan. Hammasi bo‘lib 200 metr kvadrat metr maydon sathida madaniy qatlam o‘rganilib, 5000 ga yaqin arxeologik ashyoviy dalillar qo‘lga kiritilgan. Eng muhimi, makondan turar-joy qoldig‘i hamda yaxshi holatda saqlangan naqshli neolit sopol buyum parchalari topishga erishilganligi bo‘ldi. Makon tosh industriyasi o‘zida sazog‘on madaniyati xususiyatlarini mujassamlashtirgan.¹⁵

Tepaqul 1 makoni. Bu makon O‘rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ridan voha tomon o‘z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo‘lgan Tepaqul soy yon qayirida joylashgan. (Nurobod tumani Tepaqul qishlog‘i yuqori qismida). Makon joylashgan qayirdan soyga yaqin joyda katta buloq hozirgi kunda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. 1979-yili Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari Tepaqulsoy bo‘ylab amalga oshirgan arxeologik qidiruv ishlari jarayonida bu makon kashf etilib, qayir maydoni sathidan neolit davriga oid qiziqarli tosh buyumlar kolleksiyasi yig‘ilgan. Biroq hanuzgacha bu makonda arxeologik qazishma ishlari amalga oshirilmagan.¹⁶

Tepaqul 2 makoni. Tepaqul qishlog‘i yuqori qismidagi buloq yonida, ya’ni Tepaqul I makoni Tepaqulsoy chap yon bag‘ri qayirida

¹⁴ Джуракулов М.Ж., Некоторые итоги исследования неолитических стоянок в селении Сазаган., ОНУ., 1983. №6, Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Кўрсатилган адабиёт. 1991.

¹⁵ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Джангал I –новый памятник долины Зарафшана. ИМКУ, вып. 25, Тошкент, 1991, Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У., Амиркулов Б.А. Итоги археологического изучения стоянки Джангал I. // вопросы археологии, древней истории и этнографии. Труды СамГУ, Самарканд, 1991.

¹⁶ Джуракулов М.Ж. Результаты исследования археологической экспедиции Самаркандского госуниверситета им.А.Навои 1979 года.// Вопросы археологии древней истории и этнографии, Самарканд, 1980.

joylashgan bo'lsa, Tapaqul II makoni unga qarama-qarshi bo'lgan soyning o'ng yon qayirida joylashgan. Bu makon ham Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlarining 1979–yilgi arxeologik qidiruv ishlari jarayonida kashf etilgan.¹⁷ Lekin bu makonda ham tizimli ravishda arxeologik qazishma ishlari bajarilmagan.

Tapaqul 3 makoni. Tapaqul qishlog'idan Tapaqul soy o'zani bo'ylab taxminan 2,5 kilometrlar chamasi yuqorida, soy chap yon qayirida joylashgan (7-rasm). Tapaqul 3 neolit makoni 1989-yili Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan kashf etilgan. 1989–1996-yillar mobaynida tizimli ravishda N.U.Xolmatov tomonidan arxeologik qazishma ishlari amalga oshirilib, 400 metr kvadrat maydon sathida madaniy qatlam arxeologik tekshiruvdan o'tkazilgan. Tadqiqotlar jarayonida 5000 dan ortiq arxeologik manbalar qo'lga kiritililib, ular tosh buyumlar, hayvon suyagi qoldiqlari, sopol buyum parchalaridan iboratdir. Makon tosh qurollari tipologik tahlili ularni sazog'on jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli ekanligini ko'rsatdi.¹⁸

Tapaqul 4 makoni. Tapaqul 3 makonidan soy o'zani bo'ylab yuqori tomon taxminan 250-300 metrlar chamasi masofada bo'lgan qo'shni qayirda joylashgan (8-rasm). Makon 1995-yili Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari jarayonida kashf etilgan bo'lib, 1996–2003-yillar mobaynida makonda bevosita arxeologik qazishma ishlari N.U.Xolmatov tomonidan bajarilgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida 250 metr kvadratdan ortiq bo'lgan maydon sathida madaniy qatlam o'rganilib, 6000 dan ortiq arxeologik ashyoviy dalillar to'plashga erishilgan. Makon moddiy madaniyati o'z xususiyatlariga ko'ra sazog'on neolit jamoalari madaniyatiga o'xshash.¹⁹

Tapaqul 5 makoni. Tapaqulsoy chap yon qayirida joylashgan bo'lib, Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 1979-yilgi arxeologik qidiruv ishlari jarayonida kashf

¹⁷ Джуракулов М.Ж., Кўрсатилган адабиёт, 1980.

¹⁸ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Тapaкул 3 неолит манзилгоҳи ўрганилиши натижалари. Тарих фанининг долзарб муаммолари. Илмий тўплам, Самарқанд, 1997.

¹⁹ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Тapaкул 4 неолит манзилгоҳи (Ўрта Зарафшон воҳаси). Тарих ва истиқлол, Илмий мақолалар тўплами, Самарқанд, 2000; Ўрта Зарафшон неолит даври моддий маданиятининг баъзи хусусиятлари (Тapaкул макони асосида). // СамДУ ахборотномаси 2004, № 4.

etilgan. Makonda tizimli ravishda qazishma ishlari o'tkazilmagan, lekin 1992 va 1999-yillarda vertikal va gorizontal holatda transhey uslubida qazib ko'rilishi jarayonida qiziqarli arxeologik manbalar qo'lga kiritilgan. Tosh buyumlar kolleksiyasi tipologik tahlili ularni sazog'on jamoalari qurollariga o'xshash ekanligini ko'rsatdi.²⁰ 2025 yili Tapaqul 5 makonida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti va Rossiya FA Novosibirsk bo'limi Arxeologiya va etnologiya instituti arxeologlari hamkorlikda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirishdi (16-rasm).

Qayrog'och makoni. Bu makon Tapaqul qishlog'i tomon tog' yon bag'ridan chiqib keluvchi mayda soylardan biri bo'lgan Qayrog'ochsoy yon qayirida joylashgan. (Tapaqul qishlog'i janubiy-sharqiy qismi). Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 2001-yili Tapaqulsoyga qo'shni bo'lgan soylar yon bag'irlari bo'ylab o'tkazilgan arxeologik qidiruv ishlari paytida kashf etilgan. Shu joyda qadimgi buloq topqirdlari ham bor. Qayir maydon sathidan tosh buyumlari, sopol buyum parchalaridan iborat qiziqarli kolleksiya yig'ib olingan. Tosh qurollari dastlabki tipologik tahlili ular o'z xususiyatlari bilan Tapaqul neolit jamoalari moddiy madaniyatiga yaqinligini ko'rsatdi.²¹

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida so'ngi yillarda tizimli ravishda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida mazkur mintaqa ibtidoiy jamoalari makonlari faqatgina yirik soylar yon qayirlari bilan bog'liq bo'lib qolmasdan shu soylar yon daralarida mavjud bo'lgan g'or, ungirlar ham ibtidoiy odamzod uchun makon bo'lganliklari ma'lum bo'ldi.

Lolab g'or makoni. Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 1979-yili Sazog'onsoy yon daralari bo'yicha dala arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirish jarayonida kashf etilgan. Ochil Ibragimov tomonidan tadqiq etilgan. Makon Olmabuloq paleolit makonidan soy bo'ylab 350-400 metrlar chamasi yuqorida, soy o'zani sathidan esa taxminan 40-60 metrlar chamasi balandlikda daraning yon bag'rida joylashgan (10-rasm). G'orning og'iz qismi janubiy-g'arbga, ya'ni quyosh nuri tushadigan

²⁰ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. СамДУ археологик тадқиқотлари саҳифасидан. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2000, Самарқанд, 2001.

²¹ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Самарқанд давлат университети дала қидирув тадқиқотлари саҳифасидан. Ўзбекистон археологик тадқиқотлари, 2001, -Тошкент, 2002.

tomonga qaragan bo‘lib, hozirgi kunda ko‘rinishi qisman ko‘milib qolgan holatidadir. Uning o‘lchamlari quyidagicha: og‘iz qismi balandligi 1,2 metr, eni esa 1,3 metr bo‘lib, ichki qismi kengayib borib balandligi 3 metr, kengligi esa 3,5 metrga yetadi. G‘or tubi tomon uzunligi 9 metrni tashkil etadi va uning pastki qismi tuproqli qatlamdan iborat. Makon kashf etilgan yili dastlabki qidiruv shurfi qazilib, ibtidoiy madaniyat izlari topilgan. Keyingi tadqiqot ishlari esa 2001–yili davom ettirilib, bu safar g‘or ichki qismida qidiruv shurfi qazib ko‘rilgan. Uning yuqori gorizontlaridan tarixiy taraqqiyot so‘ngi davrlariga oid sopol buyum parchalari, hayvon suyagi qoldiqlari, pastki gorizontallardan esa tosh buyumlar hamda neolit sopoli parchalari topilgan. G‘or makoni o‘z joylashish holati hamda boshqa jihatlari bilan ibtidoiy odamzod yashashi uchun barcha qulayliklarga ega. Hattoki, g‘or joylashgan daraning pastki qismida, ya‘ni soy sathi yaqinida qator buloqlar hozir ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Tosh buyumlar tipologik tahlili makon moddiy madaniyati neolit jamoalariga qarashli ekanligini ko‘rsatmoqda.²²

Onnakamar makoni. Sazog‘onsoyga g‘arb tomondan Kichik Quruqsoy ham qo‘shni soy hisoblanadi. Kichik Quruqsoy yon daralari bo‘yicha arxeologik qidiruv ishlari o‘tkazilgan paytda ibtidoiy odamzod yashaganligi ehtimoli bo‘lgan bir nechta g‘or tipidagi yodgorliklar borligi aniqlangan.²³ Shu yodgorliklardan biri Onnakamar deb nomlanib, u soyning o‘ng qirg‘og‘ida, soy sathidan taxminan 20 metrlik chamasi yuqorida og‘iz qismi g‘arbga qaragan holatida turibdi. Etnograf olim Ochil Ibragimov o‘tgan asr 80-yillari arxeologik qidiruv ishari paytida Onnakamarda qidiruv shurfi qazib, ibtidoiy madaniyat izini topishga muvaffaq bo‘lgan (tosh buyumlar, sopol buyum parchalari).²⁴ Shu nuqtai nazardan, ya‘ni tadqiqotni davom ettirish maqsadida 2002-yili arxeologik ekspeditsiyamiz xodimlari tomonidan makonda yana qidiruv shurfi qazib ko‘rildi, lekin bu tekshiruvlar hozircha kutilgan natijalar bermadi.

Kichik Quruqsoy I (Kattakaptarxona) makoni ham Kichik Quruqsoy yon darasidan 2002-yilgi dala arxeologik qidiruv ishlari

²² Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Самарқанд Давлат Университети дала қидирув тадқиқотлари саҳифасидан. Ўзбекистон археологик тадқиқотлари, 2001,-Тошкент, 2002.

²³ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Қоратепа тоғ массиви дала археологик қидируви тадқиқотларидан. Ўзбекистон археологик тадқиқотлари, 2002,- Тошкент, 2003.

²⁴ Археологик қидирув тўғрисида илмий ҳисобот кафедрада мавжуд, лекин археологик топилмалар коллекцияси сақланмаган.

jarayonida kashf etilgan. U soy oʻzanidan taxminan 120 metrlar chamasi yuqorida joylashgan boʻlib, oʻlchamlari quyidagicha: gʻor ogʻzi qismidan balandligi 2,5 metr, eni 3 metr va gʻorning ichki qismi tubiga qarab uzunligi 11 metrdan iborat. Gʻorning ogʻiz qismi maydon sathida arxeologik qidiruv shurfi qazib koʻrdik. 0,8 metrgacha boʻlgan gorizontlardan taraqqiyot soʻngi bosqichlariga oid boʻlgan topilmalar uchratildi, biroq keyingi gorizontlarda xarsang toshlar chiqib qolganligi uchun qazishma ishlarini toʻxtatishga majbur boʻldik. Topilmalar asosan oʻrta asrlarga oid boʻlgan sopol buyum parchalari hisoblanadi. Kelgusida gʻor ogʻiz qismi maydon sathida qazishma ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan (10-pacm).

Qorakamar II gʻor makoni. Katta Quruqsoydagi Qorakamar I gʻor makonidan soy boʻylab 200 metrlar chamasi yuqorida joylashgan. Gʻorning ogʻiz qismi janubiy-sharqiy tomon, yaʼni quyosh nuri ertalabdanoq tushadigan tomon qaragan. Taʼkidlash joizki, gʻorning qadimgi holati hozirgiga nisbatan oʻlchami jihatdan katta boʻlgan, lekin tabiat kuchlari taʼsirida yemirilib, hozir oʻngir holatiga kelib qolgan. Uning oʻlchamlari quyidagicha: ogʻiz qismi balandligi 3,5-4 metr va ichki tomon uzunligi 2,5-3 metr. Gʻorning ogʻiz qismi maydon sathidan soy tomon 10X1 metr oʻlchamida qidiruv shurfini 2004-yili qazib koʻrdik. Shurf soy tomon qiya holatida tuproq qatlami boʻyicha pasayib borib, oxirgi A-8,9,10 kvadratlarda gorizontlar qalinligi 1,8 metrgacha borib yetdi. Qidiruv shurfidan garchi oʻrta asr sopol buyum parchalari topilgan boʻlsada, lekin ibtidoiy davrga mansub arxeologik topilmalar uchratilmadi. Kelgusida bu shurfni yon kvadratlar boʻyicha kengaytirib qazib koʻrish ishlari rejalashtirilgan.

Kamar Quduqsoy gʻor makonlari. Qoratepa togʻ massivi shimoliy yon bagʻrida Katta Quduqsoydan gʻarb tomon yana bir qator yirik soylar joylashgan. Bular Choʻchqalisoy, Kamarquduqsoy, Oqsoy kabilar hisoblanadi. Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 2002-yili ana shu soylar yon daralari boʻylab dala arxeologik tekshiruv ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Kamarquduqsoy etagi oʻng yon bagʻrida 2 ta gʻor arxeologik xaritaga olinib, ular Kamarquduqsoy 1,2 deb nomlanib, dastlabki arxeologik qidiruv shurflari qazib koʻrilgan. Qoʻlga kiritilgan ashyoviy dalillarining asosiy qismi taraqqiyot soʻngi bosqichlariga oid hisoblanadi.²⁵

²⁵ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Қоратепа тоғ массиви дала археологик қидируви тадқиқотларидан. Ўзбекистон археологик тадқиқотлари, 2002,- Тошкент, 2003.

Ochil g'or makoni O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridan voha tomon o'z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo'lgan sazog'onsoy yon darasida bo'lib, sazog'onsoy yon qayirida o'rganilgan va sazog'on madaniyati nomi bilan fanga kirgan madaniyatning tayanch yodgorligi hisoblanuvchi Sazog'on 2 makonining naqd soy darasi bo'ylab tepa qismida joylashgan (taxminan 450-500 metrlar chamasi yuqorida) (9-rasm).

Ochil g'or makoni o'z jihatlar bilan ibtidoiy odamzod yashashi uchun barcha qulayliklarga ega. Uning og'iz qismi janubiy-sharq tomon qaragan bo'lib, quyosh nurlari ertalabdanoq bemalol g'or tubigacha tushadi. G'orning pastki maydon sathi tuproqli va unga kirish qismi oldida tuproqli qatlamdan iborat supa maydon sathi ham mavjud. G'orning o'lchamlari quyidagicha: g'orga kirish qismi og'zining balandligi 3,60 metr, eni 8,0 metr, g'orning ichkarisi tubi tomon uzunligi 10,5 metrni tashkil etadi. G'or yaqinida ichimlik suvi manbai mavjud.

Ochil g'or makonida arxeologik tadqiqot ishlari N.U.Xolmatov tomonidan bajarilgan. Tadqiqot 2005-yili ham davom ettirildi. Hammasi bo'lib 2005-yilgi tadqiqotlari jarayonida makon madaniy qatlamidan mingga yaqin ashyoviy dalillar qo'lga kiritilindi. Uning asosiy qismini tosh buyumlar kolleksiyasi tashkil etadi. Tosh qurollari tipologik tahlili asosiy qurollar o'z shakli, ishlov berilishi uslubi, yasaliş xom ashyosi, turmushda bajargan funksiyasi jihatidan hamda tosh industriyasining toshdan yasalgan buyumlarning paraqadan yasalgan buyumlarga nisbati jihatidan ham sazog'on jamoalari moddiy madaniyatiga xos xususiyatlarni namoyon etganligini ko'rsatdi. Lekin, ta'kidlash joizki, makonning I–7,8: K–7,8,9,10 kvadratlarining 1,8-2,0 metr gorizontidan topilgan tosh qurollari o'z shakli, ishlov berilishi uslubi bilan mezolit va hatto paleolit jamoalari moddiy madaniyatini namoyon etmoqda. Mazkur qurollar jumlasiga arxaik ko'rinishdagi paraqalar, disksimon yirik qirg'ichlar, tosh o'zaklari, katta hajmli ushatgich qurollar, uchburchaksimon paykonlar, qayroqtosh qurollari bo'laklari, hamda turkum kvarsitdan yasalgan qurollar (tosh o'zaklari, qirg'ichlar va h.k.) kiradi va ular o'z jihatlar bilan sazog'on neolit jamoalari tosh qurollaridan keskin farq qiladi. Bu turdagi qurollar o'z shakli, ishlov berilishi uslublari va turmushda bajargan funksiyasi, o'zlariga xos xususiyatlari bilan O'rta Zarafshon vohasi paleolit jamoalari moddiy madaniyatiga xos qurollar hisoblanadi. Xususan,

Olmabuloq, Qo'tirbuloq, Zirabuloq hamda Samarqand yuqori paleolit makonlari qurollariga o'xshash. Bu esa Ochil g'or makoni pastki madaniy qatlamlari mezolit va hatto paleolit jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli ekanligidek xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ochilg'or makoning ustki neolit madaniy qatlamidan butun holatdagi 2 ta **suyak qurollari** topildi. Ular hayvon ilik suyagidan yasalgan bo'lib, uch tomoni uchqurlanib ish maydoni hosil qilingan. O'z ishlov berilishi va shakli bo'yicha qo'shni kaltaminor, joytun jamoalari suyak qurollariga o'xshash (11-rasm).

Sopol idishlar masalasida Ochilg'or makoni madaniy gorizontlaridan (yuqori qatlamlari) qo'lga kiritilgan sopol idish parchalarining ko'pchiligi qalin devorli tarixiy taraqqiyotning so'nggi davrlariga to'g'ri keluvchi sopollar hisoblanadi. Yodgorlikning 0.7–0,8 metr goizontidan keyingi gorizontlardan neolit davriga oid sopol parchalari topilgan. Ular O'rta Zarafshon vohasining qolgan sazog'on yodgorliklaridan topilgan neolit sopol idishlari o'z yasalishi shakli va naqshlari bilan Quyi Zarafshon vohasi, Amudaryo etagi Oqchadaryo vohasi hamda Qizilqum kaltaminor jamoalari sopol buyumlariga o'xshash. Bu o'z navbatida neolit jamoalarining o'zaro madaniy aloqada bo'lishganliklarini bildiradi (15-rasm).

Mazkur gorizontdan turkum hayvon suyagi qoldiqlarini ham topishga erishilgan. Markaziy Osiyo miqyosida ko'pgina mezolit, neolit yodgorliklarida madaniy qatlam aralashib ketganligi yoki qisman saqlanganligi tufayli qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar ular moddiy madaniyatiga ob'ektiv baho berishni qiyinlashtiradi. Shu bois, buzilmagan madaniy qatlamdan topilgan arxeologik ashyolar ishonchli manba bo'lib, jumladan Ochilg'or suyak qoldiqlari o'sha davr paleoekologik holatini tiklash, jamoalar xo'jalik mashg'ulotlarini bilishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Ochilg'or manzilgohidan topilgan hayvon suyaklari qoldiqlari ilmiy tadqiqoti qiziqarli natijalar berdi. Yodgorlikning turli qatlamlaridan 1095 ta hayvon suyak qoldiqlari topilib, ular 10 ta turga tegishli 74 bosh hayvon suyagi qoldiqlari hisoblanadi.

Ma'lumki, arxeologik topilmalarning yodgorlik madaniy gorizontlari bo'yicha topilishining tahlili ba'zi xulosalarga kelish imkonini beradi. Aniqrog'i, makonning qaysi gorizontlaridan e'tiboran tosh davri jamoalariga tegishli manbalar chiqishi, tosh qurollarining gorizontlar bo'yicha tosh asri tarixiy taraqqiyot bosqichlari nuqtai

nazaridan dinamikasini kuzatish, o'choqlarning gorizontlar bo'yicha joylanishini aniqlash, neolit sopol buyumlarining qaysi gorizontlardan e'tiboran chiqaboshlagani va qaysi gorizontdan e'tiboran neolit sopol-larining uchramasligi, arxaik elementlarni mujassamlashtirgan tosh qurollari qaysi gorizontlardan e'tiboran chiqib boshlashi kabi masala-larning yechimi Ochilg'or makoni madaniy qatlamlarida kuzatildi. Qolaversa, shu asosda yodgorlik kishilik tarixi qaysi tarixiy davrga oid madaniy qatlamni o'zida mujassamlashtirganligi ham ma'lum bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, tosh qurollarining madaniy gorizontlar bo'yicha tarqalishi hamda ularning tipologik tahlili Ochilg'or makoni tosh qurollarini 2 ta kompleksga ajratish imkonini berdi. 1-kompleksga – qalamsimon, prizmasimon, mikrotosh o'zaklari, yelka va astar qismining bir yoki ikki yon qirrasi bo'yicha ishlov berilgan paraqa qurollari, mikroparaqa qurollari, yon qirralarida ishlov berilgan chuqurchalarga ega bo'lgan paraqa qurollari, geometrik shakldagi qurollar, ikki yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan o'q-yoy uchlari; toshdan yasalgan qirg'ichlar, teshgich, keskich qurollari; plitkasimon qirg'ichlar, qayroqtosh qurollari, silliqlangan ish maydoniga ega bo'lgan bolta qurollarini kiritishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, 1-kompleks qurollari topilgan gorizontlar bilan neolit sopol buyumlari parchalarining topilishi o'zaro bir-biriga uzviy bog'liq (0,7-1,4 metr gorizontlar). 2-kompleks tosh qurollari – paraqa va mikroparaqa qurollari, yon qirrasi to'ldirilgan o'tmaslangan holatda ishlov berilgan paraqalar, ustki kesim qismi bo'yicha qiyshiq va to'g'ri holatda ishlov berilgan paraqa qurollari, paraqa qirg'ichlar (ustki kesim qismida yoysimon ish maydoni bor). Qovurg'asimon paraqalar, arxaik ko'rinishga ega bo'lgan enli paraqalar, teshgich qurollar, ponasimon qurollar, randasimon qurollar, mikrochopper, yirik hajmli ushatgich qurollari, disksimon qirg'ichlar, tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar, yon tomoniga ishlov berilgan tosh qurollari, yirik o'lchamli ushatgich qurollar, disksimon, konussimon, prizmasimon tosh o'zaklaridan iborat. Bu qurollar topilgan gorizontlardan sopol buyum parchalari topilmagan (1,4-2,0 metr gorizontlar). Mazkur komplekslar tosh qurollari industriyasida bir tomondan Markaziy Osiyo tog' mintaqasi, ikkinchi tomondan pasttekislik mintaqasi me-zolit-neolit jamoalari moddiy madaniyatiga xos elementlar mujassam-lashgan. Fikrimizcha, 2-kompleks tosh qurollari o'z industriyasi bo'yicha nisbatan qadimiyroq bo'lib, ular Markaziy Osiyo tog' min-

taqasi mezolit va hatto so'nggi paleolit jamoalariga tegishli yodgorliklar tosh qurollariga o'xshash.

Sazog'onsoy Qoratepa tog' tizmasi shimoliy yon bag'ridagi yirik soylardan biri bo'lib, uning vohasida bu sarhadda o'rganilgan va o'rganilayotgan tosh asri yodgorliklarining asosiy qismi joylashgan. Jumladan, Sazog'on 3 neolit makoni Sazog'on 2 makonidan Sazog'onsoy bo'ylab chamasi 600-650 metr yuqorida soyning chap yon terrasasida tadqiq etilgan (16-rasm). Terrasasining maydoni sathi taxminan 80x130 metr o'lchamda bo'lib, u soy sathidan 20-25 m yuqorida turibdi. Tadqiqot ishlari N.Xolmatov tomonidan 2017-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Sazog'on 3 yodgorligida 2017, 2019, 2022, 2023, 2024-yillarda qazilma ishlari amalga oshirilgan. Xususan, 2017-yili 2 ta qazilma bo'yicha 20 metr kvadrat, 2019-yili 3x7, ya'ni 21 metr kvadrat, 2022-yili esa 4x8–32 metr kvadrat maydon sathida qazishma ishlari amalga oshirilgan. Shuningdek, yodgorlikning terrasada joylanishi chegaralarini aniqlashtirish uchun o'rganilgan qazilmalarning g'arbiy va janubiy tomonlaridan 2023 va 2024-yillarda har birida yana 4x8–32 metr kvadrat maydon sathida madaniy qatlam o'rganilishiga erishilgan. Qazilma jarayonida qiziqarli tosh buyumlar, sopol idishlari qoldig'idan iborat to'plamlar qo'lga kiritilgan.

Biz yuqorida tosh asri taraqqiyoti ketma-ketlik bosqichlari bo'yicha makonlar bayoni va ular tadqiqoti natijalari masalasiga qisqacha to'xtaldik.

Ta'kidlash joizki, bu makonlar tadqiqoti hozirgi kunda ham davom etmoqda va bu tadqiqotlar bilan bir qatorda mazkur mintaqada keng masshtabda arxeologik ekspeditsiyamiz xodimlari tomonidan dala arxeologik qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda. Bu qidiruv ishlari natijasida sazog'on madaniyatiga oid 30 dan ortiq makonlar hamda yuqorida nomlari zikr etilgan yirik soylar yon qayirlaridan 30 ga yaqin g'or ungiralar yodgorlik sifatida arxeologik xaritaga olingan (2-rasm). Bu juda muhim bo'lib, mintaqani arxeologik jihatdan o'rganilishini yanada istiqbolli ekanligini bildiradi.

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasi Nurobod tumani sarhadlari tosh davridanoq odamzod tomonidan o'zlashtirilganligini ko'rsatdi. Xususan, paleolit, mezolit va neolit jamoalari moddiy madaniyati borasida qimmatli arxeologik manbalar

qo‘lga kiritildi. Makonlar tadqiqotida nafaqat jamoalar moddiy-madaniyati, balki mazkur mintaqa paleoekologik sharoiti, makonlar joylanishi geologik holatlari borasida ham qimmatli ma‘lumotlar to‘plashga erishildi.²⁶ Bu ma‘lumotlar ko‘rsatishicha pleystotsen so‘nggi bosqichlari, golotsen davrida iqlimiy sharoit mazkur mintaqada ibtidoiy odamzod yashashi uchun qulay bo‘lgan. Tog‘ va tog‘ yon bag‘irlari o‘z jihatlari (yon bag‘irlarida boy o‘simlik va hayvonat dunyosi, yirik soylar, sersuv chashma, buloqlar, g‘or va ungurlar mavjudligi) bilan odamzod yashashiga imkoniyat bergan. Haqiqatdan ham Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘rida ibtidoiy jamoalar paleolit davridan boshlab yirik soylar yon qayirlari va ular yon daralaridagi g‘or va ungurlarda yashashib, o‘zlariga xos moddiy madaniyat sohiblari bo‘lishganlar.

Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri ibtidoiy jamoalari moddiy madaniyati o‘ziga xos xususiyatlari masalasiga kelganimizda Olmabuloq makoni tosh qurollari kolleksiyasi o‘zida levallua–muste texnologik uslubini namoyon etganligi uchun voha o‘rta paleolit davri makonlari jumlasiga kiradi. Bu esa o‘rta paleolit jamoalari nafaqat Zarafshon vohasining pasttekislik mintaqalari, balki tog‘ yon bag‘rilarini ham o‘z ichiga olgan keng qamrovdagi ekologik burchaklarga tarqalishib yashashgan va o‘zaro madaniy qo‘ni-qo‘shnichilik aloqadorliklarida bo‘lishganlar degan ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Sazog‘on I makoni jamoalari esa o‘z moddiy-madaniyatida O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi mezolit-neolit jamoalari (Tutqovul, Soy-Sayyod) xususiyatlarini mujassamlashtirgan, hamda tosh industriyasida Samarqand yuqori paleolit jamoalariga xos texnologik uslublari an‘analarini saqlab qolganligi holatini ham namoyon etgan.

Sazog‘on neolit jamoalari moddiy madaniyati o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi neolit jamoalari madaniyatlari sirasiga kiradi. Bu jamoalar yashagan mintaq (Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri) geografik jihatdan O‘rta Osiyo tog‘ va pasttekislik mintaqalari o‘rtasidagi oraliq hududi hisoblanadi. Sazog‘on jamoalari garchi o‘z moddiy madaniyatida bir tomonidan O‘rta Osiyo tog‘ mintaqasi hisor jamoalari madaniyati ba‘zi xususiyatlarini (ponasimon qurollar, tik ish maydoniga ega bo‘lgan otshepdan yasalgan qirg‘ichlar; yon tomoni old qismiga ishlov berilgan tosh o‘zaklari,

²⁶Джуракулов М.Ж., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зарафшана. Тошкент., 1986.

tutqovul tipidagi teshgich qurollar, qayroqtosh qurollari kabi), ikkinchi tomonidan esa O'rta Osiyo pasttekislik mintaqasi kaltaminor jamoalari ba'zi xususiyatlarini (tosh industriyasini paraqali qismi, sopol buyumlari, xom ashyo materiallari kabi) namoyon etgan bo'lsada o'ziga xos xususiyatlarga (tosh industriyasi uchirindili-parakali, mikroparaqa elementli) ega bo'lgan mustaqil madaniyat hisoblanadi.²⁷ Demakki, Nurobod tumani tog' yon bag'ri sarhadlarida O'rta Osiyo neolit davri jamoalari madaniyati tizimida 5-mustaqil madaniyat sifatida Sazog'on madaniyati nomi bilan fanga kirgan.

Ta'kidlash joizki, sazog'on jamoalari tosh qurollari yasalishi va ishlov berilishi uslublarida mezolit va hattoki so'ngi paleolit qurollari xos an'analar saqlanib qolganligi holati kuzatiladi.

Sazog'on yodgorliklari pastki madaniy gorizontlaridan madaniyatning o'ziga xosligini bildiruvchi ba'zi konstruktiv tuzilmalar, tarkibiy elementlari haqida ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Buni yupqa toshlardan qalangan uy-joy qoliqlari, o'choqlar qoldiqlari, odam qoldig'i topilgan qabr o'rni (suyri shaklda 180x100 sm), qabr usti tosh buyumlari, aylana shakldagi tosh qurilmalari kabi elementlar tashkil etadi. Faktlarga murojaat etadigan bo'lsak, Sazog'on 2 makoni pastki madaniy qatlamidan diametri 3 metrgacha bo'lgan aylana shaklda tosh qurilmasi (0,8-1,05 metr gorizontda) tadqiq etilgan. Uning o'rta qismida bosh chanog'i bo'yni bilan notabiiy ravishda orqaga qayrilgan holatda yotgan echki jasadi topilgan va bu manzara ma'lum diniy marosim, urf-odat, rasm-rusumlar bilan bog'liq degan xulosada tahlil qilingan²⁸. Shuningdek, Sazog'on 2 makonining mazkur madaniy qatlamidan 3,85 x 3,65 metro'lchamli suyri yoki aylana shaklda toshdan qalangan uy-joy qoldig'i, Jangal 1 makonidan ham xuddi shu shaklda ko'ndalangiga 4,0-4,5 metr o'lchamga ega bo'lgan, toshdan qalangan devorining balandligi 40-45 smgacha saqlanib qolgan uy-joy qoldig'i topilgan (12-rasm). Tepaqul 3 makoni madaniy qatlami tadqiqotida ham shu mazmundagi konstruksiya qoldiqlari kuzatilgan²⁹. Ma'lumotlarga ko'ra sazog'on neolit jamoalarining turar-joylari ayla-

²⁷ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Кўрсатилган адабиёт., 1991. Холматов Н.У. Сазогон маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида тутган ўрни / СамДУ нашриёти, Самарқанд:

²⁸ Джуракулов М.Д. Исследование стоянки Сазаган 2 // Археологические открытия 1982. М., 1984. С.470-471; Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Ташкент, 1991. С.108.

²⁹ Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Новые исследования по Сазаганскому поселению // ИМКУ, №19. Ташкент, 1984. С.499; Джуракулов М.Д., Холматов Н. У. Кўрсатилган адабиёт. 1991. С. 102-103.

na yoki suyri shaklda devorlari toshdan qalangan va usti shox-shab-balar bilan yopilgan, hayvon terilari bilan qoplangan uylar alohida alohida qurilgan uylardan iborat bo'lgan. Og'iz qismi sharqqa quyosh tomon qaragan bo'lgan.

O'choqlar qoldig'i masalasiga kelganimizda ular Sazog'on 1,2, Jangal1, Tepaqul 3,4, Qorakamar makonlari madaniy qatlamlarida tadqiq etilgan. Ayniqsa, Jangal 1 makonida o'choq va uning atrofida o'choq uchun toshdan qalangan devori qoldig'ining (balandligi 35-40 sm. gacha) topilishi muhim hisoblanadi³⁰. Bu o'choq o'z tuzilishi bo'yicha Tojikiston hududidagi Tutqovul, Say-Sayyodkabi yodgorliklarda tadqiq etilgan o'choqlarga o'xshash.³¹ Sazog'on 2 makoni madaniy qatlamida tadqiq etilgan antropologik topilma – odam qoldig'i ham ilmiy jihatdan ahamiyatlidir.³² Shu kabi madaniy qatlamning tarkibiy elementlari sazog'on neolit jamoalari moddiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Ochilg'or makoni yuqori neolit davriga oid madaniy qatlamidan 2 ta yonma–yon joylashgan tosh qurilmalari topildi (14-rasm). Tosh-qurilmalar sinchkovlik bilan o'rganildi, lekin ularda o'choq izlari kuzatilmadi, faqatgina hayvon suyagi qoldiqlari, chig'anoqlar topildi, xolos. Ularning diametri 1 metr o'lchamli bo'lib, 2,3 qator qilib qalangan tosh plitalardan iborat bo'lib chiqdi. Ular tagidan yupqa oson ushatiladigan toshli qatlam chiqdi va u g'orning asl xarsangi bilan ulashdi. Tosh qurilmalar tadqiqoti jarayonida eng muhim topilma aniqlandi. Bu ikkala tosh xalqa oralig'i sathidan barcha tana a'zosi suyaklari saqlangan uloqchanning butun holatdagi gavdasi topilishi bilan izohlanadi. Paleontolog olim Aminjon Botirov bilan birgalikda uloq tana suyaklari tadqiq etildi. Tadqiqotda uloqchanning tanasi maxsus o'yilgan joyga qo'yilganligi aniqlandi. Sababi, chuqurchaning yon tuproq qatlami qattiq bo'lib, bu yerdan yaxshi ishlov berilgan paraqa quroli topildi. Uloqchaga mo'ljallangan joyning o'lchami quyidagicha: eni-36 sm, o'raning boshlanishi janub tarafga qarab kengayib boradi, bo'yi-50 sm, chuqurligi 26 sm. Aminjon Botirovning fikricha, bu suyaklar 4,5 oylik yosh uloqchaga tegishli bo'lgan. Tana a'zosining barcha qismi bor va terisi bilan birga qo'milgan. Uloq-

³⁰ Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Джангал I –новый памятник долины Зарафшана // ИМКУ. Вып. 25. Тошкент, 1991.

³¹ Ранов В.А., Коробкова Г.Ф.Кўрсатилган адабиёт. 1971. С.138; Виноградова Н.М., Ранов В.А., Филимонова Т.Г.Кўрсатилган адабиёт. 2008. С.25-26.

³² Джуракулов М.Д., Холматов Н. У.Кўрсатилган адабиёт. 1991. С.107-109.

chaning shoxi janubiy-g'arb tomonga yo'naltirilib, kalla suyagining tagiga ikki oldingi oyog'i buklab, bo'yni qayrilib, orqadagi oyoqlari ham kalla tomon yaqinlashtirilib g'ujanak holatda qo'yilgan. Terisi yaxlit holatda saqlanmagan. Uloqcha gavdasi qo'yilgan joyning pastki pol qismi xuddi zichlangandek qattiq. Uloqcha yotgan o'raning pastki (janubiy) qismi yuqorida aytganimizdek kengaygan. Shu joyda 2,2-4,8 santimetr qalinlikda qizil, qoramtir qizil rangli gulxanda kuygan yer qatlami kuzatildi (13-rasm). Bu fakt muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, ma'lum bir diniy e'tiqodga bog'liq urf-odat, rasm-rusmlar o'tkazilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, uloqcha topilmasi, uning ikki tosh xalqa o'rtasida uchratilishi holati tosh xalqalar bilan birgalikda butun bir diniy e'tiqod kompleks mazmunini beradi. Bu o'z vaqtida Sazog'on 2 makoni madaniy qatlamidan topilgan echki tana suyaklari va uning ma'lum diniy e'tiqodga bog'liqligi borasidagi ma'lumotlarni yanada boyitganini alohida ta'kidlash lozim. Bunday ma'lumotlarning Markaziy Osiyo hududi neolit jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotidagi anologiyalari masalasiga to'xtalamiz. Bunda, dastavval, Tojikiston hududi tosh, eneolit, jez davri yodgorliklari tadqiqotlarida ma'lumotlar mavjudligini ko'ramiz. Xususan, V.A.Ranov, G.F. Korobkova, A.Yusupov, T.G.Filimonovalar Tutqovul, Say-Sayyod kabi Hisor madaniyati yodgorliklari tadqiqoti jarayonida tosh qurilmalari borasida ma'lumotlarni qo'lga kiritishgan³³. Bu ma'lumotlar tosh qurilmalarning ikki tipi uchratilganligi haqida faktlardan iborat: 1-tip tosh qurilmalari bir-biriga yopishtirilib, tig'iz 2, hatto 3 qator qilib yupqa qayroqlar hamda ohaktoshli tosh plitalardan qalangan qurilmalar bo'lib, ular Tutqovul (40 m.kv.), Say-Sayyod (25 m.kv.) kabi yodgorliklar madaniy qatlamlari tadqiqotlarida aniqlangan va turar – joylarning poli sifatida ilmiy tahlil etilgan³⁴. Bunday yashash joylarning uy pollari V.A.Ranovning xabar berishicha, Yaqin Sharqdagi Karim – Shaxir yodgorligida ham tadqiq etilgan; 2-tip tosh qurilmalari – aylana – suyri shaklda 2,3 qator qilib qalangan diametri 1x1,5m, 0,7x1m o'lchamli tosh qurilmalari hisoblanadi. Bular bevosita o'choqlar bilan bog'liq. O'choqlar 15-30 sm qalinlikda, diametri 1

³³ Ранов В.А., Коробкова Г.Ф. Туткаул – многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане // СА. № 2. 1971; Юсупов А. Неолитическое поселение Сай – Сайёд на юго – западе Тожикистана // СА, № 2. 1975; Виноградова Н.М., Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Памятники Кангурттута в Юго – Западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века). М., 2008. С. 24 – 27.

³⁴ Ранов В.А., Коробкова Г.Ф. Туткаул – многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане // СА № 2. 1971. С. 137 – 138.

metrgacha boradi va ular bir-biriga nisbatan 1,5-2 metr chamasi masofaga joylashgan. Jumladan, Say-Sayyodda ikki tipdagi o‘choq qoldiqlari topilgan: 1-si miniatyurniy shaklda 45x45 sm yoki 50x50 sm o‘lchamda; 2-si yarimsferik yoki to‘g‘ri burchakli shaklda 1x1,2–1,3 m o‘lchamda bo‘lib, o‘choqlar qalinligi 30-45 sm ni tashkil etgan. Shu o‘choqlar yonida daryo qayroqlaridan qalangan devori aylana shaklda tosh qurilma ko‘rinishini olgan. Tojikiston hududida tadqiq etilgan neolit davriga oid qator yodgorliklardan topilgan tosh qurilmalar haqida T.G. Filimonova tomonidan bildirilgan fikrlar ahamiyatlidir. Tadqiqotchi Kangurtut yodgorligi neolit davri madaniy qatlamidan topilgan tosh qurilma va uning ustida maxsus hayvon suyaklaridan tuzilgan taqlid qilish ma’nosini beruvchi moslama borligi haqida, Charmgaron makoni tosh qurilmasi qalin kul qatlami bilan qoplanganligi haqida, Lyulikutal makonidan ikki qator qayroqtoshlardan qalangan 60x40 sm. o‘lchamli, to‘g‘ri burchakli shakldagi tosh qurilma o‘ziga xos “ilohiy o‘choq” ekanligi va uning tagida 20 santimetr qalinlikda gulxan qoldig‘i borligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Mazkur “ilohiy o‘choqatrofidan ko‘plab kuygan hayvon suyagi qoldiqlari, toshdan yasalgan munchoqlar, bir-biriga bog‘langan nozik munchoqlar tizimi, mikroparaqalar, silliqlangantosh tesha kabi predmetlarning topilganligidan qurbonlik qilish bilan bog‘liq rasm-rusumlar, diniy marosimlar o‘tkazilgan joy sifatida talqin etilgan³⁵. Qizig‘i shundaki, V.A.Ranov yana bir tosh qurilma tipi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Bular bironta o‘choq kulisiz yoki olov yonganligi elementlariga ega bo‘lmagan tosh qurilmalari hisoblanadi. Tadqiqotchi ularni bir marotaba ishlatilgan va ulardan qolgan kul qoldiqlari kam miqdorda bo‘lib, keyinchalik yuvilib ketgan deb izohlaydi³⁶. Boshqa bir tadqiqotchi T.G.Filimonova mazkur turdagi tosh qurilmalar to‘g‘risida ular ma’lum diniy e’tiqod bilan bog‘liq topinish, sig‘inishni amalga oshirish maqsadida qurilgan degan g‘oyani ilgari suradi va bu fikr foydasiga ma’lumot beruvchi Kangurtut yodgorligining bronza davriga oid madaniy qatlamida tadqiq etilgan tosh qurilma yonidan yosh bola bosh chanog‘i, itning jasad i topilishi faktlarini misol qilib keltiradi³⁷. Ochilg‘or makoni aylana shakldagi tosh qurilmalari funk-

³⁵ Виноградова Н.М., Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Памятники Кангурттута в Юго – Западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века). М., 2008. С.26.

³⁶ Виноградова Н.М., Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Памятники Кангурттута в Юго – Западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века). М., 2008. С.25.

³⁷ Виноградова Н.М. Юго – Западный Тожикистан в эпоху поздней бронзы. М., 2004. С. 27.

siyasi borasida boshqa bir ilmiy farazlar ham mavjud. Ibtidoiy odamzod o'z yashash qarorgohi bo'lgan g'or og'zilarini sovuq shamollar, qor bo'ronlar, yomg'ir shibotlaridan to'sish uchun ustunlar yordamida shox-shabbalar, hayvon terilaridan to'siq sifatida foydalanishganliklari ma'lum. Shu sababli tosh xalqalari turar joy ustuni fundamenti bo'lishi mumkin. Ular ustunni mahkam ushlab turish uchun xizmat qilgan.

Ochilg'or yodgorligining aylana shakldagi tosh qurilmalari konstruksiyasi Tojikiston hududi yodgorliklarida tadqiq etilgan mazkur turdagi tosh qurilmalardek, o'zlari bevosita o'choq kuli, gulxan izlari bilan bog'liq emas. Lekin, tosh qurilmalar tevaragida ma'lum masofada joylashgan o'choqlar va hayvon suyaklaridan iborat uyumlar mavjud. Shuningdek, tosh qurilmalari yonidan uloqchaning tana suyaklaridan iborat gavdasi va u yotgan joyning pastki (janubiy) qismida 2,2-4,8 santimetr qalinlikda gulxan izlari bo'lgan qizil, qoramtir qizil rangli qatlam topilishi bilan Tojikiston neolit yodgorliklarida tadqiq etilgan tosh qurilmalar mazmuniga o'xshashdir. Bu juda muhim. Sazog'on neolit davri kompleksida totemistik diniy tasavvurlarning kuzatilishi, Zarafshon vodiysi uchun muayyan yangilik bo'lsada, ammo bunday ma'naviy hayotning ildizlari O'zbekistonda dastlab Teshiktosh makoni bilan bog'liq manbalarda o'rganilganligi ilmiy adabiyotlarda keng va yetarlicha asosda qayd etilgan. Masala shundaki, ayniqsa hayvonlarga, xususan, tog' echkilariga sig'inishning genesologik ko'hna ildizlari o'rta paleolit davriga borib taqalishi va bunday totemistik dunyo qarashning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida uzluksiz davom etganligini neolit davrida, jumladan sazog'on neolit jamoalari turmushida kuzatish qiziqarli jarayondir. Bundan kelib chiqadigan juz'iy tahlil: odamzod jamoalari dastlab tog' echkisini xonakilashtirishga o'tganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, Tutqovul, Machay g'or makoni, Joytun madaniyati va boshqa mezo–neolit davrlariga oid madaniy komplekslarda tog' echkisi suyak qoldiqlarining boshqa jonzodlarga nisbatan aksariyatni tashkil qilishi uning asosiy ov ob'ekti va oziqa manbai bo'lganligi, tosh davrida ham oziqa ob'ektlari hayotning birlamchi talabi bo'lganligi uchun ham bu jonzotga bo'lgan e'tibor va oqibatda sig'inish (bu qadimgi qoyatosh rasmlari mazmunida ham o'z ifodasini topgan), unga odatda behuda zarar yetkazmaslik urf-odatlar shu zamirda diniy tasavvurlarning vujudga kelishi odamzod turmush tarzi bilan bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi.

Ochilg'or makoni madaniy gorizontida konstruktiv strukturaviy tuzilmalar, tarkibiy elementlarni ifodalovchi hayvon suyaklari uyumlari, o'choqlar kompleksi va ularning joylanishi holatlari, aylana shakldagi tosh qurilmalar va ular yonida tana a'zolari suyaklari to'la-ligicha saqlangan uloqcha topilishi va u bilan bog'liq jihatlardiniy e'tiqod, rasm-rusumlar, marosimlar mazmunini beruvchi yaxlit kompleksdir (14-rasm). Bunday mazmundagi kompleks nafaqat Zarafshon vohasi, balki Vatanimiz miqyosida neolit davri jamoalariga oid yodgorliklar misolida ilk bor ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Bu ma'lumotlar, shubhasiz, O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida Nurobod tumanida tadqiq etilayotgan sazog'on neolit madaniyatining mustaqil madaniyat sifatida O'zbekiston hududi neolit davri jamoalari madaniyati tizimida o'rnini belgilashda ahamiyatlidir.

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri tosh jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotlari yutuqlaridan yana biri ibtidoiy jamoalari o'zaro qo'ni-qo'shnichilik madaniy aloqadorliklari borasida qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilganligi bilan izohlanadi. Yuqorida makonlar bayonida qisman bu haqda fikrlar bildirilgan edi va bularga qo'shimcha ravishda biz sazog'on jamoalarining o'zlariga xronologik jihatdan tengdosh bo'lgan Kaltaminor (Quyi Amudaryo, Qizilqum), Hisor (Tojikiston) va Markaziy Farg'ona madaniyati jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqadorlikda bo'lishganliklari faktini alohida qayd etmoqchimiz.³⁸

Nurobod tumani tog' yon bag'rida yashagan neolit davri odamlari moddiy madaniyati Samarqand makoni jamoalari madaniyati bag'ridan kelib chiqqanligi tadqiqotlarda aniqlandi. Bu esa Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri tosh davri jamoalari madaniyati tub, mahalliy ildizda vorisiylik asosida rivojlanganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'rta Zarafshon vohasi tosh davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotida qo'lga kiritilgan arxeologik ashyoviy dalillar ular xo'jalik mashg'ulotlarini yoritish borasida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

³⁸ Холматов Н.У. Общее и особенное Центрально Ферганского и Сазаганского неолита. Палеоэкология и прблемы первобытной археологии Центральной Азии. ТДК, Самарканд, 1992; Сазогон неолитининг ўзига хос кирралари ва қўшничилик маданий алоқадорликлари. Археология, қадимги дунё тарихи ва этнография, илмий мақолалар тўплами, Самарканд, 2000; Тоғ ва пастекисликлар, маданий алоқадорликлари Ўзбекистон халқлари тарихидан материаллар, СамДУ нашр, Самарканд, 1993.

Sazog'on neolit jamoalari o'z kunlik turmushida asosan terib–termichlab ovqat topish, ovchilik yumushlari bilan mashg'ul bo'lishgan. M.Djurakulov, N.Xolmatovlarning yozishicha, Sazog'on odamlari soylarning soz tuproqli yon qayirlarida yashaganligi bois, bu joylarga quyosh ertalabdan tik tushgan va bu sharoit dastlabki dehqonchilik ishlarini amalga oshirish imkonini bergan. Bu haqda Sazog'on 2, Tepaqul 3,4, makonlari qazilmalarida qadama qurollar, donni ezish, maydalash bilan bog'liq bo'lgan yorg'uchoqlar va ularning bo'laklarining uchrashi dalolat beradi. Xuddi shunday Tojikiston, Turkmaniston, Eron va Yaqin Sharq hududi tog' yon bag'ri yirik soylar yon qayirida yashagan neolit davri jamoalari ham yerlari soz tuproqli joylar bo'lganidan dehqonchilik ishlari bilan shug'ullanishganligi tadqiqotlarda aniqlangan.

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri tosh jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotlari yuqorida zikr etilganidek mazkur mintaqa tosh davri paleolit davridanoq odamzod tomonidan o'zlashtirilganligi va ular o'zlariga xos madaniyat yaratishganligini yoritish, fanga olib kirish imkonini berdi. Bu jamoalar moddiy madaniyati Zarafshon vohasi ibtidoiy davri jamoalari madaniyatining o'rganilishida alohida o'rin tutadi. Fikrimizcha, jamoalarning yirik soylar yon qayirlari hamda ular yon daralaridagi g'or, ungurlarda yashaganliklari ham mazkur mintaqa ekologik tabiiy sharoiti qonuniyatlarining mahsuli bo'lib, tosh davri jamoalar madaniyat tarixi to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi.

Xulosa:

- Nurobod tumanida odamzod kishilik tarixi tosh davri o'rta paleolit (bundan 100-40 ming yil oldin) davridan e'tiboran yashab kelmoqda.

- Nurobod tumani tog' yon adirlarida mezolit, neolit davri (mil. avv. XI-IX-III-yillik boshlari) odamlari yirik soylar yon qayilari va shu daralardagi g'or va o'ngurlarda yashashganligi ma'lum bo'ldi.

- Nurobod tumani tog' yon bag'irlari tosh davrida odamlar uzluksiz yashagan va madaniyat yaratgan o'ziga xos «mikromadaniy voha» bo'lganligi aniqlandi.


- Sazog'on neolit jamoalari turmushida urug'chilik tuzumi bo'lgan, termachilik, ovchilik, qisman dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN




-quyi Zarafshon vohasi;
 -o'rta Zarafshon vohasi;
 -yuqori Zarafshon vohasi;


1-rasm.




2-rasm.




3-rasm. Sazag'on 1 mezolit makoni tosh qurollari




4-rasm. Qorakamar g'or makoni (Mezolit)




5-rasm. Sazag'on-2 makoni tosh qurollari



6-rasm. Jangal – 1 neolit makoni



7-rasm. Tepaqul 3 makoni



8-rasm. Tepaql-4 makoni




9-rasm. Ochilg'or makoni



10-rasm.




11-rasm. Ochilg'or – suyak qurollari




12-rasm. Turar joyi qolig'i



13-rasm. Ochilg'or – uloqcha osti gulxan qoldig'i



14-rasm. Ochilg'or: o'choq, suyak uyumlari va tosh qurilmalari



15-rasm: Sazag'on madaniyatining sopoli.
1-6 – Sazag'on-2, 7-9 – Jangal-1, 10-11 – Tepaqul-3.



16-rasm. Tepaqul 5 makoni. O'zbekiston va Novosibirsk arxeologlari, 2025-y.

JOM QADIMIY YO‘LLAR CHORRAHASIDA

*Raimqulov A.A. – Madaniy meros agentligi
Samarqand arxeologiya instituti bosh ilmiy
xodimi, tarix fanlari doktori*

*Raxmatova D. J. – Qarshi davlat universiteti
dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc).*

Qadimdanoq Samarqand, Nasaf va Kesh vohalarining o‘rtasida joylashgan qadimiy Jom qishlog‘ining nomi “Yom” so‘zidan olingan bo‘lib, qadimiy yo‘llardagi karvonlar to‘xtab o‘tadigan manzil, makon, rabot ma’nosiga ega. Jomning qadimiy o‘rni qishloq o‘rtasida joylashgan Kattatepa nomi bilan yuritiluvchi yirik arxeologik yodgorlikdir. Tarixchilar, arxeolog olimlar o‘rtasida Keshdan Samarqandga boradigan qadimiy yo‘llar ustida uzoq yillar davomida turlicha fikrlar aytib kelingan. Birinchi yo‘l Kesh – Taxtiqoracha – Samarqand yo‘li bo‘lsa, ikkinchi yo‘l Kesh – Jom – Samarqand yo‘lidir. Taxtiqoracha dovoni orqali o‘tgan yo‘l hozirgacha ham mavjud bo‘lib, bu yo‘lning yo‘nalishi barchaga ma’lum. Lekin Kesh (Kitob-Shahrisabz)dan Jom orqali Samarqandga boradigan yo‘lning yo‘nalishi, aynan qayerlar orqali o‘tganligi noma’lum bo‘lib kelgan. Biz ushbu maqolamizda aynan mana shu masalaga to‘xtalmoqchimiz.

Kesh–Samarqand yo‘li (Jom orqali). Biz tomonimizdan Shahrisabz, Kitob va Chiroqchi tumanlarini hududlarida olib borilgan arxeologik qidiruvlar davrida qo‘lga kiritilgan yangi ma’lumotlarga asoslangan holda birinchi marta Keshdan Jom dovoni orqali Samarqandga ketgan qadimiy yo‘lning yo‘nalishini quyidagicha bo‘lganligi aniqlandi: Kesh (Kitob-Shahrisabz)dan Jom dovoniga olib boruvchi bir nechta yo‘llar bo‘lgan. Dastlabki va eng yaqin yo‘l Kesh (Kitob) – Qalqama yo‘lidir. Bu yo‘l hozir ham mavjud. Qadimiy yo‘l avval Ko‘mirtepa va hozirgi Makrid qishlog‘i orqali to‘g‘ri avval Oyoqchisoy vodiysiga borilgan. Bu yo‘l ustida 9 km masofada qadimiy Kesh xarobalari bo‘lgan Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepa joylashgan. Bu shaharning shu yo‘l ustida joylashganligi ham qadimiy yo‘l aynan mana shu yerdan o‘tganligiga shubha qolirmaydi.

Qadimiy Kesh (Podayotoqtepa, Uzunqir, Sangirtepa) va Samarqand oralig‘idagi eng qadimgi yo‘l aynan mana shu yerdan, ya’ni

Sho'robsoy bo'yidan boshlangan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda shahar vayron bo'lib, yangi shahar Kitob shahri o'rnidagi Qalandartepa o'rnida paydo bo'lgandan keyin yo'l uzayib, uning Kitobdan Oyoqchisoy vodiysigacha bo'lgan masofasi 25-26 km.ni tashkil etgan. Yo'l Oyoqchisoyning tog'dan oqib kelib janubga burilishi joyigacha davom etib, keyin 4-4,5 km yurilib Qalqama vodiysiga o'tilgan. Qalqama vodiysida yo'l ustida Alqamartepa, Dunyotepa kabi yodgorliklar mavjud. Bu hududda Zarafshon tog'laridan oqib keluvchi Quruqsoy, Govxonasoy Qalqama daryosining chap sohilidan unga quyiladi. Bu vodiya dehqonchilik qilish uchun soylar atrofida keng joylar va juda qulay sharoit mavjud. Hozirda mana shu joyda Qalqama suv ombori bunyod etilgan.

Keyin esa yo'l Qalqama daryosi yoqalab 2,5 km shimolga, tog'tomonga davom etgan, keyin g'arbga burilib, daryoga o'ng tomondan quyuluvchi Yo'rg'abuloqsoy vodiysi orqali to'g'ri Jomga qarab ketgan. Mana shu burilishdan 3,3 km masofa g'arbda, tabiiy baland qirlik ustida ikki pog'onali Qoravultepa qad rostlagan. Bu yodgorlikdan g'arb tomondagi Yo'rg'abuloqsoy (Terssoy) vodiysi, sharq tomondagi Qalqama daryolari vodiylari kabi katta hudud kaftdek ko'rinib turadi. Shuning uchun Qoravultepa o'z vaqtida kuzatuv manzili sifatida bunyod etilganligi shubhasiz. Qoravultepadan 2,8 km g'arbda soyniing so'l qirg'og'iga yaqin joyda, tabiiy baland tepalik ustida uch pog'onali piramidasimon ko'rinishga ega bo'lgan yirik qal'a – G'arovli qo'rg'on (Kindiktepa) joylashgan. Qal'aning asosida balandligi taxminan 9-10 m, quyi qismi 130x124 m, ustki qismi 97x85 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli tepalik mavjud. Uning ustida, tepalikning markazida tomonlari 55x55 m, balandligi 2,5-3 m bo'lgan kvadrat shakldagi tepalik joylashgan. Bu tepalikning ustida va markazida diametri 20 m, balandligi 1,5-2 m bo'lgan aylana shaklidagi tepalik mavjud. Ustma-ust joylashgan bu tepaliklar birgalikda piramida ko'rinishiga ega bo'lib, umumiy balandligi 15-16 m. Tepalikning janubida, daryo tomonda yagona darvozasining o'rnini bor. Bu original tarxdagi qal'aning majudligi ham yo'lning aynan mana shu hududdan, aynan G'arovli qo'rg'onning darvozasi tagidan o'tganligini tasdiqlashi mumkin. Chunki hozir ham yo'l tepalikning yonlab o'tgan. G'arovli qo'rg'on (Kindiktepa)dan antik va ilk o'rta asrlarga oid kulolchilik buyumlari uchrab turadi. Bu topilmalar bu yo'lning antik davrda ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. G'arovli qo'rg'ondan 50-

60 m masofada shimolda ikki pog'onali yirik arxeologik yodgorlik bo'lib, bu yodgorlikda V-VII va X-XIII asrlarga oid arxeologik topilmalar ko'plab uchraydi.

G'arovli qo'rg'ondan 6 km masofada yuqorida Yo'rg'abuloq qishlog'i hududida esa Qo'shtepa 1 va Qo'shtepa 2 nomli bir-biri bilan tutashgan, umumiy maydoni 3,2 ga bo'lgan yirik yodgorlik bor va yodgorliklarda V-VII va X-XII asrlarga oid arxeologik topilmalar uchraydi. Qo'shtepadan o'tgan yo'l yana 11 km masofada, Jom qishlog'ining o'rtasida Samarqand – Nasaf yo'liga tutashgan va yo'l ustida yirik yodgorlik Kattatepa qad rostlagan. Qalqama daryosi vodiysidan Kattatepagacha bo'lgan masofa tog'li hududdagi qayrilma yo'llarni hisobga olganda o'rtacha 24-26 km ni tashkil etadi. Qalqama daryosi vodiysidan, Yo'rg'abuloqsoy bo'ylab Kattatepagacha ketgan yo'l hozirda ham mavjud bo'lib, unda qish mavsumida ham qatnov to'xtamaydi. Undan tashqari bu yo'l Zarafshon tog'larining janubiy etaklari bo'ylab yo'nalganligi bois, bu yo'lga doimo quyosh tushib turgan va qish mavsumida ham qor doimo erib turgan.

Mana shu yo'l orqali Kesh (Kitob)dan to Jomgacha bo'lgan masofa 55-56 km ni tashkil etadi va bu yo'l ikki kunda bosib o'tilgan.

Qoraxoniylar davridan boshlab Keshning markazi Shahrisabzga ko'chgandan keyin ham mana shu yo'l asosiy yo'l sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan va 2-3 km ga uzaygan xolos. Bu yo'l endi Shahrisabzdan to'g'ri Oyoqchisoy vodiysiga olib chiqqan.

Ikkinchi yo'l – Kesh (Kitob)dan 26 km, Kesh (Shahrisabz)dan 21 km masofada hozirgi Chiroqchi shihrining shimoli-sharqiy qismida joylashgan qadimiy shahar xarobasi Kishmishtepa orqali ketgan. Birinchi kuni yo'l Kishmishtepaga olib borgan.

Ikkinchi kuni yo'l – Kishmishtepa yonidagi kechuvdan (Lunina, 1984, s.35), keyin esa Chandaroqtepa orqali o'tib to'g'ri shimolga – Oyoqchisoy (Jarsoy) bo'yida joylashgan Jartepa (3,5 ga) orqali yana shimolga yo'nalgan va Oyoqchisoyning burilish joyida Kesh (Kitob-Shahrisabz)dan kelgan yo'l bilan tutashgan. Keyin ikki yo'l birlashib, chapga burilib qirlik orqali 4-4,5 km masofadagi Qalqama daryosi vodiysiga o'tgan. Mazkur yo'l hozir ham faoliyat ko'rsatadi. Bu yassi qirlik orqali tuyada, otda, eshakda yoki piyoda yurish hech bir qiyinchilik tug'dirmagan. Chandaroqtepadan to Qalqama daryosi vodiysiga bo'lgan masofa o'rtacha 30–31 km ni tashkil etadi.

Uchinchi kuni yo‘l yuqorida aytilganidek, Alqamartepa yoki Dun-yotepadan shimolga yo‘nalil, keyin g‘arbga burilgan va Yo‘rg‘abuloqsoy (Terssoy)ning chap sohili yoqalab to‘g‘ri Jom dovoniga qarab ketgan.

Jom qishlog‘ida joylashgan yirik arxeologik yodgorlik Kattatepani hech ikkilanmasdan qishloqning qadimiy o‘rni ekanligini aytish mumkin. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi H.G‘. Axunboboev yozma manbalarda tilga olingan, arablar tomonidan yoqib yuborilgan al-Muxtarika qishlog‘i bilan lokalizatsiya qilgan. Lekin olim bu yodgorlikning nomini keltirmagan. Yodgorlik hududidan terib olingan arxeologik osori-atiqalar V-XIII asrlar bilan davrlangan (Axunbobaev, 1990, s.89-90).

Keyingi tadqiqotlar davrida bu yodgorlikning nomi Kattatepa ekanligi aniqlangan (Berdimurodov, Suyunov, 2012, 90-100-b.; Berdimurodov, Suyunov, Soriyev, 2015, 44-b.).

Tadqiqotlar natijalari orqali shuni aytish mumkinki, Samarqand – Kesh o‘rtasida Jom dovoni orqali o‘tgan qadimiy doimiy savdo yo‘li suvsiz dashtlar orqali (Rtveladze, Sagdullaev, 1986, s.27) emas, balki atrofi unchalik baland bo‘lmagan tog‘li hududdan, doimiy ravishda suv oqib turgan, go‘zal tabiatli Yo‘rg‘abuloqsoy bo‘ylab yo‘nalgan. Bu joylar Zarafshon tog‘larining janubiy sarhadlari bo‘lganligi bois, qishda ham kunchuvoq bo‘lib, qorlar doimiy ravishda erib turganligi bois, bu yo‘ldan yil bo‘yi qatnash mumkin bo‘lgan. Vodiyning kengligi esa undan faqatgina savdo karvonlarini emas, balki, hatto Aleksandr Makedonskiy ehtimol shu yo‘ldan o‘tgan bo‘lsa, uning qo‘shini ham bemalol sig‘dirish imkoniga ega bo‘lgan.

Mavzuga qaytib yo‘lning davomi to‘g‘risida fikr yuritsak, Jom qishlog‘idan keyingi manzil Samarqand viloyatidagi Sazag‘on qishlog‘idan 2,5 km g‘arbdagi yodgorliklar majmuasi bo‘lib, Kattatepadan ulargacha bo‘lgan masofa 28-29 km. Undan keyingi Samarqand (Afrosiyob)gacha bo‘lgan masofa esa 29 km.ni tashkil etadi. Jom bilan Samarqand orasidagi manzil Sazag‘on ekanligini bizdan avval ham mutaxassislar qayd etishgan (Inevtkina, Suchilin, 2015, s.85).

Arab tarixchisi at-Tabariy Kesh va Samarqand oralig‘ida joylashgan al-Murg‘ob rustaqi to‘g‘risida xabar beradi. Al-Murg‘ob rustaqining Jom dovoni yo‘li ustida joylashgan bo‘lishi mumkinligini sharqshunos olim Sh.S.Kamoliddinov ham taxmin qilgan (Kamaliddinov, 1996, s.42). Bizning fikrimizcha, bu rustaqni hozirgi Qalqama daryosi

va unga kelib quyilgan Govxona, Quruqsoy, Tarag'aysoy, Yo'rg'abuloqsoy kabi soylar vodiylarini o'z ichiga olgan hududga joylashtirish o'rinli bo'lur edi. Bizning Chiroqchi tumanida olib borgan arxeologik qidiruvlarimiz jarayonida bu daryo vodiysi orqali Samarqandga yo'l bo'lganligi va bu yo'lda ko'plab arxeologik yodgorliklar borligi isbotlandi. Bu yo'lda joylashgan Yo'rg'abuloq qishlog'ida mavjud bo'lgan yirik o'rta asr yodgorligi Qo'shtepa 1 va 2 (6 ga) mana shu rustaqning markazi bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Jom dovoni orqali o'tgan Kesh – Samarqand yo'li bu ikki voha o'rtasidagi asosiy qatnov yo'li bo'lib, unda yil bo'yi qatnov amalga oshirilgan va shubhasiz bu yo'l xalqaro maqomga ega bo'lgan.

Samarqand – Termiz yo'li (Jom orqali). Samarqanddan Jomgacha kelgan yo'l Kattatepa atrofida ikkiga ajralgan va har ikkala yo'l ham Termizga olib borgan. Birinchi yo'l chapga burilib yuqorida aytilgan yo'nalish bo'ylab Qo'shtepa 1,2, Qalqama daryosi vodiysi, Jartepa, Chandaroqtepa, Kishmishtepa, Kesh orqali ketgan.

Ikkinchi yo'l Jomdan ozgina janubi-sharqqa burilib, cho'l orqali to'g'ri G'uzor tomonga yurilgan. Bu yo'lda Jomdan 6 km masofada, hozirgi Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani O'makay qishlog'i hududida joylashgan Suyritepa orqali o'tgan. Suyritepada ilk o'rta asr va o'rta asrlar sopollari uchraydi³⁹. Bu yo'ldagi asosiy manzil Qalqama daryosining quyi oqimi hisoblanadigan Qumdaryo bo'yida, hozirdagi Ko'kdala tumani O'ymovut qishlog'ida joylashgan Sariqtepadir. Bu yodgorlik Jomdan 28 km masofada joylashgan bo'lib, birinchi marta A.S.Sagdullaev tomonidan fanga ma'lum qilingan. Yodgorlik ikki pog'onali bo'lib, janubiy qismida kichikroq arki mavjud, umumiy maydoni esa 5 ga atrofida (Rtveladze, Sagdullaev, 1986, s.27). Sariqt tepaning o'rta asrlarda yirik qishloq sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Samarqand – Nasaf yo'li (Jom orqali). Bu yo'l ham Jom dovoni orqali o'tgan. Jomdan Nasafga ketishdagi birinchi manzil 34 km masofada, hozirgi Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Xarduri qishlog'i hududida joylashgan Qoratepa yoki 36 km masofada joylashgan Xazor Buqo yodgorliklari bo'la oladi. Hazor Buqo ilk marotaba S.K.Kabanov tomonidan tilga olinadi. Keyinchalik bu yodgorlik

³⁹ Bu yo'l to'g'risidagi surishtirishlar davrida O'makay qishlog'ida yashovchi, sobiq o'qituvchi Mo'min otaning aytishicha, bu yo'l o'makayliklar tomonidan eskidan "G'uzor yo'li" deb atalgan va u Suyritepaning yonidan o'tib to'g'ri janubga qarab ketgan. Hozirda Suyritepadan janubga qaralsa, bu yo'lning yo'nalishi ikkita qir oralig'ida juda yaxshi ko'zga tashlanadi.

A.S.Sagdullaev tomonidan ham tadqiq etilgan (Rtveladze, Sagdullaev, 1986, s.28).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arxeologik adabiyotlarda aytilgan Jom dovoni yoki Jom qishlog‘i nihoyatda qulay geografik nuqtada joylashganligi bois bu yerdan Buyuk ipak yo‘lining tarmoqlari o‘tgan. Jom qishlog‘i hududida joylashgan o‘rta asrlar davriga oid karvonsaroy qoldiqlari bu qishloq qadimdan to o‘rta asrlargacha, hatto bugungi kunlargacha ham madaniy muloqotlar va savdo yo‘llarining chorrahasida joylashganligini ilmiy nuqtai nazardan isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахунбабаев Х.Г. Согдийский треугольник на Великом Шелковом пути. Формирование и развитие трасс Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье. ТД международного семинара ЮНЕСКО. Самарканд, 1-6 октября 1990 г.

2. А.Э.Бердимуродов., Суюнов С.С., Сorieв Х.Я. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1-том. Самарқанд вилояти, 2-қисм. Нуробод тумани. Самарқанд, 2015.

3. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011-йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010-2011-йиллар, 8-сони. Самарқанд 2012.

4. Иневткина О.Н., Сучилин А.А. Транспортные пути Самаркандских земель. Скрипта – Антикуа. Том пятый. М., 2015.

5. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. Ташкент, 1996.

6. Лунина С.Б. Города Южного Согда, Ташкент, 1984.

7. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших поколений. Ташкент “Ўзбекистан”1986.

8. Ртвеладзе Э.В. Предполагаемый поход Александра Македонского из Маргианы в Южный Согд и Мараканду. Скрипта – Антикуа. Том пятый. М., 2015.

OSTONABOBO ZIYORATGOHI

*Berdimurodov A.E. – tarix fanlari nomzodi,
Ya.G‘ulomov nomidagi
Samarqand arxeologiya instituti
yetakchi ilmiy xodimi*

Nurobod tumanida Zirabuloq tog‘ yon bag‘rida Ingichka tog‘-kon markazidan 10 km shimolda Ostonabobo nomli qishloq joylashgan. Mazkur qishloq bir necha asrlardan buyon musulmonlar uchun muqaddas ziyoratgohga aylangan bo‘lib, bu erda Ostonabobo maqbara-rasi va uning sharqiy tomonida barpo qilingan masjid mavjuddir.

Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, Ostonabobo nomi bilan ataladigan yodgorliklar Markaziy Osiyoning ko‘pgina joylarida uchraydi. Masalan, Turkmanistonning Kerki shahri yaqinida Ostonabobo nomli ikkita maqbara mavjud. Shuningdek, Surxondaryoning chap qirg‘og‘ida ham shu nom bilan ataladigan maqbara bor. Tabiiyki, bu maqbaralarda moziyda ulkan xizmatlari bilan xalqning ehtiromiga sazovar bo‘lgan aziz-avliyolar dafn etilganlar. Endi Nurobod tumandagi Ostonabobo ziyoratgohiga qaytadigan bo‘lsak, shuni aytish lozimki, bu erdagi maqbaraga Langar shayxlari bilan mashhur bo‘lgan shayxlar dafn etilganlar.

Tog‘ adirlarida joylashgan Ostonabobo qishlog‘i unchalik katta emas, gavjum va serqatnov yo‘llardan ham chetda. Ammo bu qishloq olti-yetti asrlardan buyon mo‘min-musulmonlar uchun muqaddas ziyoratgohga aylangandir. Chunki bu manzilda islom dinining rivojiga katta hissa qo‘shgan uch ulug‘ shayx yashagan va hozirda ular ushbu yerda abadiy oromda yotishibdilar.

Qishloqqa yaqinlashar ekansiz, ko‘zingiz qirning pastida qad rostlab turgan mo‘jazgina maqbaraga va uning g‘arbiy tomonida qirning ustiga qurilgan masjidga tushadi.

Maqbara unchalik katta va serhasham bo‘lmasada, ammo u me’morchilik san’atining barcha tartib – qoidalariga mos ravishda qurilganligi uchun anchayin salobatli ko‘rinadi. Maqbaraning tepa qismini gumbaz qoplab turibdi, ammo na gumbaz na devorlarga koshin ishlatilmagandir. (1-rasm)



1-rasm.

Maqbara ichida uchta qabr joylashgan bo'lib, ularning ustiga yozuvlar bitilgan marmartoshlar o'rnatilgan. Bu qabrtoshlarning uzunligi 1,5-2 m bo'lib, balandligi esa 50 sm.ga etadi. Maqbara ichiga kirgandan so'ng o'ng tomonda joylashgan, ya'ni birinchi qabr ustiga qo'yilgan toshdan anglashinilcha, bu qabrga shayx Muhammad Ahmad dafn etilgan. Maqbaraning o'rtasidagi, ya'ni ikkinchi qabrtoshga esa bu qabrga shayx Xudoyquli dafn etilganligi yozilgan. Maqbaradagi uchinchi qabrga esa shayx Murshid Ilyos ibn Muhammad dafn etilgandir. Maqbara ichidagi yozuvlardan shu narsa anglashiladiki, bu yerga bir avlodga mansub bo'lgan bobo, ota va nabira dafn etilgandir. Bobo shayx Xudoyquli, uning o'g'li Muhammad Ahmad va uning o'g'li esa – shayx Ilyosdir. Tarixiy manbalarda bu ulug' shayxlar, ayniqsa shayx Xudoyquli haqida juda kamtarona ma'lumotlar saqlan-gandir. Akademik Botirxon Valixo'jaev, Bahovuddin Naqshbandning shogirdi Muhammad Porsoning xojagon silsilasi haqida yozgan risolasiga asoslanib, Ostona bobo maqbarasiga dafn etilgan Xoja Mahmudni Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy bilan bir shaxs bo'lsa kerak deya taxmin qilgan. Lekin bu toshni oldi va orqa tomonlaridagi yozuvlarni o'qib chiqqanda biz shuni aniqladik-ki, toshni orqa tomonida shayx Xudoyquli deb yozilgan. Old tomonida u kishi nasabda (shayxlik) shayx xoja Mahmudga yetadi deyilgan. Domla Valixo'jaev old

tomondagi yozuvda adashganga o'xshaydilar. Bu taxminga qo'shimcha ravishda Xoja Mahmud Fag'naviy va murshid Ilyos shayxlarning har ikkalasi jahriya (tovush chiqarib zikr qilish) tariqatiga mansub bo'lganliklarini eslatgan. Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullano-ma" asariga yozilgan izohda esa, "Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy– mashhur shayxlardan Xoja Orif Rivgariyning xalifalaridan bo'lib, Buxoroning Vobkent tumanidan, Xoja Muhammad Porsoning zamon-doshi", -degan. Bizning fikrimizcha, Ostonabobo maqbarasidagi qabrtoshda tilga olingan Xoja Mahmud bilan Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy o'rtasidagi bog'liqlik ehtimoldan uzoqdir. Negaki, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy Xoja Orif Rivgariyning xalifasi bo'ladigan bo'lsa, u XII asrda yashagan bo'lib chiqadi. O'z-o'zidan ma'lumki, Xoja Mahmud bilan Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy turli davrdarda yashagan ikki shaxsdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tarixiy manbalarda shayx Xudoyquli haqida juda kam ma'lumotlar saqlangandir. Hozircha bizga ma'lum bo'lgan manbalardan Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida shayx Xudoyquli haqida ayrim ma'lumotlarni uchratdik. Bu borada muallif (Salohiddin Toshkandiy): "Ammo mullo Tanish Buxoriy so'zi bila shayx Xudoydod degan aziz, ya'ni Xudoyberdi, Xudoyquli ham derlar. Qipchoqni musulmon qilib erdilar. Ammo xon hanuz kofir edi, kofir bo'lsa ham shayx Xudoyquliga muxlis erdi. To'qtemurxon qoshiga borib aydilar: "man pirimdan eshitib erdim, amiri jahon vujudi kelur, ani Hadid derlar, ya'ni oti Temur bo'lur, yer yuzin va kun ko'zin olur. Sani oting Temurdir", deb xonga kashur kusholigini, ya'ni yetti iqlimni fath qilmoqni dalolat qildilar. Bular hazrat Sayyid ota shayx Xudoydodga noma yuborib aydilar: ba'zi qipchoqlar musulmon bo'ldi, ammo ko'broqi kofirdurlar, ani siz kelib imdod bering, barchasini musulmon qilayluk. Shayx Xudoyquli aytdilar: olding'a kelub murid bo'lsunlar. Qabul qilmadilar. Sayodat jihatidan o'rtalarida nizo'i ko'b bo'ldi. O'zbekxon Sayyid ota jonibidin erdi. To'qtemurxon shayx Xudoydod jonibidin erdilar. Sayyid askarida musulmon ko'p erdi. Shayx lashkarida kofir ko'p erdi. Ikkala aziz ko'b jang qildilar. Shayx Xudoyquli qo'shini ichra izdihom ko'p erdi, Sayyidniki ozroq erdi. To'qtemurxon qo'li g'olib keldi, nechuk aning qo'lida har elatdin odam bisyor erdi", -deb yozgandir. Salohiddin Toshkandiyning bergan ma'lumotlaridan biz uchun qimmat tomoni shundaki, muallif shayx Xudoyqulini Oltin O'rdaga islom

dinini yoyishda, ko‘plab kofirlarni islomga kiritishda qilgan xizmatlarini aytib o‘tgandir.

Shayx Xudoquli haqida muhim bu ma’lumotni ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” nomli asarida yozib qoldirgandir. Ulug‘ shoirimiz bu shayx haqida: “Shayx Abulhasan Ishqiyning sohibi sajjodasi va qoyimi maqomi va zamonining shayx ulmashoyixi ekan. Ishqiya silsilasida Shayx Abulhasandin so‘ngra go‘yo andin ulug‘roq kishi yo‘q erkandur. Va xavoriqi odotu karomoti ko‘p manquldur”-deb yozib qoldirgan.

To‘g‘liq Temur hozirgi ko‘hna Urgancha shaharida yashab, O‘rta Xorazmning Oltin O‘rdaga qaram qismini boshqargan. Shu sababli To‘g‘liq Temurga pirlik qilgan Xudoyquli shayx ham Ko‘hna Urganchda birmuncha vaqt yashagandir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayrim olimlar shayx Xudoyqulini xorazmlik hisoblaydilar. Sohibqiron Amir Temur davriga kelib Xorazmning Oltin O‘rdaga qaram qismi istilo qilinib, Movarounnahrqa qo‘shib olinadi va Sohibqiron tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Balki shu voqeadan keyin shayx Xudoyquli ham Movarounnahrqa kelgan va o‘z faoliyatini bu yerda davom ettirgan bo‘lishi mumkin. Agarda Salohiddin Toshkandiyning, Buxoro shahari darvozalarining birining oldida Shayx Xudoyquli, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy va Sohibqiron Amir Temur o‘zaro uchrashib suhbatlashganlar, degan ma’lumotlari to‘g‘ri bo‘lsa, Amir Temur shayx Xudoyqulini yaxshi bilgan va unga ko‘p ehtiromlar ko‘rsatib, Samarqandga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilar shayx Xudoyqulini XIV asrning oxirlarida vafot etgan, deya taxmin qilishadi. Ularning qabrlari ustiga esa shayx Muhammad Ahmadning o‘g‘li, shayx Xudoyqulining nabirasi murshid Ilyos shayx ibn Muhammad maqbara qurdirgandir. Ostonabobo maqbarasining me’moriy echimlari ham aynan XIV asrlarda Sohibqiron Amir Temur davrida barpo qilingan me’moriy inshootlarning uslublariga juda yaqin turadi. Bunga misol tariqasida Samarqanddagi Ruhobod (Burhoniddin Sog‘arjiy) maqbarasini eslashimiz mumkin. Ostonabobo qabristonidagi ayrim qabrlar ustida XIV asrda o‘rnatilgan, mohir sangtaroshlar tomonidan yasalgan qabrtoshlar ham uchraydiki, bu haqiqatdan ham maqbara XIV asrda barpo etilganligini tasdiqlaydi. Fikrimizcha, bu qabristonga dastlab shayx Xudoyquli va ul zotning o‘g‘li shayx Muhammadlar dafn etilganlar. Keyinroq esa bu ulug‘ zotlarning qabrlari atrofida

boshqa qabrlar paydo bo'lgan va shu tariqa 600-700 yillik o'tmishga ega bo'lgan Ostonabobo qabristoni vujudga kelgandir.

Ostonabobo maqbarasiga dafn etilgan shayx Muhammad ibn shayx Xudoyquli haqida ham juda oz ma'lumot saqlangandir. Faqatgina biz bu ulug' zotni shayx Xudoyquli vafot etgan yili vafot etgani va undan shayx Ilyos ismli o'g'il qolganini bilamiz, xolos. Bu shayx haqida ham ulug' shoirimiz Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shunday deb yozib qoldirgan: "Xudoyquli Shayx q.s. ning o'g'lidir. O'z zamonida xaloyiq murshidi ermish. Sultonlar anga muridlik haysiyatidin irodat kelturubdurlar. Aning suhbatida olime anga bir qatla taarruz qilg'andur. Shayxning ollida obxo'ra ko'za turg'an ekandur. Bir toshni olib, ul ko'za og'zig'a qo'yubdur. Ul olim har ilmki kasb qilg'on ekandur, barcha xotirdin chiqib, o'zin omiyu johil topibdur. Bo'ynig'a fo'ta solib, istig'for qilib, Shayx qoshig'a tazallum qilibdur. Shayx ul toshni ko'za boshidin olg'ach, yana o'zin burungi holida topib, Shayxqa murid bo'lubdur⁴⁰".

Ammo shayx Ilyos haqida qisqa bo'lsa-da ishonchli ma'lumotlar qolgan. Bu muhim ma'lumotlarni akademik B.Valixo'jaev birinchi bo'lib ilmiy muomalaga kiritgan edi. Shayx Ilyos haqida muhim bu ma'lumotni ulug' shoirimiz Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" nomli asarida yozib qoldirgandir. Ulug' shoirimiz murshid Ilyos shayx haqida: "Ilyos shayx – rahmatullohi taoli Muhammad shayx rahmatullohi taolining o'g'lidir. Zohir ilmida bu silsilada andin olimroq yo'q ermish va haj davlatiga musharraf bo'lubdur. Arabiatda mohir ermish va ul til birla so'zlashuv ermish va nazm dog'i aytur ermish. Samarqandda Tum (Tim) tog'ida sokin ermish. Muborak marqadi go'yo ham anda o'qdo'r", -deb yozgandir. Alisher Navoiyning keltirgan ma'lumotlaridan shu narsa ayon bo'ladiki, shayx Ilyos arab tilini yaxshi bilgan va hattoki shu tilda she'rlar ham bitgan. Mak-kaga haj safariga ham borishga musharraf bo'lgandir. Shuningdek, ulug' shoirimiz Ilyos shayxni zohir ilmida olimlar peshvosi bo'lganligini va hozirgi Samarqand viloyatining Tim tog'idagi manzilida yashaganligini alohida ta'kidlaganligi Ilyos shayx Mavrounnahrdan tashqarilarda, jumladan, Xurosonda ham ancha taniqli bo'lganligini ko'rsatadi.

⁴⁰ <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/482-nasoim-ul-muhabbat-iii-qism-alisher-navoiy.html>

Akademik B.Valixo'jaev "Ostonabobo ziyoratgohi" nomli maqolasida Xoja Ahror Valiga bag'ishlangan "Silsilat ul-orifin" asaridan bir parcha keltirgan bo'lib, bu ma'lumotlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgani uchun bu haqda to'xtalishga qaror qildik.

"Silsilat ul-orifin" asarida yozilishicha, shayx Muhammad Keshiy Ilyos shayxning jahriya bilan shug'ullanishini ma'qullamagan va natijada ikki o'rtada bahs paydo bo'ladi. Shundan so'ng shayx Ilyosning muridlari Keshiyning o'z murshidlariga e'tioz bildirganligidan norozi bo'libdilar. Bu voqeadan xabardor bo'lgan Xoja Ahror Keshiyga zarar etmasin deya, uni himoya qilmoqchi bo'libdi. Ilyos shayx esa Xoja Ahrorning bu ishidan ranjib, Movarounnahr podshosi Sulton Ahmad Mirzoning tog'asi – Amir Darvish Muhammad Tarxonga maktub yozibdi. Voqeaning bu tarzda rivojlangani Muhammad Keshiyning tashvishiga solibdi va Movarounnahrni tark etib, Xitoy tomonga o'tib ketibdi. Bu ma'lumotlar shayx Ilyosni o'sha davrda Movarounnahr hukmdorlari oldida juda katta obro'–e'tiborga ega bo'lganini ko'rsatib turibdi. Yuqorida berilgan ma'lumotlar, hozirda Ostonabobo maqbarasida abadiy o'yquda yotgan shayx Xudoyquli, ul tabarruk zotning o'g'li shayx Muhammad va bu ulug' shayxning farzandi shayx Ilyoslar o'z davrida islom dinining rivojiga katta hissa qo'shganliklarini, o'z ilim va xizmatlari bilan hukmdorlar oldida ham katta obro'–e'tiborga sazovar bo'lganliklarini ko'rsatib turibdi.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, Ostonabobo maqbarasining g'arbiy tomonida, qirning ustida qadimiy masjid qad rostlab turibdi.

Masjidning shakli to'g'ri burchakli bo'lib, uning o'lchami 21,30 x12,5 metrni tashkil etadi. Bino pishiq g'ishtlardan ganch qorishmasi bilan terilgan. G'ishtlarning ko'rinishi kvadrat shaklida. Masjidning usti uchta gumbaz bilan berkitilgan va markaziy gumbaz ikki yonbosh gumbazga nisbatan baland va kattadir. Masjid o'z kompozitsion yechimlari (tarhi) bilan XI asrda barpo qilingan masjidlarga yaqin tursa-da, biroq me'moriy uslublari va qurilish materiallari bilan XVI-XVIII asrlarda Buxoro va Qashqadaryo vohalarida bunyod etilgan masjidlarga yaqin turadi. Bizning fikrimizcha, bu yerda dastlab maqbara barpo qilingan va ziyoratga keluvchilar ehtiyoji tufayli masjid barpo etilgandir (2-rasm).



2-rasm.

Maqbara yaqinida va masjidning shimoliy qismida zilol suvli buloqlar oqib turibdi. Pastdagi buloqning yaqinida hovuzning o‘rni ko‘rinib turibdi (3-rasm). Xalq orasida Qo‘tirbuloq deya nomlangan bu buloqlarning shifobaxsh suvlari har xil teri kasalliklariga va qo‘tirga davo qilar ekan.



3-rasm.

Endi o‘z bag‘rida uch ulug‘ shayxni olib yotgan maqbaraning Ostonabobo deya nomlanishi haqida ayrim mulohazalar.

Biz Ostonabobo qishlog‘ida bo‘lganimizda bu yerda yashaydigan aholi maqbaradan taxminan 2 km.lar g‘arbda qadimgi masjidning qoldig‘i borligini aytishdi. Biz o‘sha tomonga yo‘l oldik. Haqiqatdan ham bu yerda zilol suvli buloqlar, ulardan oqib chiquvchi soy va soyning qirg‘og‘ida qadimiy chinorlarning to‘nkalari, ildizlari mavjud ekan (4-rasm).



4-rasm.

Bir paytlar bo‘lgan masjidning to‘rtburchak o‘rni sal-pal bilinib turibdi. Ko‘hna masjiddan taxminan 500 mertlar sharqda katta bir yodgorlik saqlangandir. Yodgorlikning ustida VIII-XIII asrlarga oid sopol parchalarini uchratdik. Bir paytlar yodgorlikni o‘rab turgan mudofaa devorining qoldiqlari yaqqol ko‘rinib turibdi (5-rasm).



5-rasm.

Bizning fikrimizcha, shayx Xudoyquli va uning avlodlari shu yerda yashashgan. Shayxnin hayotligida uning ziyoratiga kelganlar aynan shu yerga kelganlar. Bu yerning qadimiyligini soyning qirg'og'ida saqlangan azamat chinorlarning qoldiqlari ham yaqqol isbotlab turibdi. Hozirda maqbarar joylashgan joy shayx istiqomat qilgan manzilning ostonasi, bo'sag'asi bo'lgan. Balki shuning uchun ham maqbaraga keyinchalik xalq tomonidan Ostonabobo deya nom berilgandir.

Ostonabobo maqbarasidagi yozuvlar.

Ma'lumki, bu erda uchta qabr bo'lib, ulardan biriga shayx Xudoyquli, ikkinchisiga ul zotning o'g'li shayx Muhammad Ahmad, uchinchisiga esa shayx Ilyos ibn Muhammadlar dafn etilgandir (6-rasm).



6-rasm.

(Tosh bitiklardagi arabcha matnlarni o‘zbek tiliga sharqshunoslar Akmal Ahmedov va Hasan Akparovlar o‘g‘irganlar).

Shayx Xudoyquli qabridagi yozuvlar: “U yerdagi quyosh. Bu jannat ravzalaridan bir ravza va jannat bog‘laridan bir bog‘. Sohibi Mashhad, Irfon sirlarini ma’dni, koshifi. Rasululloh Sunnatining bulog‘i, Shayx Xudoquli Shayxul Ikrom va sohibi Akdam. 822-yilning safar oyida vafot etdilar. Bu kishi xol ilmining shayxul imomi, arab, qozi (si).... uchgan. Shayx Mahmud xo‘ja ibn Kirmoniy (dan ta’lim olgan).

Shayx Muhammad Ahmad qabrtoshidagi yozuvlar: “Bu jannat ravzalaridan bir ravza va jannat bog‘laridan bir bog‘, Alloh manzili-dan bir bandasining manzili, Muhammad Ahmad al-Mahmud, xalqni haqqa etaklovchi va haqni halqqa ho‘jjati va albatta ajoyiblardan, bu kishining dorul qarorga ko‘chishi shayx Xudoyqulining ko‘chishlariga to‘g‘ri keladi. “Alloh taolo aytdi: Albatta avliyolar, ularga biror bir qo‘rqinch yo‘q va ular mahzun bo‘lmaslar. Rasululloh (s.a.v) aytdilar: “Albatta avliyolar o‘lmaslar, lekin bir hovlidan boshqasiga o‘tadilar va yana aytdi: “Albatta olimlar qarlariga tosh qo‘yishlik sunnatdir”.

Shayx Ilyos qabrtoshidagi yozuvlar: “Sha‘bon oyining yigirmanchi kunida oxiratga yuzlandi, dunyo murshidi bo‘lgan Ilyos ibn Muhammad. Alloh Taolo ul zotdan rozi bo‘lsin, u kishidan qolganlarni ham va ularga baraka bersin va xulqlarini xushxulq qilsin”.

Ostonabobo maqbarasining hovlisida ham bir necha qabrtoshlar saqlangan bo‘lib, ulardan biri shayx Ilyosning qizi Maryamning qabrtoshidir. Afsuski, bu qabrtosh singan bo‘lib, unda faqatgina: “Ulug‘ ravzalardan biri bo‘lgan bu ravza insonlar faxri Maryam binti Ilyos shayx”-degan yozuvlarga saqlangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердимуродов А.Э., Аҳмедов А. Лангар шайхлари тарихи (Илмий-оммабоп рисола). Халқаро “Олтин мерос” жамғармаси Самарқанд вилоят бўлими. Самарқанд–2003.

2. Alisher Navoiy. Nasoim ul-Muhabbat (III-qism). library. ziyonet.uz/ 42-43 betlar.

3. Ботирхон Валихўжаев. Буюк маънавий муршид. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2004.

4. Ботурхон Валихўжаев. Хўжа Ахрор тарихи. Тошкент «Ёзувчи» нашриёти. www.ziyouz.uz 80-92 бетлар.

4. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/482-nasoim-ul-muhabbat-iii-qism-alisher-navoiy.html>

NUROBOD VOHASINING SUG'ORILISH TARIXI TO'G'RISIDA YANGI MA'LUMOTLAR

*Berdimurodov A.E., Suyunov S.S. –
Madaniy meros agentligi
Samarqand arxeologiya instituti
yetakchi ilmiy xodimlari*

Sharq mamlakatlari tarixidan ma'lumki, kishilik jamiyati taraqqiyotida sun'iy sug'orish inshootlariga asoslangan haydalma dehqonchilik katta ahamiyatga ega bo'lgan. Insoniyat taraqqiyotining ushbu mezonini biz o'rganayotgan o'lka xalqlari uchun ham mustasno emas.

O'zbekiston xalqlari qadim tarixining o'sha davrlarda echilishi kerak bo'lgan dolzarb muammolardan biri aynan shu o'lkaning qadim dehqonchiligi va sug'orilish usullarini o'rganish masalasi deb qaralgan (G'ulomov, 1959).

O'rta Osiyoning Zarafshon vohasi hududida olib borilgan ko'pyillik arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimdan sug'orilib, obod qilingan er maydonlari aniqlangan. Hozirda ham qachonlardir suv chiqarilib obod qilingan erlarni sug'orish sohasidagi boy tajribasini umumlashtirish g'oyat muhimdir.

Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg'om sun'iy sug'orish tarmog'ining yirik o'zani Eski Anhor biz tadqiqotlar olib borayotgan Nurobod vohasining sharqiy qismini suv bilan ta'minlabgina qolmay, balki Qashqadaryo vohasining asosiy suv manbai bo'lgan (1-rasm).



1-rasm. Eski Anhor sug'orish tarmog'i.

2011-yilning yoz oylarida Nurobod vohasining qadim va oʻrta asrlar sugʻorilish tarixini oʻrganish maqsadida OʻzR FA Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida voha xalqlari tarixining turli bosqichlariga oid boʻlgan moddiy madaniyat yodgorliklari oʻrganilib xaritaga tushirildi. Yodgorliklar bilan bir qatorda, vohada dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va uning asosi boʻlgan sugʻorishning paydo boʻlishi, irrigatsiyasning taraqqiyot tarixi bilan bogʻliq boʻlgan masalalarga oydinlik kiritildi.

Nurobod vohasida sugʻorma dehqonchilik va uning asosini tashkil etgan irrigatsiya tarmoqlari qadimdan paydo boʻlgan. Olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlardan koʻzlangan maqsad, vohaning asosiy suv manbalari, sunʼiy sugʻorish tarmoqlari, eski oʻzlanlar, oʻrganilayotgan yodgorliklar bilan birgalikda sugʻorilish tarixga aniqlik kiritish edi.

Dastlab vohaning ilk sugʻorilish tarixi toʻgʻrisida olib borilgan izlanishlarga toʻxtalib oʻtamiz. Eski Anhor sugʻorish tarmogʻi toʻgʻrisida ilk maʼlumotlar XIX asrning oxirlarida arxeologlar G.A.Arandarenko va M.F.Sitnyakovskiylar tomonidan qayd qilingan boʻlib, unda Zarafshon daryosining suvi eski oʻzan orqali Qarshi choʻligacha etib borganligi aytilgan. Bu oʻzn Eski Anhor ekanligi toʻgʻrisida ham maʼlumot berilgan (Arandarenko, Sitnyakovskiy, 1990. B.270).

V.V.Vyatkin yozma manbalarda “Temuriylar davrida Yangianhor tumani” toʻgʻrisida maʼlumotlar berilganligi oʻsha davrda tashkil topgan Yangianhor tuman hududlari hozirgi Ulus qishlogʻi oʻrnida ekanligi qayd qilgan (Vyatkin, 1902.)

V.V.Bartold Anhor tumani toʻgʻrisida maʼlumot berar ekan, bu joy toʻgʻrisida faqat temuriylar davrida qayd qilinganligini, Hafiz Abru “Irrigatsiya ishlari Eski Anhorda aynan temuriylar davrida” olib borilganligini tasdiqlanganligini aytgan (Bartold, 1914, B. 113).

1946–yilning oktyabr oyida arxeolog Terenojki boshliq Amudaryo arxeologik ekspeditsiyasi Zarafshon daryosidan bosh olgan Dragʻom sugʻorish tarmogʻining katta oʻzani hisoblangan Eski Anhor sugʻorish (kanal) tarmogʻida izlanishlar olib borib, bu oʻzan qadimdan bunyod qilinganligi toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Eski Anhor Keskanjor tepaligida yaqin joyda bir necha sugʻorish tarmoqlariga boʻlinib ketganligi eʼtirof etadi (Terenojkin, 1947. B. 186).



2-rasm. Kattasoy sugʻorish tarmogʻi.

1954-yilning bahor oylarida Eski Anhor sugʻorish tarmogʻi (kanal)da qazish ishlarini oib borgan quruvchi-injener L.I.Bliznichenka, Eski Anhor sugʻorish (kanal) tarmogʻining uzunligi Samarqandning janubiy chegarasidan toki Ulus qishlogʻigacha 60 kilometr ga yaqin ekanligini taʼkidlagan. Ulus qishlogʻining janubiy tomonida oʻzan toʻgʻrisida ham maʼlumot bergan. Soʻngra bu oʻzanning yangi irmogʻi Kattasoy sugʻorish tarmogʻi orqali oʻtganini taʼkidlaydi (Bliznichenko, 1954, B. 19). Bu eski oʻzan hozirda ham saqlangan (2-rasm).

1959-yilda arxeolog S.K.Kabanov Ulus qishlogʻining gʻarbiy tomonida Shoʻrobod qishlogʻiga yaqin joyda Kattasoy sugʻorish tarmogʻining eski oʻzani oqib oʻtganligi aniqlandi. Arxeolog S.K.Kabanov ham quruvchi-injener L.I.Bliznichenkoning fikrini taʼkidlaydi (Kabanov, 1959, B. 156).

Amir Temur Zarafshon daryosida bosh olgan Dargʻom sugʻorish tarmogʻining yirik oʻzani Eski Anhor orqali Qashqadaryoga suv olib kelganligini, “hashar” yoʻli bilan bir yarim mingdan ortiq kishini Eski Anhorni qazish ishlariga jalb qilganligini qayd qiladi (Klavixu Ryu-Gonzalesde, 2001).

Vohada olib borilgan arxeologik tadqiqolar davomida saqlanib qolgan arxeologiya yodgorliklari, sunʼiy sugʻorish tarmoqlari, eski oʻzanlar xaritaga tushirildi. Vohaning sharqiy qismida Eski Anhor

sun'iy sug'orish tarmog'i, Omondarasoy, Oqsoy, Tepaqulsoy, Sazag'onsoylar, Galabek, Sabrsoy, Rabod arig'i, g'arbiy qismida Ingichkasoy, Beshtolsoy suv manbalari bor ekanligi qayd qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlar davomida vohada saqlanib qolgan 50 dan ortiq yodgorliklarning o'rni aniqlandi. Voha er tuzilishi va geografik joylashuviga ko'ra, sharqdan g'arbga pasyib borganligi kuzatildi. Qarnab cho'lining bir qismi hisoblangan Nurobod vohasining g'arbiy qismida birorta ham yodgorlik, sun'iy sug'orish tarmoqlari, eski o'znlar kuzatilmadi.

Nurobod vohasining asosiy suv manbalari Eski Anhor, Sazag'an-soy, Oqsoy, Tepaqulsoy, Omondarasoy, Sabrsoy, Galasoy, Ingichkasoy, Beshtolsoy, Rabod arig'i hisoblanadi. Eski Anhorning yillik suv sig'imi 550 mln.m^3 etdi (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003, 6-son). Eski Anhor sun'iy sug'orish tarmog'ining yirik bir o'zani Ulus qishlog'ining janubiy qismindan boshlanib, Imomtepa, Tinchlik va Pastki qishloqlari orqali oqib o'tganligi kuzatildi (3-rasm). Izlanishlardan shu aniq bo'ldiki, Ajrimotatepa (V-VIII asrlar), Eshottepa (V-VI asrlar), Ulustepa (IV-VIII asrlar), Kattatepa (V-XIII asrlar) yodgorliklari aynan Eski Anhor sun'iy sug'orish tarmog'iga yaqin joylashganligi, Eski Anhor sug'orish tarmog'i hisobidan o'zlashtirilganligi aniqlandi. Chunki, Ulustepa yodgorligining shimoliy qismida Eski Anhor sug'orish tarmog'ining eski o'zani saqlanib qolgan. Eski Anhor sug'orish tarmog'i Imomtepa qishlog'idan chiqishda ikkita sug'orish tarmog'iga bo'linib ketgan. O'ng tomondagi sug'orish tarmog'i Jom arig'i deb ataladi. Bu sun'iy sug'orish tarmog'i Kattatepa (V-XIII asrlar) yodgorligining shimoliy-g'arbiy tomonidan oqib o'tgan. Bu yodgorlik aynan Eski Anhor sug'orish tarmog'idan bosh olgan Jom arig'i hisobidan o'zlashtirilganligi aniqlandi.

Vohaning kichik manbaiga ega bo'lgan Sazag'an-soy, Zarafshon tog' tizmasining shimoliy yon bag'ridan, O'rtabek dovoni (balandligi 1780 metrga teng bo'lgan) dagi buloqdan boshlanadi (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003, 6-son, 418 b.). Sazag'an-soy uzunligi 27 km. kv. ga teng. Soyning yuqori qismidagi ko'pgina kichik irmoqlar yoz oylarini o'rtalariga kelib qurib qoladi. O'zan boshlanishidan 9 km pastda, Sazag'on qishlog'ining boshlanishidan, suv manbai sug'orishga sarflanadi. Izlanishlar Sazag'an-soy suvi faqatgina qor-yomg'ir suvlari ko'p bo'lgan paytlarda, eski o'zan orqali oqqanligi, Eski Anhorning janub tomon oqayotgan o'zanlariga etib borganligi kuzatildi.

Soyning boshlanishida suv oqimi $0,381 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga teng. Oʻrtacha yillik suv sarfi suv koʻp boʻlgan davrlarda $0,83 \text{ m}^3/\text{sek}$. ga teng. Suv kam boʻlgan davrlarda esa $0,068 \text{ m}^3/\text{sek}$. ga etgan. Sazagʻonsoydan mart, aprel va may oylarida eng koʻp (sekundiga $0,99 \text{ m}^3$) suv oqqanligi kuzatilgan.



3-rasm. Jom arigʻi.

Vohada oʻrganilgan yodgorliklarning asosiy qismi Sazagʻonsoy havzasida joylashganligi qayd qilindi. Sazagʻon-I, Sazagʻon-II, Sazagʻon-III, Sazagʻon-IV, Boysaritepa yodgorliklari shular jumlasidandir. Bu yodgorliklar va ularning atrofidagi erlar Sazagʻonsoy suv manbai hisobidan oʻzlashtirilganligi, quyi oʻzanlari atrofidagi erlar esa oʻzanga nisbatan past tepalikda boʻlganligi bois liman (joʻyakli) sugʻorish usuli orqali oʻzlashtirilgan. Bu usul asosan ilk oʻrta asrlarda koʻp qoʻllanilgan.

Zarafshon togʻ tizmasidan bosh olgan Tepaqulsoy havzasidan Nurobod vohasining sharqiy chekka qismidan oqib oʻtadi. Uning uzunligi 4,5 km. ga yaqindir. Soyning oʻrta yillik suv sarfi sekundiga $0,33 \text{ m}^3$ ga, eng koʻp sev, sel kelgan vaqtda sekuniga $0,69 \text{ m}^3$ ga etgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan shu narsa maʼlum boʻldiki, bu suv manbai atrofida sakkizta yodgorlik qayd qilindi. Bular Qultepa (er. avv. II-I asrlar), Tepaqul (IX-XII asrlar), Yettitepa-I (V-

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

VII asrlar), Yettitapa–II (IV–VI asrlar), Yettitapa–III (IV–VI asrlar), Yettitapa–IV (V–VII asrlar), Yettitapa–V (V–VIII, IX–XII asrlar), Yettitapa–VI (IV–VI asrlar) yodgorliklaridir. Bu yodgorliklar asosan Tepqulsoy suv manbai hisobidan o‘zlashtirilganli aniq, chunki yodgorliklar aynan shu suv manbaiga yaqin joylashgan. Tepaqulsoy sel kelgan vaqtda, uning quyi o‘zanlari o‘zlashtiriganligi aniqlandi. Chunki quyi o‘zanlar loyqa yotqizilgan past tekislikdan iborat.

Nurobod vohasining shimoli-g‘arbiy qismida Beshtol tog‘ tizmasidan bosh olgan Ingichkasoy suv manbai atrofida ham bir nechta Avliyobobtepa (V–VIII, IX–XII asrlar), Qo‘rg‘ontepa (IV–VI, VI–VIII asrlar), Kichikqo‘rg‘ontepa (V–VI asrlar), Saritepa (IV–VI asrlar) yodgorliklari qayd qilindi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra bu yodgorliklar aynan Ingichkasoy suv manbai hisobidan o‘zlashtirilganligi aniqlandi (4–5-rasmlar).



4-rasm. Ingichkasoy quruq o‘zani.

Nurobod tuman suv xo‘jaligi arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, bahor oylarida Ingichkasoydan $0,25 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha suv oqqanligi kuzatilgan. Ag‘ron qishlog‘ining shimoli-g‘arbiy qismida Ingichkasoy suv tarmog‘idan bosh olgan eski quruq o‘znlari qayd etildi. Bu o‘zan orqali Saritepa yodgorligi atrofida o‘zlashtirilgan. Tadqiqotlar Ingichkasoydan sel kelgan vaqtlarda ortiqcha suvlar Qashqadaryo viloyatining Koson tumani hududidagi erlarni sug‘orishga sarf bo‘lganligini

ko'rsatadi. Bu xulosa isbotini topdi. S.K.Kabanov tadqiqotlarida ham shunday fikrni ilgari surdi.



5-rasm. Xumlar.

Nurbod vohasining Qarnab cho'liga yaqin joylashgan Tim qishlog'ida ham yodgorliklar va arxitektura majmuasi qayd qilindi. Qo'rg'ontepa yodgorligi, Arabota, Oqmachit majmualri shular jumlasidandir. Bu yodgorliklar va uning atrofidagi erlar Beshtoltog' tizmasidan bosh olgan Beshtolsoy suv manbai hisobidan o'zlashtirilganligi aniqlandi. Beshtolsoy suv manbaining uzunligi 90 kilometr ga yaqin, o'rtacha yillik suv sarfi $0,17 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga teng. Sel kelgan vaqtlarda soydan $0,70 \text{ m}^3/\text{sek}$ suv oqqanligi kuzatilgan (TSXB, 2011. F.1), (6-rasm).



6-rasm. Beshtolsoy quruq o‘zani.

Demak, tadqiqotlar Nurobod vohasida ilk o‘rta asrlarda ikki xil madaniyat turmush tarziga mansuv o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador xalqlarning moddiy–madaniy xususiyatlarini yanada yaqinlashuvi, etnik jihatdan aralashuvining kuchayganligidan dalolat beradi. Eski Anhor, Ravotlik arig‘i, Sazag‘onsoy, Ingichkasoy, Tepaqulsoy havzalarida aholining o‘troqlashuvi miloddan avvalgi II-I asrning boshlarida vujudga kelgan (Jo‘raqulov, Avanesova, 1984, B. 32).

Topilgan ashyoviy dalillarning tahlili vohaga janubiy Sug‘d madaniyatining ta’siri bor ekanligini ko‘rsatadi. Vohada olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, eramizning I asrlaridan boshlab sun‘iy sug‘orish tarmoqlariga asoslangan dehqonchilik xo‘jaligi shakllangan. Bu fikrni arxeolog S.K.Kabanov ham o‘z tadqiqotlarida qayd qiladi (Kabanov, 1959).

Nurobod vohasining sharqiy qismidan o‘tgan Eski Anhor havzasidagi tekislik, tog‘ va tog‘ oldi mavzeylari aholisi qadimdan suv o‘znalariga yaqin joylashganligidan dalolat beradi. Demak, vohada milodiy eraning boshlarida aholining o‘troqlashuvi, yerlarning o‘zlashtirilish jarayoni boshlangan. Bu jarayon ilk o‘rta asrlarga kelib kuchaygan. Vohada o‘troqlashgan aholining ko‘payishi kuzatiladi. O‘rganilgan yodgorliklarning asosiy qismi ilk o‘rta asrlarga oid bo‘lib, ular orqali o‘sha davr sun‘iy sug‘orish tarmoqlari eski o‘znlar xususiyatlari va o‘zlashtirilgan ziratkor yerlar hajmini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, olib borilgan arxerologik tadqiqotlar vohadagi mavjud suv manbalari, ilk sun'iy sug'orish tizimlari, eski o'zanlar, past tekisliklarda o'zining unumdor yotqiziqlari bilan bu kichik vohani bunyod etgan. Eski Anhor, Sazag'onsoy, Tepaqul, Omondara, Sabrsoy, Ingichkasoy atrofida eramizning I-II asrlarida qadimgi ajdodlarimizning o'troqlashuvi erlarning o'zlashtirish jarayoni, kichik sun'iy sug'orish tarmoqlarining vujudga kelishi va sug'orish shahobchalarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

O'sha davr aholisining o'troqlashuvi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklar Eski Anhor, Sazg'onsoy, Tepaqulsoy manbalari atrofida yaxshi saqlangan. Vohada eramizdan avvalgi I asr, eramizning I asrlarida qishloqlar paydo bo'lgan. Bu davrga oid Tepqulsoy atrofida joylashgan Kultepa yodgorligi, Kechkeldik qishlog'ida qad ko'targan Kattatepa yodgorliklaridir. Eski Anhor, Sazag'onsoy, Tepaqulsoy, Ravotlik arig'i atroflari sun'iy sug'orishga qulay tekislik, lalmikor yerlar va yaylovlarga boy bo'lganligi uchun ham o'troqlashgan ko'chmanchi aholi tomonidan to'liq o'zlashtirilgan.

Vohada o'troqlashgan ko'chmanchi aholi bilan mahalliy aholi birlashib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etgan. Biz o'rgangan yodgorliklarning asosiy qismi IV-V, VI-VIII asrlarga oiddir.

Demak, qadim va ilk o'rta asrlarda dehqonchilikning taraqqiy topishi bilan sug'orish ishlari kengayadi. Yirik sun'iy sug'orish tarmoqlari hisobidan sug'oriladigan yer maydonlari, qadimgiga nisbatan ilk o'rta asrlarda 2-3 barobarga ortadi. Ilk o'rta asrlarda sug'oriladigan ekin maydonlari taxminan 1-1,5 ming gektarga etgan.

Nurobod vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan xulosa shuki, voha aholisining suv muammosi uchun olib brogan kurashi eramizdan avvalgi I, eramizning I asrlarida boshlangan. Ilk va o'rta asrlarda esa sug'orish ishlari rivojlangan. XV-XVI asr oxirlariga kelib, vohada suv muammosi o'z yechimini topa olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Я.Г.Фуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. Тошкент, 1959.
2. Г.А. Арандаренко. Досуги в Туркестане. СПб., 1889.

3. В.В. Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. Справочная книжка Самаркандской области. Самарканд, 1902.
4. В.В. Бартольд. Туркистан в эпоху монгольского нашествия, ч. II, 1900.
5. А.И. Тереножкин. Археологическая рекогносцировка и западной части Узбекистана \\\ ВДИ, М., 1947.
6. Л.В. Дунин-Барковский. Древний канал Иски-Ангор и его современное использование, 1950.
7. С.К. Кабанов. Археологические наблюдения на строительстве Иски-Ангарского канала \\\ ИМКУ. Вып. 1, Ташкент, 1959.
8. М.Д. Джуракулов, Н.А. Аванесова. Новые исследования по Сазаганскому поселению \\\ ИМКУ, вып. 19. Ташкент, 1984.
9. Нуробод тумани сув хўжалиги бўлими (НТСХБ), № 21, 2011.
10. Свод памятников археологии Советободского района Сам. обл. Архив Института археологии АН РУз. Ф. 4, О.1, Д. 177.
11. А.Э. Бердимуратов, С.С. Суюнов. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда Археологик тадқиқотлар, 2010–2011 йиллар, № 8, Самарқанд, 2012.

ARAB OTA MAQBARASI – ILK ISLOM ME'MORCHILIGINING NOYOB NAMUNASI

*Yunusov M.A. –
“Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti
O‘zbekiston me’moriy yodgorliklari
bo‘limi mudiri, PhD.*

VII asrda Arabistonda yuzaga kelgan islom dini keyingi bir necha asrlarda keng tarqaldi. Tez orada Arab xalifaligi nomini olgan davlat G‘arbda Marokashdan Sharqda Hindistongacha cho‘zilib, butun Shimoliy Afrika va Pereney yarim orolini qamrab oldi. Ilm-fan taraqqiyoti bilan qurollangan ushbu saltanat o‘zi bilan birga mavjud qurilish usullari, shuningdek Sosoniylar va Vizantiya imperiyalaridan ilhomlangan va Rim me’morchiligining kuchli ta’siri ostida shakllangan yangi me’morchilik turini yoyilishiga xizmat qildi. Qurilish va bezashning ushbu yangi usuli asrlar davomida rivojlanib bordi. Bu bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklar va qabrlar misolida, islom me’morchiligining ko‘plab elementlari va xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Islom obidalari ichida keng tarqalganlaridan biri bu–shubhasiz maqbaralardir. Ularni kuzatar ekanmiz o‘rta asr maqbaralariga nisbatan yagona qoida yoki yo‘l-yo‘riq yo‘qligini ko‘ramiz. Darhaqiqat, xalifalikning ulkan hududidagi turli mintaqalarda turli davrlarda maqbaralarning turli xil me’moriy echimlari mavjud edi. O‘rta Osiyoda deyarli barcha davrlarga xos islom obidalari mavjud. Bu esa o‘rta asrlardagi islom maqbaralari evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

Xo‘sh, o‘rta asr islomiy maqbaralar va yodgorliklar me’morchiligini qanday asosiy elementlar ajratib turadi?

Hech kimga sir emaski, maqbaralar me’morchiligi uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Islomning birinchi asrlarida maqbaralar keng tarqalmagan, ular dinda chuqur ildiz otmagan, maqbara qurish nokamtarlik hisoblangan. Islomning ilk davrlarida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) va u kishining do‘stlari, shuningdek muhim arboblarning uchungina maqbaralar qurilgan.

O‘rta Osiyoda islomgacha bo‘lgan davrda ko‘mish udumlari din bilan bog‘liq bo‘lib, hududda keng tarqalgan dinlardan zardo‘shiylik

va buddaviylikda maqbaralar bo'lmagan. Biroq, keyinchalik xalifalik hududiga kiritilgan hududlarda, masalan Suriyada nasroniylik martiri-riumlari, O'rta Osiyodagi ko'chmanchi turkiy xalqlarda maqbaraning primitiv ko'rinishiga o'xshash inshootlar, qo'rg'onlar mavjud edi. Islomning ilk davrlarida maqbaralar kam uchrasada, yuqorida ko'rsatib o'tilgan "maqbara"lardan ilhomlangan musulmonlar ham "mozor" yoki "mashhad" deb atalavunchi dastlabki islom maqbaralarini qurishni boshlashadi. Bu jarayon vaqtlar o'tishi bilan takomillashib, maqbaralar islom jamiyati va me'morchiligining muhim qismiga aylanadi. Ayniqsa O'rta Osiyoda maqbaralar masjiddan keyin eng mashhur bino turiga aylanadi.

Dastlabki vaqtda maqbaraning ikki turi yuzaga keladi. Birinchisi qabr minorasi bo'lib, bunga yorqin misol tariqasida Erondagi XI asrda qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan Kabus minorasini (Gunbadi Kobus) keltirish mumkin. Bunday qabr minoralari shu yerga dafn qilingan deb hisoblangan shaxs qabrini ajralib turishiga imkon bergan.

Ikkinchi turdagi maqbaralar olamga qiyos qilingan, kvadrat shaklidagi gumbazli maqbaralardir. Somoniylar maqbarasi bunday inshootlarning ilk namumasidir. Bunday tuzilishdagi binolar dizaynining asosiy elementlari sifatida tuynuklar, arkalar, portallar va burchak ustunlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur elementlardan tashqari tashqi me'moriy bezaklar ham mazkur davr maqbaralariga xosdir.

Somoniylar maqbarasi bilan deyarli bir vaqtda bunyod etilgan, ammo mahobatli kirish portaliga ham ega bo'lgan ilk islom davri maqbarasi bu Arab otadir. Arab ota Samarqand viloyati Nurobod tumani Tim qishlog'ida joylashgan O'rta Osiyodagi ilk islom obidalaridan. Mazkur gumbazli maqbara somoniylar saltanati davrida qurilgan bo'lib, islom me'morchiligining uchta muhim xususiyatini o'zida mujassam etgan dastlabki obidalaridan hamdir. Ya'ni maqbara ham muqarnas, ham mehrob va ham peshtoq mavjud bo'lgan ilk islom obidalaridan. Arab ota maqbarasida mehrob bunyod etilganidan keyin shu davrdan boshlab maqbaralarda mehroblar bunyod etish keng tarqala boshlaydi. Maqbaradagi islom me'morchiligining asosiy qismiga aylangan peshtoq eng qadimgi namunalardandir. Peshtoq XI–XII asrlardan saljuqiylarning ko'p gumbazli maqbaralarida yanada taraqqiy etgan.

Maqbara Zarafshon tog'larining chekka Tim qishlog'i hududida, Buxorodan keladigan yo'lning janubida joylashgan, o'lchami 8 metrga

8,7 metr bo'lib, g'ishtdan qurilgan deyarli kvadrat shaklidagi binodir. Peshtoqdagi yozuvlar qisman saqlanib qolgan. Yozuvning yo'qolgan qismi bu yerga dafn qilingan marhumning ijtimoiy mavqei, tug'ilgan sanasi va o'limi haqida ma'lumot bergan bo'lardi ehtimol. Kvadrat shaklidagi binoning o'zida maqbarani o'rab turgan burchak ustunlari mavjud. Eshikdan maqbaraga kirib borar ekansiz, tepasida gipsdan bir-biriga uyg'un qilib ishlangan yulduz naqshlari bilan bezatilgan ikkita ustun ustidagi qirrali ark mavjud. Ark tepasida gipsdan geometrik naqshlar bilan bezatilgan uchta bo'shliq bor. Maqbaraga kirish eshigi qarshisida inshootning mehrobi joylashgan.

Maqbara dastlab hududda qidiruv ishlarini olib borgan professor X.M.Abdullaev boshchiligidagi geologik guruh tomonidan qayd etiladi. Shundan so'ng 1958-yilda hududni geografik o'rganish bilan shug'ullanayotgan professor N.I.Leonov binoni suratga olib, Samarqand muzeyi va Samarqand arxeologik ekspeditsiyasiga xabar beradi.

Bino portalidagi yozuvni dastlab professor M.E.Masson o'qib, binoning qurilgan sanasini-hijriy 367-yil, ya'ni milodiy 977–978-yillarni aniqlagach, ilmiy doiralar orasida maqbaraga qiziqish yanada ortadi. Shundan so'ng, 1960-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti Timga kichik ekspeditsiya guruhini yuboradi. Uning tarkibiga G.Pugachenkovadan tashqari arxitektor P.Zohidov va O'zbekiston Respublikasi Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish qo'mitasi fotografi E.N.Yuditskiy kiritilgan edi. Tim maqbarasi va uning yonida joylashgan masjidning o'lchovlari, eskizlari va fotosuratlari, shuningdek, Ostonabobo maqbarasi joylashgan hududdagi me'moriy inshootlar ekspertizadan o'tkaziladi. Qo'shimcha strukturaviy-stratigrafik ma'lumotlar olish maqsadida 1961-yilda San'atshunoslik instituti xodimi B.Turg'unov maqbaraning shimoliy-sharqiy burchagida shuruf qazadi. Bu esa uning poydevor tuzilishini aniqlashda yordam bergan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 3 metr chuqurlikda poydevor ostida 60 sm. qalinlikda tuproq yotqizilgani ma'lum bo'ldi. Poydevor balandligi 2,4 metr bo'lib, devorlari g'isht bilan qoplangan.

Aholi maqbarani Arab ota mozori deb ataydi. Biroq bu yerga kim dafn etilganligini bilishmaydi, u bilan bog'liq afsonalar mavjud emas. Maqbara aholi tomonidan hurmat qilinadi, ziyorat qilinadi, lekin aholi ongida maqbara bilan bog'liq hech qanday shaxs kulti shakllanmagan.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

Afsuski, portalda bitilgan yozuvning saqlanib qolgan qismida dafn etilgan shaxs haqida ma'lumot mavjud emas (1-rasm).



1-rasm.

G.A. Pugachenkovaning fikricha, O'rta Osiyo hududiga islom dini kirib kelgan davrdagi ko'zga ko'ringan arab bosqinchilaridan biri qabri ustiga qurilganligi uchun Arab ota deb ataladi degan noaniq g'oyani ilgari suradi. Maqbara peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlarga ko'ra u Nuh ibn Mansur nomidan hijriy 367-yilning rabbi ul avval oyida, ya'ni 977-yil oktyabr-noyabr oylarida bunyod qilingan.

Maqbara bir xonadan iborat, kirish portal va gumbazga egadir. Uning asosiy fasadi shimolga qaragan. Binoning burchaklari sakkiz burchakli ustunlar bilan mustahkamlangan, biroq janubi-g'arbiy qismi saqlanib qolmagan. Kvadrat shaklidagi xona devorlarining to'rtburchaklari, uning ustida o'tish elkanlari bo'lgan sakkizburchak va yuqorida sharsimon – konusli shift bilan tugaydi. G'ovaklarning yaruslari o'zgacha, devorlarning o'qlarida uch bo'lakdan iborat bo'shliqlar mavjud bo'lib, burchaklarida ikki qavatli tuzilmalar bor. Ichki devorlari ganch bilan ishlangan, ustiga qo'sh g'ishtdan ishlangan o'ymakorlik namunasi saqlangan.

Maqbaraning tashqi bezaklari bezakli g'isht va ganch o'yimakorligi uyg'unligi asosida yaratilgan. Yo'qotishlarga qaramasdan kirish portalidagi bezaklar yaxshi saqlangan. Maqbara qurilishi uchun 23-23,5x23-23,5x4 sm o'lchamdagi to'rtburchakli pishgan g'isht ishlatilgan. Bino qiyalikda joylashgan va shuning uchun uning poydevorining g'arbiy tomoniga katta tosh yotqizilgan. Maqbaraning ichki qismi 5,6x5,6 metrni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Arab ota maqbarasi O'rta Osiyo va umuman islom me'morchiligini rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Maqbara peshtoqdan foydalanishning eng qadimgi namunasi hamdir. Ushbu me'moriy xususiyat saljuqiylar davridan temuriylargacha bo'lgan keyingi islomiy inshootlarning o'ziga xos xususiyatiga aylanib, ulug'vor, monumental kirish joyiga aylandi.

Maqbarada muqarnasning eng qadimgi namunalaridan biri – bir qancha chuqurchalar yoki stalaktitga o'xshash dekorativ bezak mavjud. Dastlab kvadrat xonadan gumbazga o'tish uchun strukturaviy element sifatida ishlatilgan muqarnas keyinchalik ko'plab islom binolarida sof dekorativ elementga aylandi. Makka tomonni ko'rsatib turuvchi devordagi yarim doira shaklidagi mehrob ham islom me'morchiligidagi ilk namunalardan biridir. Binoning qurilishi yuqori darajadagi texnik mahorat bilan olib borilgan. U pishgan g'ishtdan qurilgan va g'isht hamda gipsda ishlangan murakkab dekorativ naqshlar bilan bezatilgan.

Ta'kidlab o'tilganidek, maqbara nima uchun Arab ota deb atalishi xususida aniq to'xtam mavjud emas. Fikrimizcha, bu yerga mintaqada islomni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan, ehtimol yuqori martabali amaldor yoki avliyo dafn etilgan bo'lishi mumkin.


Ayni vaqtda qadimgi karvon yo'llari yaqinidagi tepalikda qad rostlagan maqbara islom dinining O'rta Osiyoga tarqalishining moddiy manbasi hamdir. Bu X asrda hududda yangicha dafn marosimlarining paydo bo'lishi, oddiy qabrlardan tortib muhim shaxslar uchun qurilgan murakkab me'moriy echimlarga ega bo'lgan maqbaralargacha bo'lgan dafn amaliyotidagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi.

Va nihoyat, maqbaraning ming yildan ortiq vaqt davomida saqlanib kelishi bir tomondan mahalliy me'moriy an'analarning uzluksizligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan hududdagi islomgacha bo'lgan qurilish uslubining yangi islomiy shakllar bilan aralashuvidan dalolat beradi. Yana bir masala. Maqbara markazdan uzoqda joylash-


ganligi uning asl qiyofasini saqlab qolishga yordam bergan. Aynan mana shu jihat uni qadimiy buyumlar savdosi avj olgan XIX–XX asrlar chegarasidagi talon–tarojdan saqlab qolgan. Bu esa maqbarani Oʻrta Osiyoning oʻziga xos meʼmoriy uslubining shakllanishi va rivojlanishini oʻrganish uchun qimmatli manbaga aylantirdi.

Adabiyotlar:


1. Alastair Northedge. Akyrtas, Early Islamic Architecture in Central Asia, and its Near Eastern Models. Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna PP.735-749
2. Robert Hillenbrand, Islamic Architecture. 1994 Published by: Edinburgh University Press Pages: 656
3. Зоҳидов П.Ш. Могила Тима Ташкент-1987. С.4.
4. Кочнев Б.Д. Новое о мавзолее Араб-Ата в Тиме. Строительство и Архитектура Узбекистана, 1981г., №8
5. Леонов Н. И. Мавзолей X в. в Зеравшанской долине. - СА, 1960. - №4. - С. 194.
6. Пугаченкова Г.А. Мавзолей Араб-Ата. Искусство зодчих Узбекистана. вып. II., Ташкент, 1963 г.




1-rasm. Maqbaraning yon fasadi.



2-rasm. Maqbara rejasi.



3-rasm. Maqbara qirgimi.



4-rasm. Maqbaraning bosh fasadi – kirish portali.

JOM – SO‘G‘D VA XUROSON SAVDO – KARVON YO‘LINING CHORRAHASIDA

*Indiaminova Sh.A. –
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Buyuk Ipak yo‘li qadimdan xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirgan eng muhim transkontinental yo‘llardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘l nafaqat savdo, balki madaniyat, din, texnologiya va turmush tarzi almashuviga ham xizmat qilgan. Bu yo‘l bo‘ylab joylashgan shaharu qishloqlar o‘z davrida yirik madaniyat va iqtisodiy markazlarga aylangan. Ana shunday maskanlardan biri– Jom, So‘g‘d va Xuroson o‘lkalarini bog‘lovchi muhim chorrahada joylashgan edi.

Strategik qulay jug‘rofiy manzilda joylashgan Jom qishlog‘i qadimdanoq Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim punktlardan biri hisoblanadi. Bu fikrni tarixiy manbalar hamda Jomdan topilgan arxeologik ashyolar ham isbotlaydi. So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Samarqand shahrining yoshi 2750-yil, Qarshi shahrining yoshi 2700-yil va Buxoro shahrining yoshi 2500-yil ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston–Fransiya qo‘shma ekspeditsiyasi a‘zolari shu vaqtga qadar Ko‘ktepa va Afrosiyobda topilgan materiallarni qayta tahlil qilish orqali Samarqand shahrining shakllanish davri 3000-yilga teng ekanligi borasidagi fikrni ilgari surmoqda. Qayd qilinishicha, miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida, ya‘ni bundan 3000 ming yil oldin bu yerda shahar hokimi qarorgohi va ibodatxonani o‘z ichiga olgan yirik shahar shakllangan. Albatta, bu shaharlar savdo karvon yo‘llari orqali o‘zaro bog‘langan edi. Xo‘sh, bu karvon yo‘li qaysi manzillar orqali o‘tgan?

Tarixiy manbalar, jumladan, arab va fors muarrixlari o‘z asarlarida Xuroson, Balx, Hirot, So‘g‘d va Movarounnahr oralig‘idagi savdo yo‘llari haqida batafsil ma‘lumotlar bergan. Bu manbalarda Jom orqali o‘tgan karvon yo‘llari haqida eslatmalar uchraydi. Jumladan:

Al-Istaxriyning "Kitab al-Masalik va'l-Mamalik" asarida Jom Xuroson bilan Movarounnahr oralig‘ida joylashgan muhim tarmoq punktlaridan biri sifatida tilga olinadi.

Ibn Havqal Jom yaqinidagi hududlar orqali harakat qilgan karvonlar haqida to'xtaladi va ularning savdo, madaniyat almashinuviga ta'siri haqida yozadi.

Ma'lumki, Samarqand shahri Kitob, Shahrisabz va Qarshi shaharlari bilan Urgut tumanidagi Taxti Qoracha dovoni orqali o'tgan yo'l bilan bog'langan. Nisbatan qisqa bo'lgan bu yo'l qish oylarida karvonlar uchun xavfli bo'lgan, shu sababli, karvonlar asosan, Jom qishlog'i orqali qatnaganlar. Jom qishlog'ida yo'l uch tomonga bo'lingan. Jom qishlog'ini kesib o'tgan bir yo'l tog' orqali Kesh–Shahrisabz va Kitob tomonga yo'nalgan. Jomdan janubiy tomonga yo'l olgan savdo karvonlari G'uzor va Temir darvoza orqali Xurosonga etib kelganlar Jomdan g'arb tomonga yo'nalgan bir shahobcha esa Buxoro tomonga yo'l olgan. Ammo Samarqand bilan Buxoroni bog'laydigan asosiy savdo karvon yo'li Zarafshon daryosi yoqalab o'tgan bo'lib, bu yo'l tarixiy manbalarda "Shoh yo'li", deb atalgan.

Jom orqali o'tgan savdo karvon yo'li antik davrlardayoq shakllangan deyishga asos bor. Bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Jomda tosh davridan tortib so'nggi o'rta asrlargacha yodgorliklar saqlanganligini ko'rsatmoqda.

Jom qishlog'idagi Galasherik yodgorligida bronza davriga oid noyob boltachalar, kamon o'qlari va har xil zargarlik buyumlari topilgan edi.

Bu yerdan topilgan noyob arxeologik ashyolar to'g'risidagi maqola Germaniyada nashr etiladigan "Eron va Turon" jurnalida 2001–yili chop etilgan. Jom qishlog'i hududida 2005-yili O'zbekiston–Italiya xalqaro ekspeditsiyasi ham tadqiqot ishlarini olib borgan. Galasherik, O'rtabuloq va Jar kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar bu manzilgohlarda 3200–3500-yillar ishgari odamlar istiqomat qilganliklarini isbotladi. Bundan tashqari Jom qishlog'i hududidan o'ta noyob tangalar ham topilganligi ma'lumdir.

Markaziy Osiyoda qadimiy savdo yo'llari va madaniy aloqalarining mavjudligi faqat tarixiy yozma manbalar orqali emas, balki arxeologik topilmalar orqali ham o'z isbotini topadi. Ayniqsa, tanga–numizmatik yodgorliklar – tarixning aniq davrini, siyosiy hokimiyat, iqtisodiy aloqalar va madaniy ta'sirlar haqida qimmatli ma'lumot beradi.

1999-yilning yozida tarix fani o'qituvchisi Abdumannon Yorqulov Jom qishlog'ining Xaprin mahallasidan kumush tanga topib

oladi. Bu tanga O‘z R FA Arxeologiya instituti olimlariga ko‘rsatilganida bu tanga tetradraxma bo‘lib, salavkiylar saltanati podshosi Antiox I–Soter tomonidan zarb qilinganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu tanga yaxshi saqlangan bo‘lib, diametri 25 mm. ni tashkil etadi. Tanganing old tomonida boshiga toj kiygan hukmdorning yon tomondan ko‘rinishi aks ettirilgan. Tanganing orqa tomonida Apollon ma’budining taxtda o‘tirgan holati aks ettirilgan. Ma’bud o‘ng qo‘lida kamon va chap qo‘lida o‘q ushlab turibdi. Tanganing oldi va orqa tomonlarida yunoncha yozuvlar mavjud.

Ushbu tanga hozirga qadar Sug‘diyona hududidan topilgan yunon tangalarining eng noyobi hisoblanadi. Shu o‘rinda bu tanga qaysi yo‘llar bilan Jomga kelib qolgan? –degan haqli savol paydo bo‘ladi. Ma’lumki, Iskandar Zulqarnaynning vafotidan so‘ng (miloddan avvalgi 323-yili) uning imperiyasi uch qismga bo‘linib ketadi. Imperiyaning Osiyo qismi Iskandarning yaqin safdoshlaridan biri, sarkarda Selevk qo‘liga o‘tadi. Shu tariqa selevkiylar davlati tashkil topadi. Otasi Selevkning vafotidan so‘ng uning o‘rniga o‘g‘li Antiox I – Soter (280-261-yillar) taxtga o‘tiradi.

Ma’lumki, Antiox I – Soterning onasi so‘g‘d ayoli Apama bo‘lib, u yunonlarga qarshi kurashgan so‘g‘d bahodiri Spitamenning qizi edi.

Antiox onasining yurti bo‘lgan Sug‘diyona alohida e’tibor qaratganligi, bu yerda savdo-sotiqning rivojiga g‘amxo‘rlik qilgani ma’lum. Shu sababli, ushbu noyob kumush tanga savdo karvonlari orqali Jom qishlog‘iga kelib qolgandir. Bu tanga orqali biz Jom hududining miloddan avvalgi III asrlardayoq xalqaro savdo yo‘llariga ulanib, madaniyatlar chorrahasida joylashganini isbotlovchi tarixiy asosga ega bo‘lamiz.

Nurobod tumani qisman tog‘li hududlardan tashqari asosan cho‘l va dasht hududlardan tashkil topgan bo‘lsada, lekin Buyuk Ipak yo‘lining rivojida munosib hissa qo‘shgan. Xususan, Tim qishlog‘idan Buyuk Ipak yo‘lining muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri o‘tgan, ya’ni Samarqanddan chiqqan savdo karvonlari Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Dobusiya orqali Qoracha tog‘laridagi buloq suvlaridan bahramand bo‘lib, Changalli, Ostona bobo qishloqlari orqali Tim qishlog‘iga etib kelgan va so‘ngra janub tomonga Qarshi, g‘arb tomonga esa Buxoro tomon o‘z safarlarini davom ettirganlar. Bu xalqaro savdo yo‘lining ikkinchi tarmog‘idan esa karvonlar Jom qishlog‘i orqali bir tarafi Sazag‘an, Tepaqul qishloqlari bo‘ylab Samarqandga,

ikkinchi tomoni Qarshi, Kesh, Kitob, Sangirtepa bo‘ylab Termizga va boshqa janubiy viloyatlarga yo‘l olganlar.

Olimlar tomonidan “Jom” so‘zining kelib chiqishi turlicha talqin qilinadi. Ayrim fikrlarga ko‘ra:

“Jom” – forsha “jam” (جام) so‘zidan olingan bo‘lib, “idish”, “kosacha”, ba‘zan esa ramziy ma’noda “markaz”, “majlis” degan ma’nolarni bildiradi.

Ammo boshqa bir nazariyaga ko‘ra, bu so‘z “Yom” shaklidan fonetik o‘zgarish orqali hosil bo‘lgan bo‘lib, qadimgi turkiy-tojik adabiyotda “yomxona” yoki “yom”–karvonlar to‘xtaydigan, dam oladigan maskan, karvonsaroy ma’nosini bergan.

Bu talqin shuni anglatadiki, Jom savdo yo‘llari bo‘ylab harakat qilgan karvonlar uchun asosiy tranzit va dam olish manzili bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, tog‘li va murakkab rel’efga ega mintaqalarda bunday karvonsaroilar har 20-30 km da bir joylashgan. Bu yondashuv tarixiy – geografik mantiqqa to‘liq mos keladi, chunki qadimiy savdo yo‘llari ustidagi qishloq yoki shaharlar ko‘pincha o‘z nomini aynan funksional vazifasidan olgan.

Qishloqning pastki qismida joylashgan Kattatepa nomli yodgorlik o‘z bag‘rida juda ko‘p sirlarni asrab kelmoqda. Kattatepa daryo yaqinida, tog‘li yo‘l kesishmalarida joylashgan, tepalik tabiiy balandlik bo‘lib, himoya vazifasini bajargan. Undan keramika parchalari, qumtosh va pishiq g‘isht izlari topilgan.

Kattatepa qadimiy qarorgoh (qo‘rg‘on), karvonsaroy yoki zar-dushtiy ibodatxonasi bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Bu yodgorlik miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmi yoki milodiy ilk asrlarga taalluqli bo‘lish ehtimoli mavjud. Ayni tepalik Jom qishlog‘ining nomi va vazifasiga tarixiy asos bo‘lishi mumkin.

Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy chorrahasida joylashgan Jom qishlog‘ining yurtimiz o‘tmishida alohida ahamiyati bor.

Jom qishlog‘i strategik jihatdan juda muhim geografik nuqtada joylashgan. U orqali o‘tgan karvon yo‘llari butun Markaziy Osiyo savdo–siyosiy tizimini birlashtirgan. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida aytish mumkinki, Jom qishlog‘i–nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy transport va madaniyat chorrahasi bo‘lgan.

Bu manzil orqali harakatlangan savdo karvonlari asrlar davomida shaharlararo iqtisodiy hamkorlik va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlab kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010–2011 йиллар, 8 сони. Самарқанд, 2012. 6. 90–100.
2. А.Э.Бердимуродов., С.С.Суюнов, Х.Я. Сориёв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1–том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2–қисм. –Самарқанд: “Zarafshon”, 2015. 6-7 бетлар.
3. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк Ипак йўли. Тошкент 2017.
4. Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля // Труды САГУ. Том IV. Археология Средней Азии. Ташкент, 1954.
5. Ибн Хавқал. Китоб сурат Ал-Ард. Тошкент, 2011.
6. Луний Б.В. О нумизматической коллекции узбекского собирателя древностей Акрама Аскарова (по архивным данным) // ИМКУ, вып. 5. Ташкент, 1964 .
7. Soriyev X.Y., Botirov I.R. Nurobod ham qadimiy maskan. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. 12\3-2024
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.6 –Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004.

ABG‘AR RUSTOQINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA LOKALIZATSIYASI

*Sandiboyev A.N. – Madaniy meros agentligi
Samarqand arxeologiya instituti
katta ilmiy xodimi, PhD.*

*Botirov I.R. – Nurobod tumani
47–umumta’lim maktab o‘qituvchisi*

Izoh: Mazkur maqolada Samarqandning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Abg‘ar rustoqining joylashuvi va topografiyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Abg‘ar Temuriylar davrida Anhor tumani deb atalib, u hozirgi Nurobod tumani hududida joylashgan. Rustoqning markazi sifatida Sariqultepa (Imomtepa), uning Xoru’un qishlog‘i Xafrin (Kattatepa) bilan lokalizatsiya qilingan. Shuningdek, rustoqqa qarashli bo‘lgan Taxsija qishlog‘i hozirgi Jomdagi Taxti Iso manzili bilan bog‘lanishi borasidagi ilmiy mulohazalar tahlil qilinadi.

Samarqand Sug‘di tarixiy-geografik jihatdan Zarafshon vohasi-ning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, shimol tomondan G‘o‘bdin, Oqtog‘, Qoratog‘, janubdan Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin kabi uncha baland bo‘lmagan tog‘lar bilan o‘ralgan. Voha sharqdan g‘arbga qarab pasayib boradi va janubi-g‘arbiy tomondan Qizilqum tekisligiga qo‘shilib ketgan. Shuningdek, vohaning o‘rtasidan Zarafshon daryosi oqib o‘tadi⁴¹.

Tarixdan ma’lumki, Zarafshon vohasining Panjikentdan Karmana tumanigacha bo‘lgan hududlari Markaziy Sug‘d tarkibiga kirgan. Karmanadan g‘arbda joylashgan tumanlar G‘arbiy Sug‘dni, Qashqadaryo vohasi esa Janubiy Sug‘dni tashkil etib, uning yuqori hududlari Kesh, o‘rta va quyi hududlari esa Naxshab deb yuritilgan.

IX-XII asrlarga oid arab manbalarida Samarqand Sug‘diga qarashli bo‘lgan rustoqlar (Bunjikent, Varag‘sar, Shovdor, Maymurg‘, Sanjarfag‘n, Darg‘om, Abg‘ar, Yorkat, Burnamad, Buzmojan, Kابدانjkat, Vidor, Marzubon) va shaharlarning (Ishtixon, Kushoniya, Dabusiya va Arbinjon) nomlari keltirilgan. Shulardan biri – Abg‘ar

⁴¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2002. Б. 675.

rustoqi bo‘lib, u Darg‘om rustoqiga tutashib, uzunligi taxminan ikki marhalani (bir kunlik yo‘l) tashkil etadi. Ba‘zi qishloqlarning maydoni esa ikki farsaxdan ortiqdir⁴². Ibn Havqalning qayd etishicha *“Abg‘ar rustoqining yerlari lalmikor nohiya bo‘lsa ham, uning qishloqlari aholisi jihatidan eng ko‘p bo‘lib, soni Samarqandning boshqa barcha rustoqlariga nisbatan yuqoridir. Aholining asosiy boyligi chorvachilikni tashkil etadi. Bu hududda oqar suv mavjud emas. Menga ma‘lum bo‘lishicha, u yerda bir qafiz⁴³ ekin ba‘zan yuz va undan ortiq qafiz daromad keltirishi mumkin. Aytishlaricha, agar Abg‘arning hosili nobud bo‘lmay butun qolsa, u butun as-Sug‘dga yetarli bo‘ladi”*⁴⁴. As-Samoniyning zikr etishicha, *Abg‘ar rustoqiga qarashli bo‘lgan Xoru‘un va Taxsija kabi qishloqlari mavjud bo‘lib, ular Samarqanddan 5 farsax uzoqlikda joylashgan*⁴⁵.

At-Tabariy esa Abg‘ar hukmdori Xuroson voliyasi bo‘lgan Said ibn Abdalazizning huzurida bo‘lganligi borasida ma‘lumotlar uchraydi⁴⁶. Shuningdek, 104/722–23-yilda Said al-Harashiy sug‘dlarning qo‘zg‘olonini shafqatsiz bostirgani hamda Devashtich yashiringan Abg‘ar qal‘asini qamal qilib, Devashtichni esa Samarqandga qarashli bo‘lgan Rabinjan shahrida qatl etgani borasida ham ma‘lumotlar bor⁴⁷.

Hofizi Abro o‘zining *“Geografiya”* asarida Samarqandga qarashli bo‘lgan tumanlar orasida Anhor nomi ham tilga olgan⁴⁸. Mazkur tuman Samarqandning g‘arbiy tarafida joylashgan bo‘lib, uning janubiy chegarasi Kesh tog‘i etaklarigacha, shimoliy tomoni esa Zarafshon daryosi, g‘arbi cho‘l bilan chegaradosh bo‘lgan⁴⁹. Albatta, turli davrlarda Samarqand tumanlarning nomlari va ularning chegaralari

⁴² Истахрий. Китаб ал-масолик вал-мамалик (Йўллар ва ўлкалар китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. - Тошкент: Фан, 2019. Б. 162.

⁴³ Qafiz = 221,76 m (o‘rtacha 480 qadam).

⁴⁴ Ибн Навқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. Б. 62-63.

⁴⁵ Ас-Самъаний. Китаб ал-ансаб. Важный источник по истории и культуре Средней Азии / Шамсиддин Камолиддин. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2018. С. 196.

⁴⁶ Ат-Табари. История ат-Табари. Избранные отрывки / Пер. с араб. В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Болшакова и А.Б. Халидомирова. -Ташкент, 1987. С. 175.

⁴⁷ Ал-Балозурий. Футух ал-булдон. Хуросоннинг фатх этилиши / Сўзбоши, араб тилидан таржима, шарҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Extremum-press, 2017. Б. 328.

⁴⁸ Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё (тарихий географик лавҳалар). Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Б. 81.

⁴⁹ Абу Тоҳирхожа. Самария / Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи Хуршид Даврон. – Тошкент, 1991. Б. 62; Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самарканского вилаета // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 7. Самарканд, 1902. С. 14.

o‘zgarib turgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Samarqandning g‘arbiy tomonida joylashgan Darg‘om va Abg‘ar rustoqlari temuriylar davrida Anhor tumani deb nomlangan. Rivojlangan o‘rta asrlarda Abg‘ar rustoqi tarkibida hozirgi Nurobod hududlari kirgan. Rustoqni hozirgi Nurobod tumani hududidagi “Yangiyo‘l” mahallasida joylashgan Sariko‘ltepa (Imomtepa) yodgorligi bilan lokalizatsiya qilish mumkin. Mazkur yodgorlik ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat bo‘lib, u hozirda mahalliy aholi qabristoniga aylantirilgan.

Etnografik ma‘lumotlarga ko‘ra, Nurobodning Mehnatkash, Sariko‘l, Jom kabi qishloqlarida XX asrda ham lalmi g‘alla yetishtirilgan va hatto Buxoro, Qashqadaryo aholisi ham ularning g‘allalaridan olishgan.

Abg‘ar rustoqqa qarashli bo‘lgan Xoru‘un qishlog‘i XX asr boshlarida Aprin nomi bilan ma‘lum bo‘lib, u o‘sha davrda Jom volosti tarkibiga kirgan. Hozirda ushbu qishloq Xafrin nomi bilan yuritiladi va Jom qishlog‘i yaqinida joylashgan. Shuni ta‘kidlash lozimki, Jomsoqqa bir qator soylar – Xafrinsoy, Omondara, Kaltasoy, Zindonsoy, Tolli, Ashirbobosoy, Majaksoy, Avliyash, Otayorsoy va Dug‘obsoylar kelib qo‘shiladi. Manbalarda keltirilgan Xoru‘un qishlog‘ining markazi Xafrin yaqinidagi Jomsoyning chap tomonida joylashgan Kattatepa yodgorligi bilan lokalizatsiya qilish mumkin. Yodgorlikning to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, o‘lchami 170x320 m. Yodgorlikning ark qismi tepalikning markaziy qismida, 80x125 m. Yodgorlikda qayd etilgan sopol idishlar V-XIII asrlar bilan davrlashadi.

Ab‘ar rustofiga qarashli bo‘lgan Taxsija qishlog‘ini hozirgi Jomga qarashli Taxti Iso manzili bilan lokalizatsiya qilish mumkin. Iso payg‘ambar (a.s.) nomi bilan bog‘liq “Taxti Iso” toponimi ayrim vaqf hujjatlarida ham uchraydi va u Anhor tumaniga qarashli hudud sifatida qayd etilgan. Mahalliy aholi ushbu joy nomini Iso payg‘ambar taxtgohiga nisbat berib izohlaydi.

Ma‘lumki, xristianlik dini eramiz boshlarida Rim imperiyasining sharqiy qismida shakllanib, ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoga ham kirib kelgan. Sug‘dda, jumladan Samarqandda, milodiy VI asrda xristian mitropoliyasi tashkil etilgani ma‘lum bo‘lib, shu davrdan boshlab aholi o‘rtasida xristianlik ta‘limoti targ‘ib etilgan. Sug‘d hududida xristianlikka oid ibodatxonalar, qabrlar va diniy marosimlarda qo‘llanilgan idishlar topilib, arxeologik jihatdan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, manbalarda sug‘dliklar Zardushtiylilik an‘analari

bilan bog‘liq Tahisnja (yoki Taxisnja) nomli ilohga sig‘inishganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Ushbu iloh “o‘lish va qayta tirilish” tabiatini ifodalovchi xususiyatlari bilan sug‘d diniy tasavvurlari tizimiga mos keladi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Taxsija qishlog‘ining nomi sug‘d ilohlari bilan bog‘liq toponim bo‘lib, keyinchalik uning nomi o‘zgarib “Taxti Iso” deb yuritila boshlagan.

Xullas, Samarqandning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Abg‘ar rustoqi Temuriylar davrida Anhor tumani deb atalib, u hozirgi Nurobod tumani hududida joylashgan. Rustoqning markazi sifatida Sariqultepa (Imomtepa), uning Xoru‘un qishlog‘i Xafrin (Kattatepa) bilan lokalizatsiya qilish mumkin. Rustoqqa qarashli bo‘lgan Taxsija qishlog‘i hozirgi Jomdagi Taxti Iso manzili o‘rnida bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ал-Балозурий. Футух ал-булдон. Хуросоннинг фатх этилиши / Сўзбоши, араб тилидан таржима, шарҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Extremum-press, 2017.

2. Абу Тохирхожа. Самария / Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи Хуршид Даврон. – Тошкент, 1991.

3. Ас-Самъаний. Китаб ал-ансаб. Важный источник по истории и культуре Средней Азии / Шамсиддин Камолиддин. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2018.

4. Ат-Табари. История ат-Табари. Избранные отрывки / Пер. с араб. В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Болшакова и А.Б. Халидомирова. -Ташкент, 1987.

5. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самарканского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 7. Самарканд, 1902.

6. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё (тарихий географик лавҳалар). Тошкент: Ўзбекистон, 1997.

7. Ибн Навқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.

8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2002.

9. Истахрий. Китаб ал-масолик вал-мамалик (Йўллар ва ўлкалар китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019.

ESKI ANHOR IRRIGATSIYA RAYONI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

*Suyunov S.S. – Madaniy meros agentligi
Samarqand arxeologiya instituti
katta ilmiy xodimi*

Nurobod tumani Samarqand viloyatining janubiy chekka hududlaridan biri bo'lib, uni shimoldan Kattaqo'rg'on, Narpay va Paxtachi tumanlari, g'arbdan Navoiy viloyati, sharqda Samarqand va Pastdarg'om tumanlari, janubdan Qashqadaryo viloyati o'rab turadi [1-rasm]. Voha hududining yer tuzilishi asosan yassi tog'lik, tekislik, qir va adirlardan iborat bo'lib, u sharqdan g'arbga tomon pasayib boradi [1. 262].

Hozirgi vaqtda tarixiy rivojlanishning moddiy namunalari bo'lgan manzilgohlar, qishloq turar – joy binolari, qasr, ko'shk va shahar xarobalari hamda ajdodlarimiz faoliyati bilan bog'liq bo'lgan osori-atiqalar, bizgacha oddiy tepaliklar va ularning qa'rida saqlanayotgan ash-yolar ko'rinishida etib kelgan. Shu bois mavjud tepaliklar yoki ilmiy jihatdan aytganda arxeologik yodgorliklar nafaqat vohaning qolaversa, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy tarixini yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Eski Anhor irrigatsiya rayonida insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ilk moddiy manbalar so'nggi paleolit davriga oid bo'lib, u 1999–yilda Hafrinsoyning Qayrag'och degan joyidan, Ibragimovlar oilasi tomonidan topilgan tosh qirg'ich (mayda tosh qurol) qurolidir. Ushbu topilma arxeolog R.H. Sulaymonov tomonidan tahlil qilindi va tosh qurollarni davrlashtirish asosida Jomda 14-12 ming yillar avval ham odamlar yashagan degan fikrga kelindi [2. 7].

Vohaning keyingi tarixiy bosqichi neolit davriga oid bo'lib, bundan 6-4 ming yillar oldingi davrlarga to'g'ri keladi. Bu davr yodgorliklari 1966–1969-yillar oralig'ida Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrası ilmiy xodimlari tomonidan Sazag'onsoy atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlangan. Bu makon neolit davri kishilarining uzoq vaqtli qarorgohi bo'lib, ularning asosiy mashg'ulotlari termachilik va ovchilik bo'lganligi aytiladi [3. 32-41].

Sazag'onda so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida neolit davri yodgorliklarining ustki qatlamlarida bronza davriga oid madaniy qatlamlar borligi ham aniqlandi. Hattoki Eski Anhor irrigatsiya rayonining Jom qishlog'idan bronza davriga oid uchta qadimgi qabrning topilishi tariximiz uchun ham juda katta yangilik bo'ldi. Tadqiqotlar asosida bu qabrlar va ulardan topilgan tarixiy buyumlar, bundan 3500-yillar oldin yashagan ajdodlarimizga tegishli ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, 1999-yilda tarixchi A. Yorqulov tomonidan Jomsoyning chap qirg'og'ida joylashgan tepalikdan topilgan tanga juda noyob arxeologik ashyo bo'lib, u juda yaxshi saqlangan. Tanganing diametri 25,2-25,6 mm ga, qalinligi 4,7 mm ga, og'irligi esa 16,5 gr ga teng bo'lib, uni tangashunos olim K. Abdullaev Antiox I Soter (mil. avv. 268-261) davriga oid ekanligini aniqlagan. [4. 11-13].

Vohada dastlabki arxeologik izlanishlar 1935–1936-yillarda Samarqand shahar muzeyi arxeologi I.A. Suxarev va ilmiy xodim V. Grigorevlar tomonidan olib borilgan. Ular Sazag'on va Oqsoy qishloqlarida saqlanib qolgan bir nechta mozor – qo'rg'onlarni qayd qilgan va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritgan [5. 49].

1958–1960-yillarda Eski Anhorning g'arbiy chekka tomonida joylashgan Tim qishlog'ida Sa'natshunoslik instituti ilmiy xodimlari o'rta asr arxitekturasiga xos bo'lgan Arabota (X asr) maqbarasi va Qo'rg'ontepa (V-VI, IX-XII asrlar) yodgorliklarida tadqiqotlar olib borgan. Qazuv tadqiqotlari natijasida Qo'rg'ontepa yodgorligidan olingan arxeologik ashyolar bilan birga toza ichimlik suvini olib kelish maqsadida o'rnatilgan sopol quvurlar inshooti ham aniqlangan [6. 3-9].

1963–1967-yillarda arxeolog I.A. Suxarev tomonidan qayd etilgan mozorqo'rg'onlarda O.V. Obelchenko qazuv tadqiqotlari olib borgan. O'rganishlar asosida qo'rg'onlarning IV-V asrlarga oid ekanligi aytilgan [7. 66-81].

Ko'p yillar davomida Samarqand vohasining janubiy qismida joylashgan Eski Anhor vohasining o'tmishiga daxldor bo'lgan arxeologik yodgorliklarini o'rganish qadimshunos olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin voha yagona bir tizim asosida o'rganilmagan. Shu sababli yuqoridagi tadqiqotlarni umumlashtirish hamda Eski Anhor irrigatsiya rayonining arxeologik yodgorliklar majmuasini qilish

maqsadida, 2011-yilning yoz oylarida O‘zR FA Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari tomonidan izlanishlar olib borildi. Hududda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Eski Anhor irrigatsiya rayonida 50 ta arxeologik yodgorlik aniqlanib xaritaga tushirildi [2-rasm].

O‘rganilgan yodgorliklarning asosiy qismi Eski Anhor irrigatsiya rayonidagi Kattatepa shahar xarobasi hamda Boysaritepa shahar xarobasi atrofida jamlanganligi kuzatildi va ularning topoplanlari chizildi.

Qayd etilgan yodgorliklarning 3 tasi antik davrga oid bo‘lib, ular Kultepa, Kattatepa va Boysaritepa yodgorliklaridir. Mavjud irrigatsiya rayonida ilk o‘rta asrlarga oid 21 ta yodgorlik aniqlandi. Ular, Imomtepa, Ulustepa, Sailtepa, Kechkeldiktepa 1, 2, 3, Ajrimotatepa, Saritepa, Beshqoltepa, Qo‘rg‘ontepa, Kichikqo‘rg‘ontepa, Sazag‘on 1, 2, 3, 4, 6, Qo‘chqorotatepa va Eshottepa yodgorliklaridir.

Vohada rivojlangan o‘rta asrlarga oid 10 ta yodgorlik qayd etildi. Ular Qo‘rg‘ontepa, Kattatepa, Arabota, Tepaqultepa, Ibrohimota, Rabbottepa, Sazag‘on 4, Yettitepa 5, Singilbuloqtepa va Avliyobobotepa yodgorliklaridir.

So‘nggi o‘rta asrlarga oid 3 ta yodgorlik qayd qilindi. Ular Qo‘rg‘ontepa, Oqmasjid va Abdullaxonrabod yodgorliklaridir [8. 132].

Bundan tashqari, Eski Anhor irrigatsiya rayonida 11 ta mozor-qo‘rg‘onning o‘rni aniqlanib ro‘yxatga olindi va xaritaga tushirildi. Shu bilan bir qatorda tumanning tog‘ oldi hududida, 3 ta joyda qoya tosh rasmlari ham topildi. Ushbu voha yer tuzilishiga ko‘ra, sharqdan g‘arbga tomon pasayib boradi. Qarnab cho‘lining ma‘lum bir qismi vohaning g‘arbiy tomonini egallagan bo‘lib, u yerda biror bir yodgorlik yoki eski o‘zan aniqlangan emas.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ilk o‘rta asrlarda vohada ikki xil madaniyat turmush tarziga oid o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvadorlarning moddiy-madaniy xususiyatlarini o‘zida yanada yaqinlashuvi hamda etnik jihatdan aholi aralashuvining kuchayganligini ko‘rish mumkin. Masalan, Eski Anhor kanali, Ravotlik arig‘i, Sazag‘onsoy, Ingichkasoy va Tepaqulsoy havzalarida aholining o‘troqlashuv jarayoni miloddan avvalgi II-I asrlardan boshlab ro‘y beradi. Yodgorliklardan topilgan arxeologik ashyolarning tahlili ham vohaga janubiy So‘g‘d madaniyatining ta’siri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday ma‘lumotlar arxeolog S.K. Kabanov olib borgan tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan [9. 180].

Demak, vohada milodiy eraning boshlarida aholining o'troqlashish jarayoni boshlangan. Bu jarayonlarning yanada o'sganligini ilk o'rta asr yodgorliklaridagi tadqiqotlarda ham ko'rish mumkin. Masalan, vohada o'troqlashgan aholi sonining ortganligini, o'rganilgan yodgorliklarning aksariyat qismi ilk o'rta asrlar oid ekanligidan ham bilish mumkin.


Vohada islom dini qaror topgandan so'ng ayniqsa somoniylar, so'ngra qoraxoniylar hukmronligi davrida butun Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida bo'lgani kabi asosan qishloqlarda o'troqlashgan aholi sonining kamayishi, lekin yiriklashgan shaharlar sonining ortganligi kuzatiladi. Masalan, Eski Anhor irrigatsiya rayonidagi o'rta asrlarga oid shahar ko'rinishidagi Kattatepa va Ulustepa yodgorliklari hamda o'sha davr turar-joy maskanlari, qal'a ko'rinishida bo'lgan Ibrohimota, Rabodtepa, Sazag'on 4, Yettitepa 5, Singilbuloqtepa yodgorliklarida ham bu holat yaqqol kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, Eski Anhor irrigatsiya rayonida davriy jihatdan olganda, tosh davridan tortib toki bronza, temir, antik, ilk, o'rta va so'nggi o'rta asrlarga oid yodgorliklar borligi kuzatildi.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 6-нашр, 2003.
2. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб, проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. - VII в. н. э. Самарканд-Ташкент, 2000.
3. Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Новые исследования по Сазаганскому поселению // ИМКУ, вып. 19. Ташкент, 1984.
4. Абдуллаев К.А. Нумизматики Центральной Азии. Ташкент, 2000.
5. 5. Сухарев И.А. Отчет об археологической разведке Самаркандской группы районов в 1935-1936 гг. Архив Самаркандского музея-заповедника. Дело. 252., 1936.
6. Зоҳидов П.Ш. Тимдаги мақбара. Тошкент, 1984.
7. Обельченко О.В. Сазаганские курганы // ИМКУ. Вып. 7., Ташкент, 1966.
8. А.Э. Бердимуродов., Суюнов С.С., Сorieв Х.Я., Ўзбекистон археологик ёдгорликлар каталоги 1 том. Самарқанд вилояти 2-қисм Нуробод тумани, "Zarafshon", Самарқанд, 2015. 27-32 бетлар.

9. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасининг суғорилиш тарихи тўғрисида янги маълумотлар. Ўзбекистон моддий маданият тарихи, № 38-нашр, Самарқанд, 2012.



1-rasm. Eski Anhor irrigatsiya rayonining xarita joylashgan o‘rni.



2-rasm. Eski Anhor irrigatsiya rayoni arxeologik yodgorliklar xaritasi.

MARKAZIY OSIYO ILK O'RTA ASRLAR KULOLCHILIGIDA CHANGALLI XUMDONLARINING AHAMIYATI

*Rahimov K.A. – Y. G'ulomov nomidagi
Samarqand arxeologiya instituti
katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi.
Eshnayev E.X. – Nurobod tumanidagi
55-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlarida kulolchilik idishlarini ishlab chiqarishi jamiyatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan bo'lib, bu davrda shahar va qishloq joylardagi aholi uchun zarur bo'lgan kulollik buyumlari tayyorlash nafaqat maishiy ehtiyojni qondirish vositasi, balki hunarmandchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan.

Ilk o'rta asr kulollari mahsulot tayyorlashda turli texnologiyalarni qo'llab, o'z ishlarini kulollik charxi yordamida amalga oshirganlar. Bu esa o'z navbatida mahsulotlarning shakli, sifati va bezak uslubining takomillashuviga olib kelgan. Aynan shu davrda sopol idishlarning turlari ko'paygan, ularning hayotdagi vazifasi va estetik ahamiyati ortib borgan. Kulolchilik mahsulotlarining bezaklari orqali mahalliy aholi madaniyati, urf-odatlar va estetik qarashlari haqidagi ma'lumotlar ham aniqlanadi.

Nurobod tumanidagi Changalli qishlog'ida topilgan kulolchilik xumdonlari ana shu davrdagi an'anaviy ishlab chiqarishning muhim arxeologik dalili hisoblanadi. Ular mahalliy aholining kulolchilik sohasida katta tajriba va malakaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu yerda bir-biriga yaqin joylashgan uchta aylana shakldagi xumdonlar ochib o'rganilgan bo'lib, ularning konstruksiyasi va tuzilishi ikki qavatli, olovxona tomi va pishirish kamerasini tomi gumbazsimon shaklda qurilganligi – bu yerda ishlab chiqarish jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

Xumdonga yaqin atrofdan va shu bilan birga uning olovxonasini qatlamlarida qayd qilingan kulollik idish parchalari yasash texnologiyasi va shakl jihatidan ular ilk o'rta asrlarga, ya'ni V–VII asrlarga tegishli ekanligi kuzatiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu xumdon-

ning ilk oʻrta asrlarda faoliyatda boʻlgan, deb hisoblashimiz mumkin. Mazkur xumdonda kulolchilik charxida yasalgan xurmacha va yogʻlogʻi gardish boʻlaklari qayd etildi va bunday turdagi idishlar ilk oʻrta asrlarda Sugʻdda keng tarqalgan.

Bu yerda ochib oʻrganilgan xumdonlarga yaqin hududdagi jarlikda olib borilgan stratigrafik qirqimda tozalash ishlari natijasida, ushbu qirqimda madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur qatlamlarda soʻnggi antik va ilk oʻrta asrlarga oid kulollik idish boʻlaklari aniqlandi.

Sugʻd hududida qadimgi, yaʼni bronza davriga oid ilk sopol pishirish xumdonlari bronza davriga oid Zomonboba yodgorligida qayd qilingan boʻlib, u ikki qavatli koʻrinishda boʻlganligi taʼkidlab oʻtilgan⁵⁰. A. Isakov tomonidan Sarazm yodgorligida ham xumdon ochib oʻrganilgan va ular ikki kamerali boʻlganligi hamda davriy jihatidan ilk bronza davriga oid ekanligi aniqlangan⁵¹.

Bundan tashqari, eramizdan avvalgi I–minginchi yilliklarning oʻrtalariga tegishli ikki qavatli xumdonlar I. D. Ivaniskiy tomonidan Sartepa manzilgohidan ochib oʻrganilgan⁵².

Yerqoʻrgʻon yodgorligining antik va ilk oʻrta asrlarga oid qatlamlaridan ikki qavatli xumdonlar qayd qilingan⁵³. Qashqadaryo vohasining ilk oʻrta asrlariga oid Isaboytepa yodgorligida ham VII–VIII asrlarga tegishli ikki qavatli xumdon kuzatiladi⁵⁴.

Samarqanddan janubda joylashgan Kofirqalʼa yodgorligining kulolchilik kvartali hududidan ikki qavatli xumdon ochib oʻrganilgan boʻlib, kvartal yodgorlikning sharqiy tomonida joylashgan⁵⁵. Bundan tashqari Jomboy tumanida ham aynan Changalli xumdonlariga oʻxshash ilk oʻrta asrlarga oid ikki qavatli xumdon ochib oʻrganilgan⁵⁶.

⁵⁰ Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. Ташкент, “Fan”. 1966. С. 149-150.

⁵¹ Исаков А. Саразм (к вопросу становления раннеземледельской культуры Зерафшанской долины. Раскопке 1977–1983 гг.) – Душанбе: Дониш, 1991

⁵² Иваниский И.Д. Саратепе–2–поселение керамистов середины I тыс. до н. э. под Самаркандом// ИМКУ. вып. 26. Ташкент, 1992. С. 23-27

⁵³ Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Ташкент, 2000. С. 40-48; 60-70; 113-118

⁵⁴ Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Ташкент, 2000. С. 126-130

⁵⁵ Белениский А.М., Бентович И.С., Болшаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973. С. 49

⁵⁶ Рахимов К.А., Саидов М.М., Эргашев О.Т. Кубаев С.Ш., Сандибоев А.Н. Жомбой туманида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане 2012 гг. Вып. 9. Самарканд, 2013. Б. 85-87.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda sopol idishlar pishirishga ixtisoslashgan xumdonlarning takomillashgan shakli yumaloq shakldagi, ikki qavatli, gumbazsimon shakldagi xumdonlar bo'lib, ular kulollik idishlarini pishirishda qulayligi bilan bir qatorda yoqilg'i mahsulotlarini tejashga ham mo'ljallangan⁵⁷.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, VI-VIII asrlarda O'rta Osiyo hududida o'txonasi pishirish kamerasining ostida joylashgan ikki qavatli aylana shakldagi xumdonlar yoki o'txona va pishirish kamerasi alohida bo'lgan xumdonlar keng tarqalganligini ta'kidlab o'tishganlar⁵⁸.

Changalli qishlog'i hududidan ochib o'rganilgan xumdonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sug'd hududida ilk bronza davrida paydo bo'lgan ikki qavatli xumdonlar an'anasi ilk o'rta asrlarda ham davom etgan. Bu holat kulolchilik hunarining uzviy rivojlanishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Changalli xumdonlari konstruksiya jihatidan Sug'dning boshqa yodgorliklarida ochib o'rganilgan xumdonlarga aynan o'xshash bo'lib, ikki qavatli, gumbazsimon shaklda qurilgan. Bunday tuzilishdagi xumdonlar yoqilg'ini tejash, mahsulotni bir xilda darajada pishirish va haroratni barqaror ushlab turish imkonini bergan. Quyi qavatda yoqilg'i tashlanadigan olovxona qismi bo'lib, u yuqori qismida joylashgan pishirish kamerasiga issiq havo kirishini ta'minlagan. Yuqori qavatda esa sopol idishlar joylashtirilib, ularning barchasi bir xil darajada pishishi uchun olovxona tomiga maxsus havo yo'laklari (kanallar) tizimi qurilgan. Bunday texnik echimlar xumdon qurish borasidagi mahalliy ustalarning tajribasi va amaliy bilimlari yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Xumdonning boshqa yodgorliklardan o'rganilgan xumdonlar bilan qiyosiy tahlilidan kelib chiqqan holda, shuni xulosa qilish mumkinki, Sug'd hududida ilk bronza davrida paydo bo'lgan ikki qavatli xumdonlar ilk o'rta asrlarda ham davom etayotganligidan guvohlik beradi.

Sug'dning ilk o'rta asrlarda markazlashgan kulolchilik hunarmandchiligi bilan birga har bir qishloq manzilgohlar ham o'zining xumdonlariga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Nurobod tumani o'rganilgan xumdonning umumiy maydonini kichik ekanligini

⁵⁷ Сандибоев А.Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. Тошкент-2021.

⁵⁸ Белениский А.М., Бентович И.С., Болшаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973. С. 51

hisobga olib aytadigan bo'lsak, u qishloq manzilgohi uchun xizmat qilganligidan guvohlik beradi.

Nurobod tumanidagi xumdonning kichik hajmli bo'lganligi, uning mahalliy qishloq aholisi ehtiyojiga mo'ljallanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Changalli xumdonida ishlab chiqarilgan kulolchilik buyumlarining sifati Sug'd markazlaridagi ustaxonalarda tayyorlangan mahsulotlar bilan teng darajada ekanligi qishloq ustalarining ham yuqori malakaga ega bo'lganligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Changalli xumdonlari nafaqat mahalliy kulolchilik an'alarining uzluksizligini, balki Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlarda hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Белениский А.М., Бентович И.С., Болшаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973.

2. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная култура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. Ташкент, "Fan". 1966.

3. Иваниский И.Д. Саратеpe-2 – поселение керамистов середины I тыс. до н. э. под Самаркандом// ИМКУ. вып. 26. Ташкент, 1992.

4. Исаков А. Саразм (к вопросу становления раннеземледельской культуры Зерафшанской долины. Раскопке 1977-1983 гг.) – Душанбе: Дониш, 1991.

5.Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Ташкент, 2000.

6. Раҳимов К.А., Саидов М.М., Эргашев О.Т. Кубаев С.Ш., Сандибоев А.Н. Жомбой туманида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане 2012 гг. Вып. 9. Самарканд, 2013.

7. Сандибоев А.Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. Тошкент-2021.

NUROBOD TUMANIDAGI AYRIM ETNOOYKONIMLAR XUSUSIDA MULOHAZALAR

*Yuldashev Jo‘rabek Uralovich –
Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)*

Ma‘lumki, joy nomlari hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o‘simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Bundan tashqari etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma‘lum bir hududda qaysi qabila, urug‘ vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish ham mumkin. Biz ushbu maqolamizda Samarqand viloyatining Nurobod tumani hududidagi ayrim etnooykonimlar xususida mulohaza yuritmoqchimiz.

Nurobod tumani Respublikamizdagi hududiy jihatdan eng katta tumanlardan biri bo‘lib, bitta shahar, o‘nlab mahalla, yuzga yaqin katta-kichik qishloqlardan tashkil topgan. Tuman uzoq o‘tmishga ega Jom, Tim, Saxoba, Sepki, Qo‘rg‘oncha kabi yirik; Ostonabobo, Langar, Kattasoy, Ag‘ron, Oltio‘g‘li, Changali, Qo‘chqorli, Ilonli(hozirgi kunda bu qishloqda aholi yashamaydi), Tortuvli kabi kichik qishloqlarni o‘z bag‘riga olgan. Bu maskanlarning nomlanish sabablari ham turlicha bo‘lib ba‘zilari tarixiy-ijtimoiy, ba‘zilari iqtisodiy-siyosiy va madaniy omillar asosida, boshqalari tabiiy-geografik belgi va xususiyatlarga qarab nomlangan. Yana ba‘zilariga etnonimlar sabab bo‘lgan. Mazkur qishloqlarning tarixi, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida ko‘p fikrlar aytilgan, televideniyeda chiqishlar, radioda eshittirishlar olib borilgan. Ammo hozirga qadar ayrim qishloqlarning nomlanish sabablari to‘g‘risida yanglish, g‘ayriilmiy qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, Olto‘g‘li qishlog‘ining nomlanish sababini mahalliy aholi bir oiladan bo‘lgan olti o‘g‘ilning kelib, uy-joy tiklab yashab qolgan maskani sifatida, Tortuvli etnooykonimini to‘rt aka-ukaning bir hududga kelib joylashishini sabab qilib ko‘rsatishadi. Bundan tashqari aholi orasida Qarg‘ali qishlog‘ining nomlanishiga qarg‘alarni bahona qilib ko‘rsatish, Ilonli qishlog‘iga ilonlarning ko‘pligini vaj qilish holatlari ham bor. Yana bir qadimiy qishloqlardan bo‘lgan, yuqorida nomlari tilga olingan

manzilgohlar bilan yonma-yon joylashgan Qo‘chqorli ota qishlog‘i haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Hatto tumanda yaqin kunlarda nashrdan chiqqan nohiya ziyolilarining “Nurga burkanayotgan Nurobod” kitobida mazkur qishloq haqida quyidagilarni o‘qiymiz: “Qo‘chqorli ota” qadamjosi tumanning Jarquduq qishlog‘iga yaqin joyda tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Bu hududning tabiati go‘zal, havosi sof, iqlimi ajoyibdir. Qadimda ushbu manzil dam olish maskani bo‘lgan. Shu bois bu yerga avliyo kishilar ham kelib turgan. Avliyolar Alloh taolloning sevimli bandasi bo‘lgani uchun ular bu maskanga kelganlarida Alloh taollo ularga har borganlarida bitta qo‘chqor yuborgan. Har juma qo‘chqor tushganida xalq orasida “qo‘chqor tushgan yer”, keyinchalik xalq tilida soddalashib “Qo‘chqorli ota” yoki “Qo‘chqorli bobo” shaklini olgan. Bu mo‘tabar dargoh Markaziy Osiyo xalqlari uchun muqqaddas ziyoratgoh sifatida yaxshi ma‘lum. Rivoyatlarga ko‘ra XII-XIV asrlarda Naqshbandiya ta‘limotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan bo‘lgan avliyolardan birining nomi ham shu manzil nomi bilan bog‘liq [2, 222]. Ushbu kitobda Changali qishlog‘i haqida ham ma‘lumot berilib, ushbu maskanning nomlanishiga go‘yoki changal (forscha o‘rmon, daraxtzor) qoplagan maydon sabab bo‘lganligi ta‘kidlangan. Jumladan, kitobda quyidagicha argument keltiriladi. “Samarqand viloyati Nurobod tumanida yana bir qishloq borki, o‘zining boy tarixi bilan ko‘zni qamashtiradi. Undagi har bir tosh, buloq, quduq va hattoki g‘or ham uzoq yillik o‘tmishga ega. Bu qishloq Changali qishlog‘i bo‘lib, unda unchalik ko‘p aholi istiqomat qilmasligiga qaramay, azaldan madaniyat uchog‘i bo‘lib kelganligi uning aholisi tomonidan ta‘kidlanadi. Qishloqning nomini ayrimlar “Changali” deb atasa, ayrimlar “Changalli” deb atashgan ekan. Aslida, qadimda Jingilisoy deb atalgan ekan. Changali qishlog‘i deb atalish sababi shundaki, bu yerlar nihoyatda sersuv, so‘lim go‘sha bo‘lgan. Ob-havoning bahavoligi, iqlim sharoitining yaxshiligi sabab jangal o‘sib chiqqan. Bu yerlarda shunchalar jangalzor ko‘p bo‘lganki, soylar, qirlar hattoki odamlarning hovlisida ham jangalzor bo‘lgan. Qishloq jangalzor ko‘p bo‘lganligi uchun “Jangali” deb atalgan va yillar o‘tishi bilan “j” tovushi “ch” ga o‘zgarib “Changali” nomini olgan” [2, 224] Shu o‘rinda tilshunoslik ilmida mavjud bo‘lgan etnonim, etnooykonim terminlari xususida biroz mulohaza yuritsak. O‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘atida etnonim terminiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Etnonim (yunoncha ethnos – qabila, xalq + onyma – nom). Xalq, qabila, urug‘ va b. xil

etnik uyushmalar nomi”. [1,48] Oykonim haqida esa toponimist olimlar E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘at”ida quyidagicha ta‘rif beriladi: “Oykonim (yunoncha oykos – turar joy, maskan + onoma – atoqli ot) – aholi yashaydigan joylari, maskanlarning atoqli oti, toponim turi.”[3,58] Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhni tashkil qiladi. Oykonimlarga shaharlarning nomlari, qishloq, ovul, guzarlar, mahallalar, kichik turar joylar, qal‘a nomlarini kiritish mumkin. “Oykonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, hudud tarixiga oid ba‘zi ma‘lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o‘tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug‘, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti – qanday kasb bilan shug‘ullanganligi, shuningdek, obyektning biror kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir”[4,6]. Demak etnonim va oykonim terminlarining birikuvidan hosil bo‘lgan etnooykonim qabila, urug‘ nomining qishloq, ovul yoki biror maskan nomiga aylanishini anglatadi. Bizningcha, yuqorida keltirilgan qishloqlarning (Oltio‘g‘li, Qo‘chqorli, Tortuvli, Qarg‘ali, Ilonli, Changali kabi) barchasi etnooykonim hisoblanib, ushbu maskanlarning nomlanishiga o‘zbek millatining 92 urug‘i (ba‘zi manbalarda 96) tarkibiga kiruvchi etnonimlar sabab bo‘lgan. Chunki ushbu nomdagi etnonimlar mamlakatimizning yirik toponimist olimlarining ilmiy ish va monografik tadqiqotlarida keltirilgan. Masalan, yirik toponimist olim S.Qorayev “Toponimika” qo‘llanmasida O‘zbekiston xaritasida hozirgacha qishloqlarning nomlari shaklida uchraydigan etnooykonimlarning qisqacha ro‘yxatini keltirib, Jilonli (Ilonli), Kal, Kallar, Oltio‘g‘il, Tortuvli kabi joy nomlarni alohida keltirib o‘tadi. [5,83] Yana bir dalil sifatida, 2022-yil nashrdan chiqqan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”ida Qarg‘ali etnooykonimi haqida ma‘lumot beriladi. Maqolada quyidagilarni o‘qiymiz. “Qarg‘ali – qishloq. Samarqand viloyati Narpay tumani. Karga(qarg‘a – bu yerda etnonim) o‘zbek, boshqird, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibidagi qadimgi urug‘lardan biri. [6,341] Ushbu lug‘atda Tortuvli etnooykonimi haqida ham qisqacha izoh keltiriladi. “Tortuvli – qishloq nomi. Katta-qo‘rg‘on, Narpay, Oqdaryo tumanlarida uchraydi. Tortuvli o‘zbek urug‘laridan biri, ba‘zi bir fikrlarga ko‘ra qanjig‘ali urug‘ining bir tarmog‘i”. Bunday dalillarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. O‘zbek tilshunoslik ilmiga munosib hissa qo‘shgan atoqli olim B.O‘rinboyevning “Asrlardek barhayot nomlar” nomli toponimik izohli

lugʻatining Qoʻchqorli toponimi haqidagi maqolasi ham ushbu qishloqning shunday nomlanishiga qoʻchqorli etnonimi sabab boʻlganligini koʻrsatib turibdii: “Qoʻchqorli – Nurobod tumanidagi qishloq. Qipchoq qabilasining bir urugʻi qoʻchqor deb atalgan. Qoʻchqorli – etnooykonimdir” [7, 259] Nurobod tumanining yana bir maskani Agʻron qishlogʻi boʻlib, bu hudud haqida “Nurga burkanayotgan Nurobod” kitobida quyidagilarni oʻqiymiz: “Nurobod tumanining gʻarbiy qismidagi Beshtol togʻ darasi yoqasida joylashgan, bugungi kunda oʻn mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan Tim qishlogʻi hamda undan unchalik uzoq boʻlmagan yetti ming aholiga ega Agʻron qishlogʻi ham tarixiy manzillardan biridir”. Ammo bu manbada qishloqning nega shunday nomlangani haqida fikr bildirilmagan.. Bizningcha bu toponimning kelib chiqishi ham etnonim bilan bogʻliqqa oʻxshaydi. Chunki 2022-yil R. Xudoyberganov va boshqa toponimist olimlar tomonidan nashr qilingan “Oʻzbek joy nomlarining izohli lugʻati” kitobida Agʻron etnooykonimi haqida shunday deyiladi: Agʻron – Samarqand viloyatining Pastdargʻom tumanidagi qishloq. Nayman qabilasining bir tarmogʻi agʻron deb yuritiladi. 1926-yilgi aholi roʻyxatida Narpay tumani Qoʻrgʻon qishloq kengashida Agʻron qishlogʻi deb qayd etilgan.[6,42]

Xoʻsh, tabiiyki savol tugʻiladi? Bu etnonimlar qanday paydo boʻladi?. Bu savolga taniqli toponimist olim T.Nafasovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Chorvachilik bilan shugʻullangan har bir etnik birlikning oʻz tamgʻasi boʻlgan. Tamgʻa esa oddiy shakl, chiziq emas, ramziy nishon, belgi vazifasini bajargan. Shu maqsadda tamgʻalar mollarning kuragi, koʻkragi, boʻyni, soni, sagʻrisi kabi koʻrinarli joylariga qoʻyilgan”. [8,19] Bu kabi tamgʻalar chorva mollarning maʼlum etnik birlikning moli ekanligini belgilab turgan. Aholi shu tamgʻaga qarab mollarini, boshqa aholi mollaridan ajratib olishgan. Keyinchalik bu tamgʻa etnik birlikning nomiga koʻchgan. Etnik birlik oʻtroq hayot kechira boshlagan qishloq shu nom bilan atala boshlangan. Demak qoʻchqorli, ilonli, qargʻali, changali kabi etnonimlar paydo boʻlishiga bu urugʻlarning chorvachilik bilan shugʻullanganliklari sabab boʻlmoqda. Bu xususda S. Qorayevning quyidagi fikr ham muhim. “Naymanlar, asosan, Zarafshon vodiysida, Jizzax, Kattaqoʻrgʻon, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida oʻrnashib qolganlar; Xiva vohasi va Fargʻona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar boʻlgan. XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urugʻdan iborat boʻlgan. Bular – qoʻshtamgʻali,

sadirbek va uvox-tamg'ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi *ag'ran*, ayronchi, badir, biya, bog'onali, boltali, bo'qalay, burunsov, jag'albayli, jastavon, *jilonli (ilonli)*, jumaloqbosh, *oltio'g'il*, oqto'nli, po'-lotchi, segizuruv, sarinayman, *to'rttuul (to'rto'g'il)*, to'rttamg'ali, urguch, ukrash, *changali*, cho'michli, g'ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak, *qarg'ali*, qiltamg'ali, qo'ltamg'ali kabi tarmoqlarga ham bo'lingan[8,77].

Demak, bugungi kunda Nurobod tumanidagi Ag'ron, Changali, Qo'chqorli, Qarg'ali, Ilonli, Oltio'g'il, Tortuvli kabi qishloqlarning nomlanishida etnonimlar muhim rol bajargan va qishloqning uzoq o'tmishidan xabar berib turuvchi argument sifatida tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda. Shu o'rinda yana bir dolzarb masalani ham aytib o'tishimiz kerakka o'xshaydi. Yaqin yillar ichida ushbu tumandagi qadimiy nomga ega bo'lgan Qo'shasigir, Tortuvli kabi qishloq nomlari asossiz tarzda Istiqlol, Buloqboshi kabi nomlar bilan almashtirib qo'yilgani kishining ta'bini xira qiladi. Zero bu kabi harakatlar joy nomlarini sun'iylashtirishdan boshqa narsa emas. Chunki joy nomlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Uning paydo bo'lishida muayyan tarixiy asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 1-5 жилдлар. “Ўзбекистон миллий энсклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006-2008 йиллар.
2. Сатторов А. Нурга бурканаётган Нуробод – Тошкент: Фан зиёси нашриёти, 2022.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
4. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.
5. S. Qorayev. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
6. R.Y Xudoyberganov va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
7. Б.Ўринбоев. Асрлардек барҳаёт номлар. Самарқанд вилояти топонимик изоҳли луғати. –Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 2003.
8. Т. Нафасов. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Мухаррир, 2009.

XV-XVI ASRLAR SAMARQAND VILOYATI NUROBOD NUMANI OSTONABOBO SO‘FIYLAR MASKANI ME’MORCHILIGI


*Rayimkulov A.A. –
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
huzuridagi “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi*

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo‘lib, mustaqillik yillari uning arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta‘mirlash, obodonlashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Shu bilan birga turizm sohasini rivojlantirish va Samarqand viloyatidagi ziyoratgohlarning mavqeini oshirish, me‘morchiligini o‘rganib, keng miqyosda targ‘ib etish hamda ichki va tashqi sayyohlar uchun turistik yo‘nalishlarni rivojlantirish hozirda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur yo‘nalishlardagi ziyorat turizmining bir ob‘ekti sifatida kam o‘rganilgan va tadqiqatlab, lekin o‘zining alohida diniy-ma‘rifiy ahamiyatiga ega XV-XVI asrlarga oid Ostonabobo majmuasini keltirishimiz mumkin.

Bu yodgorlik Samarqand viloyati Nurobod tumani Zirabuloq tog‘i Ruda koni markazidan g‘arb tomonga 8 km (Ingichka shaharchasidan 10 km) uzoqlikda, Ostonabobo qishlog‘ida joylashgan. Qadimiy qabristonda gumbazi biroz deformatsiyalangan maqbara va yuqoriroqda masjid binosi joylashgan bo‘lib, ular shu erda avvallari yirikroq bo‘lgan ziyoratgoh – majmuaning qadimiy va yagona saqlanib qolgan obidalaridir (1-rasm).

Ostona kichik qishloq bo‘lishiga qaramay, uning nomi juda ko‘p tilga olinadi, undagi ziyoratgohga turli viloyat va vohalardan mehmon-sayyohlar, ziyoratchilar tashrif buyuradilar. Avvallari katta bo‘lgan majmuadan hozirgacha mahobatli qurilgan gumbazli masjid va maqbara saqlanib kolgan. Masjiddan maqbara tomon borayotgan yo‘lda esa zilol suvli buloq va uniig atrofida daraxtlar bo‘lib, sokin bir oromgohni eslatadi. Yonidagi qabristonning har joy – har joyida esa nihoyat katta san‘atkorlik bilan ishlangan qadimgi qabrtoshlar uchraydi.



1-rasm. Majmuaning topografik xaritasi.


Ostonabobo masjidi va maqbarasini ilk bor G.A.Pugachenkova 1960-yillarda tadqiq etib, ilmiy muomalaga kiritgan [3, 70-75 b.]. Lekin olim maqbaraning qurilishi davrini ochiq qoldirgan, masjidning bunyod etilishini esa taxminan XVI-XVII asrlarga taaluqli deb keltirib o'tgan [3, 71-73 b.].

1975-yilga kelib dastlab UzFA Samarqand arxeologiya instituti xodimi B.D.Kochnev boshchiligidagi pastdargom otryadi Ostonabobo maqbarasini ko'zdan kechirgan va qabr toshlarning epigrafiyalariga asoslanib, dafn etilgan shaxslarning ismlarini keltirib o'tgan [2, C. 528]. Eng muhimi, B.D. Kochnev birinchi bo'lib "ishqiya" shayxlarining ya'ni "Qashqadaryodagi Eski Langar shayxlarining avlodlari dafn qilingan o'rni", -deb to'g'ri ta'kidlagan edi [2, 529 b.]. Bu esa vohadagi so'fiylarning rivojlanish tarixini aniqlash, Ostonabobo kabi diniy komplekslarning vujudga kelish sabablarini va tarixini yangicha tadqiq etishni taqozo etadi. Yodgorlikning yangi tadqiqotlari uning masjid va maqbarasining ta'mir loyihasini yaratilishi bilan bog'liq.

Maqbara peshtoq – gumbazli kompozitsiyaga ega, rejasi kvadrat (7.56x7.56 m.) shaklda. Uncha katta bo'lmagan maqbara peshtoqi

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

janub tomon qarab turibdi va shimol–janub orentatsiyasiga ega. Maqbara, zal – asosiy tarz o‘rtasidagi u qadar baland bo‘lmagan kirish peshtoqi kvadrat sahnli (5.55x5.55 m.) maqbara zaliga eltadi. 1989-yilda ta’mirshunoslarning olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra uning balandligi gumbaz uchigacha 8.3 metrni tashkil etgan. Maqbaraning asosi uning atrofidagi qavat-qavat qabr tuproqlari bilan ko‘milib qolgan. (2-3 rasmlar)



2-rasm. Ostonabobo maqbarasining janubiy, shimoliy tarzlari va qirqimi. 1989-yil ta'mirlash loyihasi materiallaridan.

Inter'erda kubsimon xona hajmidan teparoqda gumbazni ko'tarib turuvchi burchak konstruksiyalari – ravoqsimon bag'allar qatori ustidan 16 burchakli arkatura tizimi va shundan so'ng gumbaz shakllangan. Maqbara ichkarisida uchta parallepiped ko'rinishidagi qabrlar mavjud. Qabrtoshlar (1,5x2 m., balandligi deyarli 50 sm) arab alifbosiida go'zal tarzda bitilgan uyma yozuvlar bilan bezatilgan [4].


Maqbara eshigidan kiraverishda o'ng tomondagi birinchi toshda Muhammad Ahmad al-Mahmud nomi uchradi va u shayx Xudoyquli vafot etgan yili vafot etdi mazmunida xabar qilingan.

O'rtadagi toshda shayx Xoja Mahmud nomi, undan chap tomonida joylashgan uchinchi toshda esa "hajga borib kelgan murshid Ilyos ibn Muhammad" nomlari bitilgan.

Bizningcha, maqbarada avvalambor o'rtada joylashgan qabr paydo bo'lib, uning ustiga tosh qo'yilgan, va bu maqbarada bir xonadonning namoyandalari – avval, bobo Shayx Xoja Mahmud, keyin – ota Muhammad Ahmad al-Mahmud va o'g'il yoki – nabira Murshid Ilyos ibn Muhammadlar dafn etilganlar (4-rasm).



**3-rasm. Ostona bobo maqbarasining
hozirgi ko‘rinishi**



**4-rasm. Ostona bobo maqbarasining
rejasi. 1989-yil ta‘mirlash loyihasi
materiallaridan**


Maqbaraning g‘arb tomonida chamasi 1,5-2 metr masofada “II” shakldagi baland bo‘lmagan chegaralovchi devor bor. Bu to‘siqning aniq funksional vazifasi nimadan iborat ekanligin aytish mushkul. Ostona bobo maqbarasidagi bu inshoot qiblani ko‘rsatib turishi jamoaviy ziyorat nomozlarini o‘qishda xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

1989-yilda “UzNIPI restavratsiya” Toshkentdagi yodgorliklarni ilmiy-tadqiq etish va ta‘mirlash instituti tadqiqot guruh a‘zolari U.X Aripov, P.Sh. Zoxidov, T.N. Gayupov, Z.T. Loyanskiylarning takidlashicha maqbaraning holati qoniqarsiz darajada bo‘lgan[3]. Butun bino atrofidagi qabrlarning yaqin joylashgani hisobidan, u tuproq ostida qolgan. Devorlar konstruksiyalarida va tom yopmalarining deformatsiyalanganini ta‘kidlab o‘tishgan. Maqbaraning janub tomon tepadagi tashqi gumbaz qoldiqlariga tashqaridan qarab shuni aytish mumkin bo‘ladiki, uning gumbazi dastlab ikki qatlamli bo‘lib, hozirda tashqi ikkinchi gumbazi saqlanib qolmagan[3, 8-b].

Maqbaradan g‘arb tomonda qabristonning yuqori qismida, tog‘ etagida masjid binosi qulay joylashgan bo‘lib, maqbara kabi 26x26x5 sm o‘lchamdagi pishiq g‘ishtlardan ganch qorishmasi bilan qurilgan. Bino to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda (21.30 x 12.50 m.) bo‘lib, uning bosh tarzida uchta ravoq va markaziy ravoq o‘rnida biroz katta bo‘lmagan peshtoq joylashgan. Bino ichki va tashqi tomondan o‘ta mahobatli qurilgan. Intererda ikkita mahobatli g‘ishtin ustunlar ko‘kgumbazli g‘ishtin tomni ko‘tarib turibti. Asosiy o‘q bo‘ylab esa chuqur

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

mexrob joylashgan, buni masjidning orqa tarzida yarim sakkizbur-
chakli boʻrtma qism shaklida koʻrishimiz mumkin. Masjidning ichka-
risida eski suvoqlari kurinib turibdi (5-rasm).



**5-rasm. Ostonabobo masjidi rejasi va qirqimi.
Loyiha bosh arxitektori T.N. Gayupov bo'yicha.**

Tom yopmadagi mehrob oldida joylashgan markaziy gumbaz qolgan gumbazlarga qaraganda balandroqdir. Asosiy tarzda dastlab 3 ta ravoqli kirish bo‘lib, markaziy ravoq qolganlarga nisbatan biroz oldinga bo‘rtirilib, u “II” ko‘rinishda qurilgan. Kirish joylaridan bosh-

lanuvchi asosiy uch o‘q – yo‘laklarning har birida ikkitadan gumbazlar joylashgan. Qurilish davriga to‘xtaladigan bo‘lsak, masjidning me‘moriy-hajmiy yechimi ko‘pgina analoglar kabi XVI-XVII asrlarga to‘g‘ri keladi (6-rasm).

G.A. Pugachenkovaning fikricha, Ostona bobo masjidi kompozitsion tipi bo‘yicha mo‘g‘illar davrigacha yaratilgan binolarni eslatadi, lekin bu bino XVI-XVII asrga ta‘lluqli ekanligini aniq eslatib o‘tgan [1, 42-b.].



6-rasm. Masjid va hovuzning 1990-yillardagi uning shimol tomondan tasvirga olingan ko‘rinishi.

1989-yil tadqiqotlariga ko‘ra masjid ayanchi va avariya holatida bo‘lgan. Masjid devorining sirtqi yuzasi g‘isht terimi namlangan holatda va devorning holati qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan. Badiiy tugallik qismi ba‘zi joylarida butkul to‘kilib ketgan va g‘isht terimlari ochilib qolgan edi. Tomda gidroizolyatsiya tizimi mavjud bo‘lmagan yog‘ingarchilik suvlarini oqizish uchun mo‘ljallangan tom nishabi to‘liq ishdan chiqqan edi.

Endi yodgorlikning nomlanishi haqida to‘xtalib o‘tsak. O‘rta Osiyo bo‘yicha bu nomga o‘xshash bo‘lgan muqaddas aziz joylar Surxondaryo viloyatidagi Ostona bobo va Turkmaniston Atamurod shahridagi Ostona bobo joylashgan.

Birinchi soʻz “Ostona” – kelib chiqishi forscha boʻlib, shuningdek turk va fors-tojik tillarida aniq tarjimaga ega – “ostona”, “boʻsaxa” va majoziy maʼnoda “ilohiy qabr” deb tarjima qilinadi. Ikinchi soʻz “ota” yoki “bobo” turkcha soʻz hisoblanib u xalq xatibi, din targʻi-botchisi maʼnolarini beradi. Oʻylaymizki, “Ostonabobo” (yoki “Ostona-ota”) nomini mazkur ziyoratgohda “Muqaddas soʻfiylar qabri” maʼnosida tushunish joizdir[2].

Ostona ota majmuasini muallif shaxsan oʻtkazgan dala tadqiqotlari natijalari, ilmiy adabiet maʼlumotlari va arxiv materiallariga asoslanib ziyoratgohning hozirgi holati va uni taʼmirash ishlariga quyidagi baho va xulosalarni keltirish mumkin:

Samarqand viloyati atrofidagi ziyoratgohlarning Narpay tumani-dagi Koʻk ota, Xoʻja Karzon, Timdagi Arab ota majmuasi va Nurobod tumanidagi Ostona ota memorial majmualarining umumiy oʻziga xosligini. Ularning barchasida 1 yoki 2 xonali gumbazli gʻishtin maqbaralar qurilgan, ularning tarkibidagi masjidlar yonida hovuzlar tashkil etilgan, meʼmoriy tuzilishi va kurilish davri boʻyicha Ostonabobo va Koʻk ota diniy–memorial majmualari bir birlariga oʻxshash boʻlib, Samarqand viloyati ziyoratgohlarining oʻziga hos meʼmorchiligiga misol boʻla oladi.

Ostona ota ziyoratgohining masjidi XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida qurilgan, uning shimol tomonida hovuz va atrofida bir nechta qadimiy tut daraxtlari boʻlgan.

Oxirgi paytlarda bir nechta omillar – tabiiy atmosfera yogʻingarchiliklari va hovuz atrofidagi eski tut daraxtlarini olib tashlanishi (tut darxti tomirlari erdagi namlikni oʻziga yaxshi tortardi) natijasida anchadan beri taʼmirtalab bino konstruksiyalari namlikdan nuray boshlagan. Hovuz esa avvalgi taʼmirlash va qurilish chiqindilari bilan sekin asta koʻmilishi oqibatida kichiraytirib kelingan.

Yuqoridagi holatni bartaraf qilish uchun mahalliy xalq va shayx avlodlari qator mutassadi tashkilotlarga binoning taʼmirlanishi va loyihasini tayorlash borasida murojaat qilishgan. lekin mutaxassislar tomonidan javob kelmaganligi bois, 2021-yilga kelib shayx avlodlari Yusupov Ismatulla, uning oʻgʻli Mashrab Yusupov va mahalliy xalq tashabbusi va mablagʻi bilan masjid binosi taʼmirdan chiqarmoqda. Jumladan, tom ishlarida gumbazlar gʻisht bilan qoplangan va qolgan qismi tom yopmasi bilan qoplanib, yogʻingarchilik suvlari tarnovlar orqali boshqarildi, yangi yogʻoch kirish eshigi oʻrnatilgan, interʼerda

pardozlash ishlari bajarilgan, shuningdek pol qoplamasi masjidning eski g'isht o'lchamlaridagi yangi g'ishtar bilan qoplanib, milliy qandillar o'rnatilib, o'zgacha bir fayzli muhitni yaratishga muvaffaq bo'lishgan.

Lekin achinarlisi shundaki, hech bir ilmiy asoslangan va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ta'mir loyihasisiz me'moriy durdonada beshafqatlarcha zamonaviy ta'mir usullari qo'llanilgan. Masalan, masjid g'ishtlari ustidan tarz ravoqlari ichidagi g'ishtin devorda birinchi qatlamda sement qorishma, so'ng esa zamonaviy qorishmadan foydalanib, ustidan ohak bilan suvoqlangan, archa tarzlardagi g'ishtlarni yo'nish ishlari o'ta qo'pol ko'rinishda bajarilgan.



7-rasm. Ostonabobo masjid tarhi. A. Rayimkulov fotosi. 2021-yil aprel.

Ostonabobo maqbarasida joylashgan uch qabr tosh, ancha davr mobaynida to'rt devor orasida juda yaxshi saqlanib qolgan. Ulardagi naqshinkor yozuvlarning jozibadorligi va o'ymakor yozishdagi nozikligi uslubi bo'yicha Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi va Buxorodagi Mir Arab madrasasi qabr toshlaridan mohirlik bilan bajarilishi borasida qolishmaydi. Bu o'z navbatida maqbaraning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Ishqiya sufiylik tariqatining shayxlari O'zbekiston tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lganlar. Ularning diniy-ma'rifiy merosini o'rganish, ularning ziyoratgohlarini va boshqa kam o'rganilgan me'morial majmualarini to'g'ri va professional darajada ta'mirlash, hamda

ziyosat turizmda samarali foydalanish – bu hozirgi davr me'moriy merosni tadqiq etish shuningdek saqlashning muhim – dolzarb masalalaridan biridir. Shularni nazarda tutib bu yodgorliklar turkumini ta'mirlash va avaylab saqlash ishlarini jadallashtirish ishlari bilan birga, bu aziz-avliyolar haqida to'la ma'lumotlarni topib ularni keng jamoatchilikka havola etish ham bugunning eng asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va arxiv materiallari:

1. Валихўжаев Б. Хўжа Аҳрор тарихи: (Самарқанд ва Самарқандликлар). -Т: Ёзувчи, 1994. 96 б.
2. Кочнев Б.Д. Изучение эпиграфических памятников Самаркандской области. – Археологические открытия -1975 г. М., 1976, 528-529 б.
3. Пугаченкова Г.А. Неизвестные архитектурные памятники горных районов Узбекистана В. сб. ИЗУ-III, Тошкент, 1965, с. 70-75.
4. Самарқанд вилояти Советобод туманидаги Остонабобо масжид ва мақбараси. 2-китоб. Таъмирлаш лойиҳасига оид илмий тадқиқот материаллари. Тошкент, 1989.
- С–6182/ Г-12. Туризм ва спорт вазирлиги қошидаги маданий мерос агентлигининг илмий архиви.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. – История искусств Узбекистана, Т., 1965 стр 332.
6. Rayimkulov, A. A. (2022). History and methods of renovation of memorial complexes: the example of Khoja Safoi Vali complex in samarkand. ISJ Theoretical and Applied Science, 8(112), 388-392.
7. Юсупова, М. А. (2013). К вопросу реставрации памятников архитектуры Узбекистана в 1990-2010 гг. Вестник Кыргызского государственного университета строительства, транспорта и архитектуры им. Н. Исанова, (4), 170-174.
8. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). Analysis of foreign and domestic experience in designing historical low-rise residential buildings. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(3), 147-152.

NUROBODNING QADIMGI TASVIRIY SAN'ATI

*Kurbonboyev I.M. –
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
arxeologiya kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Zarafshon tog' tizmasi Qoratepa tog' massivida joylashgan Taloqyopgan tosh ayvoni yangi qoyatosh rasmlari tadqiqotiga bag'ishlangan. Bu tasvirlar qadimgi ajdodlarimiz ma'naviy, diniy hayoti va san'at namunalarini o'zida aks ettirgan madaniy meros yodgorligi hisoblanadi. Ular insoniyat tarixiy taraqqiyot bosqichining tosh davrlariga oid ekanligi aniqlandi. Bu qoyatosh rasmlari qadimgi ovchi jamoalari vakillari tomonidan tabiiy bo'yoq (oxra) yordamida ishlangan. Bu tosh ayvonchada qadimgi davrga oid turli syujetlar tasvirlangan bo'lib, ular mana shu hududlarda yashagan jamoa vakillarining asosan diniy hayoti bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kirish. Ibtidoiy san'at namunalari (petroglif) geografik jihatdan Antarktidadan tashqari dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan bo'lib, eng qadimgi rasmlar ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan qadimgi g'or, ungur, tosh ayvonlar devor va shiftlarida, turli qoyatosh sathlarida yaxshi saqlanib qolgan. Ibtidoiy san'at qadimgi odamlarning atrofdagi voqelik haqidagi ilk g'oyalarini o'zida aks ettirgan. Mana shuning sharofati bilan tabiat haqidagi bebaho bilim va ko'nikmalar saqlanib, keyingi avlodlarga etib kelgan va odamlar tevarak olam, tabiat sir-sinoatlarini o'rganish imkoniga ega bo'ldi. Ibtidoiy davr ma'naviy madaniyatida, diniy e'tiqodida qoyatosh rasmlari san'ati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.


Shu nuqtai nazardan O'zbekiston tog' va tog' oldi hududlarida keng tarqalgan tarixiy-madaniy yodgorliklar sirasiga kiruvchi qoyatosh rasmlarni o'tmish ajdodlar tomonidan bizga meros qoldirilgan "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb aytsak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular ko'hna madaniyatimizning jonli guvohlari bo'lib, o'z mazmun, mohiyati bilan mazkur hududda yashagan ibtidoiy kishilar, qabila va elatlar madaniy va ma'naviy hayoti, estetik va diniy qarashlari, san'-

ati, xo‘jaligi va iqtisodiy turmushi tarixini o‘rganishda ming yillardan buyon ona yer bag‘rida saqlanib kelayotgan tarixiy manbalardan biridir.

Bu qoyatosh rasmlari soha mutaxassislari tomonidan dunyoning turli hududlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, shunday yodgorliklardan Qoratepa tog‘ massivi shimoliy yon bag‘ri o‘z suvini Zarafshon vohasi tomon oqizuvchi soylar, chuqur daralarga ega bo‘lib, bu yirik soylar Tepakulsoy, Egrikulchasoy, Sazog‘onsoy, Oqsoy, Sarikulsoy, Anjirlisoy, Jomsoy kabilardan iboratdir. Samarqand viloyati Nurobod tumani hududida olib borilgan dala arxeologik qidiruv tadqiqotlari natijasida Tapaqul qishlog‘ida Yaylovcha, Ashurbobo soyi, Beshbarmoq qishlog‘ida Otkamarsoy, Bo‘tabosoy, Oyshaning zovi, Cho‘nqaymish qishlog‘ida Qozontoshsoy, Darvozatosh, Anazrat qishlog‘ida Taloqyopgan daralari yon qayirlarida yangi qoyatosh rasmlari yodgorliklari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi. Qoratepa tog‘ massivi shimoliy va shimoli-g‘arbiy yonbag‘ridan oqib tushuvchi soydaralarida olib borilgan dala arxeologik qidiruv tadqiqotlar natijasida ham ko‘plab qoyatosh rasmlar aniqlanib ro‘yxatga olindi. Xususan, bu tadqiqotlar jarayonida arxeologiya sohasiga qiziquvchi mahalliy aholi vakillaridan biri tarix o‘qituvchisi Abdumannon Yorqulovning ma’lumotlari asosida, Samarqand viloyati Nurobod tumani Anazrat qishlog‘i shimoli-sharqiy tomoni Yetimcho‘qqidan oqib tushuvchi kichik soyning o‘ng qirg‘og‘idagi “Taloqyopgan” deb nomlanuvchi granadiorit tosh ayvonining asosan yon tomon devoriga qadimgi rassomlar tomonidan qizil ranglarda ishlangan tasvirlar borligi aniqlandi. Taloqyopgan tosh ayvoni qoyatosh rasmlari Qoratepa tog‘ massivi bel qismida Taloqyopgan tosh ayvonchasi devorlariga tabiiy bo‘yoq (oxra) yordamida ishlangan bo‘lib, bu yodgorlik Anazrat qishlog‘idan 1 km shimolda, dengiz sathidan esa 1144 m balandlikda joylashgan (1-rasm).

Bu tosh ayvoni devorlariga ishlangan rasmlarning ko‘pchiligi ming-yillar mobaynidagi tabiat hodisalari (qor, yomg‘ir, shamol, issiq, sovuq) ta’sirida o‘zining asl holatini yo‘qotib, bo‘yoqlari o‘chib noaniq-xira ko‘rinishga kelgan yoki toshning ustki qismining darz ketishi natijasida buzilib, ularning ayrimlarida chizilgan rasmlarning ba’zi parchalarigina saqlanib qolgan bo‘lsa, ayrimlarining anchayin yaxshi saqlanganligi holatini kuzatish mumkin. Bu yodgorlikdagi tosh ayvonchada saqlanib qolgan rasmlar to‘q qizil, qizil va och qizil,

sarg'ish, to'q jigarrang ranglarda ishlangan. Ular qadimgi rassomlar tomonidan bu tosh ayvonchanning asosan devoriga chizilgan. Undagi rasmlar syujeti juda xilma-xil bo'lib, ularda ibtidoiy buqa, odam, tog' echkisi, mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich va bir qancha turli kosmogonik tasvirlar, naqshsimon belgilar, aylana shakldagi spiralsimon belgi, panja va boshqa shu kabi ko'plab xilma-xil belgilar hamda bir qancha buzilgan, o'chib ketgan va noaniq – xira tasvirlar uchraydi (2-rasm).



1-rasm. Taloqyopgan tosh ayvoni joylashuv o'rni.



2-rasm. Taloqyopgan tosh ayvoni tasvirlarining umumiy ko'rinishi.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

Bu yerdagi rasmlarning saqlanish darajasi ancha yomon holatda bo‘lishiga sabab, tosh ayvonchaning soyabon qismi biroz kalta va old qismi ochiq bo‘lganligi uchun tabiat hodisalari (yomg‘ir, qor, shamol) ning ta’siri kuchli bo‘lgan. Tadqiqotlar jarayonida bu tosh ayvon devorlarida jami 56 ga yaqin rasmlar borligi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval

№	Asosiy syujetlar	Soni
I	Odam tasvirlari.	
1	Odam tasviri (alohida yoki biror kompozitsion manzarada)	9
2	Diniy marosimlar ijrosi (raqs sahnasi) da	1
II	II a. Yovvoyi o‘txo‘r hayvonlar.	
3	Yovvoyi buqa (tur)	3
4	Tog‘ echkisi	1
	II b. Yovvoyi yirtqich hayvonlar.	
5	Gepard yoki leopard	2
III	Turli geometrik shakldagi belgi tasvirlari	
6	Spiralsimon aylana	5
7	Burchaksimon belgi	5
8	Yarim oysimon belgi	2
IV	Boshqa turli tasvirlar	
9	Qo‘l panjasi	3
10	Abstrakt tasvirlar	2
11	Chala qolgan yoki buzilgan tasvirlar	12
12	Noaniq-xira tasvirlar	11
	JAMI:	56

Taloqyopgan tosh ayvonida qadimgi rassomlar tomonidan ishlangan ibtidoiy ho‘kiz tasvirlari asosiy persanajlardan biri bo‘lib, bunda ibtidoiy ho‘kiz vazmin tanali, kalta bo‘yinli, dumi uzun va uchi popukli, oyoqlari baquvvat ko‘rinishda, ulardan pastda esa bitta inson qo‘l panjasi tasviri turli geometrik belgilar va boshqa uniqib o‘chgan tushunarsiz holga kelib qolgan tasvirlar mavjud.

Agar ibtidoiy ho‘kiz(tur)lar yashagan tarixiy geografik o‘lkalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular deyarli butun Yevropa, Shimoliy Afrika, Kichik Osiyo, O‘rta Osiyo, Oltoy, Kavkaz va Hindiston hududlarida keng tarqalganligi arxeologik va yozma ma’lumotlardan bizga ma’lumdir. Masalan, bu yovvoyi hayvon turi Afrika hududlarida mil.avv. 3-ming yilliklarda, Kichik Osiyoda esa mil.avv. 600-yillarda yo‘q bo‘lib ketgan. Bizga ma’lumki, insoniyat tarixiy taraqqiyotining

turli davrlariga xususan, paleolit, mezolit, neolit, eneolit va bronza davriga oid dunyoning ko'pgina hududlaridagi g'or, ungurlar devor va shiftlariga tabiiy bo'yoq (oxra) yordamida ibtidoiy ho'kiz va u bilan bog'liq kompozitsion tasvirlar ishlangan⁵⁹.



3-rasm. Taloqyopgan tosh ayvoni tasvirlarining laboratoriya sharoitida Dstretch dasturi orqali qayta o'rganildi.

Demak, ibtidoiy ho'kiz qadimdan ovchi jamoalarning asosiy ov obyektlaridan biri balki, an'anaviy madaniyati bilan bog'liq bo'lganligini ko'rish mumkin. Shu jihatdan, tadqiqotchi olim M.F. Albedil ibtidoiy buqa va buyvol ramzini an'anaviy hind madaniyatida keng tarqalgan tasvirlardan biri sifatida ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilib, bu yovvoyi hayvon ramzlari ularning qadimgi mifologiyasi va marosimlarida, xalq og'zaki ijodida, diniy belgilar tizimida, san'ati va kundalik hayotida ko'p uchrashini ta'kidlagan. Tadqiqotning qiziq tomoni shundaki, bu tasvirning ramziyligi Hindistonda yashovchi xalqlarning etnik xususiyatlarini emas, balki ularning jamiyati rivojlanishining bosqichma-bosqich xususiyatlarini, iqtisodiy va madaniy tipining xususiyatlarini aks ettirishini aytib, ushbu ibtidoiy buqa ramzining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni ochib berishga harakat qilgan. Soha mutaxassislarining tadqiqotlarida buqa ramzi ibti-

⁵⁹Формозов А. А. О наскальных изображениях Зараут-Камара в ущелье Зараутсай. – СА, №4, 1966. С.25-29.

doiy davrda paydo bo'lgan va qadimgi ovchilar uchun bu yovvoyi hayvonlar tevarak tabiat bilan uyg'un holda tasavvur qilingan⁶⁰.

Tadqiqotchi O.M.Freydenbergning ma'lumotlariga ko'ra, inson bilan hayvon o'rtasidagi murakkab munosabatlar, qarama-qarshilik va hamkorlik jamiyat mafkurasining asosiy elementlaridan biri ekanligi aytib o'tilgan. Yovvoyi hayvonot olami insonga nafaqat yaqin bo'lgan, balki uning o'z hayoti uchun kurashish strategiyasini belgilashda ahamiyatli bo'lgan. Hayvonot dunyosi insonning mifologik dunyo-qarashini shakllanishida, shu jumladan diniy tasavvurlarida: marosimlarda hayvonlarning harakatlariga taqlid qilishgan.

Yuqorida o'rganilgan yodgorliklar tosh ayvonlarda odam, ibtidoiy yovvoyi hayvonlar va geometrik belgi tasvirlarining birga uchrashi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, soha mutaxassislarining fikricha ibtidoiy odamlar paleolit davrida o'zlarini o'rab turgan tevarak atrofidagi jonli tabiatni haqqoniy tasvirlagan bo'lib, paleolit davrining oxiri va mezolit davridan boshlab, ular jonli tabiat bilan birgalikda turli geometrik shaklli belgilarni (to'rtburchaklar, doiralar, spirallar, naqshsimon belgilar, nuqtalar, chiziqchalar) ni ham aks ettira boshlagan. Shu boisdan, biz o'rgangan bu yodgorliklar tasvirlarini xronologik jihatdan insoniyat tarixiy taraqqiyotining mezolit va neolit davrlariga oid ekanligini aytishimiz imkonini beradi.

Shu bilan birga bu tasvirlarga o'xshash tasvirlar mutaxassislar tomonidan respublikamiz hududidagi Zarautsoy⁶¹, Siypantosh⁶², Sangijumonsoy⁶³, Oqsoqolotasoy tosh ayvonlarida ham o'rganilgan va ular ham kishilik tarixiy taraqqiyotining mezolit, neolit davrlari bilan sanalashtirilgan. Shuningdek, bu zig-zag (to'lqinsimon) va romb shaklidagi belgilarning davriy sanasini bilishimizda, respublikamiz va unga qo'shni hududlardagi Joytun madaniyatiga tegishli yodgorliklarda va Dashtli-tepa yodgorliklarida amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan mil.avv. VI–IV ming yilliklarga oid sopol idishlar sirtiga ishlangan shu kabi tasvirlarning mavjudligi ahamiyatlidir.

⁶⁰ Альбедиль М.Ф. Бык: символика образа в традиционной индийской культуре // Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том III, 2016. С. 54-65.

⁶¹ Рогинская. А. Зараут-сай. - М.- Л., 1950. С. 25-29.

⁶² Сулейманов Р.Х. Сийпанташ – новый памятник первобытного искусства в долине Кашкадарьи // Цивилизации Центральной Азии: земледельцы и скотоводы; традиции и современность. Тезисы докладов международной научной конференции. Самарканд. 2002. С. 71.

⁶³ Хужаназаров М.М. Наскальные рисунки Сангиджумансая. // «Средняя Азия и Мировая Цивилизация» тезисы докладов, Международная конференция//. – Тошкент, 1992. – С. 153-154.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda butunjahon miqyosidagi muammolar ichida tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash va kelajak avlodga etkazib berish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmoqda. Shu nuqtaiy nazardan, Nurobod hududida joylashgan madaniy meros namunalarini o‘zida mujassam etgan qoyatosh rasmlar ushbu hududda yashagan insoniyat tarixining turli bosqichlari qadimgi ovchi va ko‘chmanchi dasht chorvador aholisi ma’naviy hayoti, diniy e’tiqodi, san’ati, xo‘jalik mashg‘ulotlari, kunlik turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, hamda etnomadaniy muammolarini tadqiq etishda birlamchi manba sifatida ahamiyatlidir. Shu boisdan qoyatosh rasmlari qadimgi ovchi va ko‘chmanchi chorvador xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, dunyo haqidagi tasavvurlari hamda diniy tushunchalarini tiklash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Альбедиль М.Ф. Бык: символика образа в традиционной индийской культуре // Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том III, 2016. С. 54-65.
2. Рогинская. А. Зараут-сай. - М.- Л., 1950. С. 25-29.
3. Сулейманов Р.Х. Сийпанташ – новый памятник первобытного искусства в долине Кашкадарьи // Цивилизации Центральной Азии: земледельцы и скотоводы; традиции и современность. Тезисы докладов международной научной конференции. Самарканд. 2002. С. 71.
4. Формозов А. А. О наскальных изображениях Зараут-Кама в ущелье Зараут-сай. – СА, №4, 1966.С.25-29.
5. Хужаназаров М.М. Наскальные рисунки Сангижумансая. // «Средняя Азия и Мировая Цивилизация» тезисы докладов, Международная конференция//. – Тошкент, 1992. – С. 153–154.

CHANGALLINING ILK O‘RTA ASRLAR KULOLCHILIK XUMDONLARI

*Sandiboyev A.N., Rahimov K.A.,
Xolmatov A.N., Rahmonov H.O‘.,
Xo‘jamov S.H., Alibekov A.,
Alimov N., Botirov I.,
Samarqand arxeologiya
instituti xodimlari*

2022-yilda Samarqandda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasi kulolchilik xumdonlari, metal erish qo‘ralari va toshga yozilgan turk-runiy yozuvi topib o‘rganildi. Shuningdek, qoyatosh suratlari va metall-ruda konining o‘rni ham qayd etildi. Bu esa Sug‘dda ilk va o‘rta asrlarda hunarmandchilik, tasviriy san‘at tarixini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, Jomboy tumani Polvonariq MFY Dovcharariq qishlog‘ida yashovchi fuqaro Anvar Bo‘tayevning o‘ziga qarashli bo‘lgan tomorqa yerini shudgor qilayotgan paytida kulolchilik xumdoni qayd etilgani yuzasidan Samarqand arxeologiya institutiga xabar kelib tushdi. Mazkur xumdon Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti Jomboy guruhi tomonidan to‘liq ochib o‘rganildi.

Xumdonning pishirish qavatı devorning o‘rni saqlanib qolmagan. Uning tuzilishiga ko‘ra uch qismdan: olovxona, unga borish yo‘lagi va pishirish kamerasidan iborat (1–2-rasmlar). Olovxona materik qatlam kovlab olinib hosil qilingan, cho‘zinchoq shaklda, o‘lchamlari 1,75x0,065 m, balandligi esa 1,8 m. Olovxona va o‘tin solish yo‘lagida kul, tuproq, g‘isht parchalari, devor suvoq qoldiqlari va sopol idish bo‘laklari uchraydi (2-rasm). Shuningdek, olovxona devori kuchli yong‘in ta‘sirida kuygan va toshqolga aylangan. Xumdonning pishirish qavatiga issiqlik o‘tkazib beruvchi hil novlari simmetrik ravishda joylashgan bo‘lib, ulardan 8 tasi to‘liq saqlangan. Hil novlari pishirish qavatiga so‘ri shaklda, olovxona markazidan pishirish qavati chetiga qarab yo‘nalgan, ularning uzunligi 0,6-1,2 m, eni 0,06-0,14 sm. Olovxona tomi xom g‘isht yordamida yopilgan bo‘lib, bunda g‘ishtlarning eni 18-19 sm, qalinligi esa 10 sm ga teng. Olovxonaning o‘tin solish yo‘lakchasi esa xumdonning sharqiy tomonida joylashgan,

uzunligi 1,65 m, kengligi esa 0,4-0,6 m. O‘tin solish yo‘lagi so‘ri tarzda olovxona og‘zi tomon pasayib, eniga kengayib boradi. Yo‘lak shifti gumbazsimon ko‘rinishga ega bo‘lib, poldan gumbazning yuqori nuqatasigacha bo‘lgan oraliq masofa 1,46 m.



1-rasm. Jomboy. Polvonariq xumdonining umumiy ko‘rinishi.

Pishirish qavati aylana shaklda bo‘lib, uning diametri 3m Pishirish qavatidagi hil novlari ustiga aylana shakldagi diametri 34 sm, qalinligi esa 5-7 sm bo‘lgan xom g‘isht qayt etildi. Pishirish qavatining poli somon aralashtirilgan loy yordamida suvalgan. Mazkur xumdonning tuzilishiga ko‘ra ilk temir davriga oid bo‘lgan Saratepa–2 xumdonlarga o‘xshashdir (Ivanskiy, 1992, S. 22-23). Shuningdek, bu tipdagi xumdonlar Sug‘d ilk o‘rta asrlar davriga oid bo‘lgan Jomboy (Rahimov, Saidov, Ergashev, Kubayev, Sandiboyev. 2013. B. 185-187.), Yorqo‘rg‘on va Isaboytepa (Isamoddinov, Hasanov, 2000. S. 113, 114, 126) yodgorliklarida qayd etilgan xumdondan qayd etilgan xumcha, ko‘za, kosa, xurmacha va qozon kabi sopol ididsh bo‘laklari kulolchilik charxida yasalgan (3–4-rasmlar) bo‘lib, ular

Sugʻdda VI-VIII asrlarda uchraydi (Lebedova, 1990. Rasm 1. 32-33; Berdimurodov, Samibayev, 1999. 68, 10; 72. 3 31; Soklovskaya, 2015. Rasm 74,16; Marshak, 2012. Rasm 135, 5).



2-rasm. Jomboy. Polvonariq xumdoni olovxonasi yoʻlagining umumiy koʻrinishi.

Changalli xumdonlar. Nurobod tumani, Jarquduq MFY, Changalli qishlogʻida joylashgan. Mazkur xumdonlar mahalliy aholi oʻziga qarashli boʻlgan tomorqa yeridan tuproq olishi natijasida uning pishirish qavati va olovxonasi yaxshi saqlanib qolmagan.


1-xumdon. Changalli soyining chap tomonida, uning 80 m uzoqlikda joylashgan boʻlib, xumdonning faqat olovxona qismi saqlanib qolgan (5-rasm). Xumdon olovxonasi saqlanib qolgan, devor balandligi 1,2 m. qolgan tomonlaridagi devorlari saqlanib qolmagan. Xumdonning devori va uning poli kuchli yongan olov taʼsirida qizgʻish tus olgan. Olovxona devori 3-5 sm qalinlikda toshqol boʻlib kuygan. Uning poli aylana shaklda boʻlib, diametri 1,7 m. Xumdon polidan toshqol boʻlaklari, tuproq hamda kul qatlam qayd etildi.

2-xumdon. 1-xumdon 12 m janub tomondan joylashgan bo'lib, uning faqat olovxona qismi saqlanib qolgan (6-rasm). Xumdon olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan bo'lib, yumaloq shaklda, uning g'arbiy tomonidagi saqlanib qolgan devor balandligi 1,2 m. Qolgan tomonlardagi devorlari saqlanib qolmagan. Xumdonning devori va uning poli kuchli yongan olov ta'sirida qizg'ish tus olib, olovxona devori 3-5 sm qalinlikda toshqol bo'lib kuygan. Uning poli aylana shaklda bo'lib, diametri 1,7 m. Xumdon polida toshqol bo'laklari, tuproq hamda kul qatlami qayd etildi.


3-xumdon. Chanalli soyining o'ng tomonida joylashgan bo'lib, mahalliy aholining tuproq olishi natijasida buzilib ketgan. Mazkur xumdonning olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan bo'lib, yumaloq shaklda, diametri 1,9 m (7-rasm). Olovxona devorlari granit toshlaridan qilingan, qalinligi 10-12 sm. Shuningdek, olovxonadan pishirish xonasiga yuqori haroratni o'tkazib beruvchi hil novlari ham qayd etildi, uning o'lchamlari 20-21x20 sm. Olovxona tomi qulab tushganligi sababli pishirish qavati yaxshi saqlanib qolmagan. Xumdonning pishirish qavati xom g'ishtlar yordamida ko'tarilgan, yumaloq shaklda, diametri 2,2 m. Mazkur xumdonda kulolchilik charxida yasalgan xurmacha va yog'log'ining gardish bo'laklari qayd etildi hamda bunday turdagi idishlar ilk o'rta asrlarda Sug'dda keng tarqalgan (8-rasm).

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda sopol idishlar pishirishga ixtisoslashgan xumdonlarning takomillashgan shakli yumaloq shakldagi, ikki yarusli, gumbazsimon shakldagi xumdonlar bo'lib, ular kulollik idishlarini pishirishda qulayligi bilan bir qatorda yoqilg'i mahsulotlarini tejashga ham mo'ljallangan (Sandiboyev, 2020. B. 85).


Jomboy va Changallida qayd etilgan xumdonlar ham ilk o'rta asrlarga oid ikki yarusli yumaloq shaklda qurilgan bo'lib, bu o'z navbatida sopol idishlarni pishirishda qulayligi bilan bir qatorda yoqilg'i mahsulotlarini tejashga ham olib kelgani ehtimoldan xoli emas.




3-rasm. Xumchalar




4-rasm. Sopol idishlar




5-rasm. Changalli: Xumdon 1 ning umumiy ko‘rinishi, chizmasi va kesmasi.



6-rasm. Changalli: Xumdon 2 ning umumiy ko‘rinishi, chizmasi va kesmasi.



7-rasm. Changalli: Xumdon 3 ning umumiy ko‘rinishi, chizmasi va kesmasi.



8-rasm. Yog‘log‘ va xurmacha.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердимуратов А.Э., Самибаев М.К. Храм Джартепа. Ташкент, 1999.
2. Иваницкий И.Д. Саратепа-2 – поселение керамистов середины I тыс. до н.э. под Самаркандом // ИМКУ. Вып. 26. Ташкент, 1992.
3. Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Ташкент, 2000.
4. Лебедева Т. Керамика Афрасиаба V–VI вв. н.э. // ИМКУ. Вып. 23. Ташкент, 1990.
5. Маршак Б.И. Керамика Согда V–VII веков как историко-культурный памятник (К методике изучения керамических комплексов). Санкт-Петербург, 2012.
6. Раҳимов К.А., Саидов М.М., Эргашев О.Т. Кубаев С.Ш., Сандибоев А.Н. Жомбой туманида олиб борилган археологик тадқиқотлар//Археологические исследования в Узбекистане 2012 гг. Вып. 9. Самарканд, 2013.
7. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII – начала XIII вв.) // Археология Центральной Азии: архивные материалы. Т. I. Самарканд, 2015.

NUROBOD TUMANI QOYATOSH SURATLARI

*Xolmatov A.N., Sandiboyev A.N.,
Soriyev X.Y., Botirov I.R. –
Samarqand arxeologiya
instituti xodimlari*

O'rta Zarafshon havzasidagi Ziyovuddin tog'ining Changallisoy, Quduqchasoy, Tuyatosh kabi soy va daralarda hamda Nurota tog' tizmasidagi Garashasoy, Mixiyamsoy daralarida yangi qoyatosh rasmlari topib o'rganildi va arxeologik xaritaga olindi (1–2-rasmlar).




1-rasm. Ziyovuddin tog' tizmasi yangi qoyatosh rasmlari xaritasi.



2-rasm. Nurota tog‘ tizmasi va yangi qoyatosh rasmlari xaritasi.

Nurobod tumani hududida olib borilgan dala qidiruv tadqiqotlari natijasida aniqlangan yangi qoyatosh Ziyovuddin tog‘ining Chagallisoy, Uchtayoq, Hazrati Ali, Quduqchasoy, Tuyatosh kabi soy va daralarning yon qayirlaridagi ba’zi qoyalarga urib-cho‘kichlab ishlangan. Bu soylarda qadimgi ajdodlarimiz tomonidan chizilgan rasmlar nisbatan kam bo‘lib, ular urib-cho‘kichlash texnikasi, soya, sxematik va yarim sxematik uslublarda chizilgan. Xususan, Chagallisoyda amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida bu yerda ikkita joyidagi qoyatoshlarda tasvirlar borligi aniqlanib ro‘yxatga olindi. Bu qoyatosh rasmlari orasida odam, tog‘ echkisi, arxar, jayron, ot, tuya, echki, bo‘ri, it, suvoriy (otliq), tamg‘a, turli shakldagi belgilar (солярный знак), kiril harfidagi yozuvlar, abstrakt (mavhum) tasvirlar va chala qoldirilgan hamda noaniq – xira ishlangan rasmlar borligi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Hazrati Ali yangi qoyatosh rasmlari.

Shuningdek, dala qidiruv ishlari Changalli qishlog‘i janubiy-g‘arbiy tomonidan joylashgan Otsonabobo, Langar, Qo‘shshasigir va boshqa qishloqlar atrofidagi soy daralarida davom ettirilib, Changalli qishlog‘ining shimoliy–g‘arbidagi Uchtayoq deb nomlanuvchi joydagi qoyatoshda hamda Langar qishog‘i shimolidagi Hazrati Ali xarsangtosh sirtlarida ham yangi qoyatosh rasmlari aniqlanib ro‘yxatga olindi. Qoyatosh rasmlari orasida asosiy syujet tog‘ echkilari hisoblanadi. Ular qadimgi rassomlar tomonidan har xil mazmunda ishlangan bo‘lib, ular o‘q-yoy bilan quorollangan ovchilar yoki it va bo‘rilar ta‘qibidan qochib borayotgan turli kompozitsion sahnalarda yoki biror narsadan hurkib chopib ketayotgan holatda, ba‘zilari esa sokin turgan holatlarda ishlangan (4-rasm).

Tadqiqotlar davomida Nurobod tumani Tim qishlog‘i yaqinida Quduqchasoy, Tuyatoshda ham yangi qoyatosh rasmlari ro‘yxatga olindi. Bu yerdagi toshlarda suvoriy, yovvoyi tog‘ echkilari, arxar, turli geometrik belgilar, qadimgi turkiy-run bitiklari (taxmin) va alohida harflar kabi tasviyrlar ham uchraydi. Xususan, Quduqchasoyda aniqlangan va biz tomonimizdan turkiy-run yozuvi deb taxmin qilina-yotgan tasvirlar ayniqsa diqqatlidir. Bu yerda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida qoyatoshdagi bu turli belgi tasvirlari diqqat bilan o‘rganilib, bu belgi tasvirlari respublikamiz va unga qo‘shni davlatlarning turli hududlaridan topib o‘rganilgan turkiy-run yozuvlari

qiyosiy o‘rganib, mana shu taxminiy xulosalarni ilgari surmoqdamiz. Ular har xil shakllarda, ya’ni aylana, burchakli, uchburchak, ovalsimon ko‘rinishlarda aks ettirilgan. Bu rasmlarning ko‘pchiligi uzoq yillik tabiat hodisalari ta’siri natijasida yemrilib, siypalanib noaniq-xira holatlarga kelib qolgan (5–6-rasmlar). Shu kunga qadar respublikamiz hududida bu kabi yozuv namunalari olimlar tomonidan topib o‘rganilgan. Masalan, Nasimxon Rahmonov va Boqijon Matboboyevlar “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari” nomli ilmiy-om-mabop risolasida O‘zbekistondan 20 dan ortiq turkiy-run yozuvidagi matn parchalarining topilishi bilan ularning jahon ilm-faniga ma’lum bo‘lishi, mashhur sharqshunos, yozuvshunos olimlarning diqqatini jalb etishi va ilmiy jihatdan talqin qilinishi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.



4-rasm. Uchtayoq yangi qoyatosh rasmlari.

Bu dala qidiruv tadqiqotlari Tuyatosh hududlarida ham davom ettirilib, bir qancha yangi qoyatosh rasmlari topib o‘rganildi. Bu yerdagi qoyalarda yovvoyi tog‘ takalari, suvoriylar, bo‘ri, it, ot, xonaki echki va boshqa tasvirlar uchraydi. Ular orasida suvoriylar tomonidan tog‘ echklari ov qilish manzarasi ayniqsa diqqatlidir. Tasvirlarning ba’zilari bir-birining ustidan ishlanib, biri ikkinchisini qoplab

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

qolgan. Rasmlar 15 sm dan to 40 sm. gacha boʻlgan turli oʻlchamlarda chizilgan (7-rasm).

Shuningdek, joriy yilda bunday qidiruv tadqiqotlari Shimoliy Nurota togʻ tizmasi janubiy yonbagʻridan oqib tushuvchi Garashsoy va uning atrof hududlarida ham amalga oshiriladi. Bu qidiruv tadqiqotlari natijasida Garashsoy va Mixiyamsoyda yangi qoyatosh rasmlari borligi aniqlanib xaritaga tushirildi. Bu soy daralaridagi qoyatoshlarida odam, turli yovvoyi hayvonlar; togʻ echkilari, tuya, ot, it hamda suvoriy tasvirlari qayd qilindi. Ular qadimgi rassomlar tomonidan urib–choʻkichlash, ishqalash, tirnab chizish texnikalarida soya, sxematik uslublarda ishlangan (8–9-rasmlar).



5-rasm. Quduqchasoy qoyatosh rasmlari (Turkiy–run yozuvlari bilan).

Vohada amalga oshirilgan kompleks tadqiqotlar jarayonida bu qoyatosh rasmlaridan tashqari qadimgi mozorlar, qishloq uylari xarobalari aniqlanib, xaritaga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердимуратов А.Э., Самибаев М.К. Храм Джартепа. Ташкент, 1999.
2. Иваницкий И.Д. Саратеpe–2–поселение керамистов середины I тыс. до н.э. под Самаркандом // ИМКУ. Вып. 26. Ташкент, 1992.
3. Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. Ташкент, 2000.
4. Лебедева Т. Керамика Афрасиаба V-VI вв. н.э. // ИМКУ. Вып. 23. Ташкент, 1990.
5. Б.И. Маршак. Керамика Согда V-VII веков как историко-культурный памятник (К методике изучения керамических комплексов). // СПб: Изд-во Гос. Эрмитажа. 2012.
6. Раҳимов К.А., Саидов М.М., Эргашев О.Т. Кубаев С.Ш., Сандибоев А.Н. Жомбой туманида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Археологические исследования в Узбекистане 2012 гг. Вып. 9. Самарканд, 2013.
7. Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том 1. / Соколовская Л.Ф. Негла-зурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII начала XIII в.). Самарканд: МИЦАИ, 2015.

ABADIYATGA DAXLDOR TIM QISHLOG‘I

*Eshmanov G‘.J. –
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Ma‘lumki, Markaziy Sug‘d vohasi hududiga Samarqand va unga tutash tog‘lik va tog‘oldi mavzelari kirgan. Geografik nomlar, ya‘ni toponimlarda xalq tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, tili bilan bog‘liq ma‘lumotlar o‘z ifodasini topadi. Ularning ba‘zilari ming yillardan beri saqlanib kelayotgan bo‘lsa, ayrimlari unutilib ketgan, boshqalarini esa faqat tarixiy asarlarda yoki turli yozma manbalar orqali to‘ldirish mumkin. Samarqand shahri, viloyati va tog‘oldi hududlari insoniyat yashagan qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri. Shuning uchun bu hudud bilan bog‘liq minglab nomlar yoshi tarixan bir necha asrlar bilan o‘lchanadi. Toponimlar, ularning etimologiyasini tadqiq qilish o‘lkamiz tarixi bilan bog‘liq voqealarni ochishda yordam beradi.

Nurobod tumanining g‘arbiy qismida Beshtol tog‘ darasi yoqasida Tim qishlog‘i ham ana shunday qadimiy qishloqlardan biridir. Avvalo **“Tim”** so‘zi nimani anglatadi? **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”**da **“Tim”** so‘zining quyidagi ma‘nolari berilgan: **Birinchisi**, bozordagi usti yopiq baland tom, ya‘ni savdo rastasi. **Ikkinchisi**, qora, qorong‘ulik kabi so‘zlar oldidan ishlatiladigan kuchaytiruvchi yuklamasi. Masalan, Tim-qora ko‘z. Agar tarixdagi afsona va rivoyatlarga e‘tibor bersak, bu ikkala ma‘no ham qishloq haqidagi mos mavjud haqiqatga mos keladi. Chunki Timda qachonlardir savdo ishlari keng rivojlangan va Timota ziyoratgohi ham mavjud bo‘lgan. (1-rasm) Timota ziyoratgohi X asrda mavjud bo‘lgan degan taxminlar bor.

Qorong‘ulik ma‘nosi ham bekorga tilga olinmaydi. Quyosh tog‘lar ustidan mo‘ralab chiqqandan keyingina Tim qishlog‘iga oftob tegadi. Va bu yer birinchilardan bo‘lib qorong‘ulikka oshno bo‘ladi. Tim qishlog‘ining cho‘l tomoni yaqinida **“Oq tunli”** nomli qismi bo‘lib, u qorong‘u kechaning eng yorug‘ joyi degan ma‘noda keladi.



1-rasm.

Tim qishlogʻida anchagina tarixiy obidalar mavjud boʻlgan, lekin, afsuski bu yodgorliklarni koʻpchiligi bizgacha toʻliq etib kelmagan.

Tarixshunos Poʻlat Zohidovning “Timdagi maqbara” kitobida Arab ota yodgorligi haqida soʻz boradi. Bu yodgorlik Oʻrta Osiyoda eng keksa yodgorliklardan biridir. Bu maqbara Buxoro viloyatining chekka burchaklaridan birida kim uchun qurilganini taxmin qilish ham qiyin⁶⁴. Qadimgi madaniyat markazlari Samarqand, Buxoro, Nasaf (Qarshi) va Kesh (Shahrissabz) shaharlaridan uzoqda, serqatnov yoʻllardan chetroqda, choʻlga tutash joyda shunday meʼmoriy moʻjiza yaratilgani dastavval tasodifdek koʻrinadi. Keyingi tadqiqotlar haqiqatni aniqlashtirdi. Tarixshunos Ibn al-Faqih(X asr) va Yoqut al-Hamaviyning koʻrsatishicha, oʻrta asrlarda Sugʻdiyoning Tim manzili mashhur kentlar qatoriga kirgan⁶⁵.

Bundan tashqari, Tim qishlogʻida XV asrning 2-yarmi – XVI asr boshlarida qurilgan Oq machit yodgorligi ham mavjud. Oqmasjid peshtoqli, ravoqli, bir xonali meʼmoriy inshoot boʻlib, tepasi gumbaz qilib yopilgan. Devorlari ganch bilan qoplangan. Eshik tepasidagi tobadan ganchgacha panjara bilan bezatilgan. Uning tepasiga darcha ishlangan. Ichki xonasining gumbazosti yogʻochlari 16 qirralli, ravoqsimon qilib yasalgan. Janubi-gʻarbiy devoriga mehrob mavjud boʻlib,

⁶⁴Религии Центральной Азии и Азербайджана. Том V. Ислам. Самарканд: МИЦАИ, 2020. – С 270.

⁶⁵ А.Э Бердимуродов., С.С.Суёнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1–том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2–қисм. - Самарқанд: “Зарафшон”, 2015. 35-бет.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

umumiy o'lchami 14,78x12,41 m.ga, xonaqoh hajmi 7,10x7,10 m.ga teng. Inshoot devorlari pishiq g'ishtdan (o'lchamlari 27x27x6 sm) ganch qorishmasi bilan terilgan.

Tim qishlog'ining yana bir o'ziga xos yodgorligi bo'lib, bu uning iqlimini ko'rsatuvchi mingyillik archasidir. (2-rasm)



2-rasm.

Shuningdek, Tim qishlog'idan Buyuk Ipak yo'lining mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri o'tgan, ya'ni Samarqanddan chiqqan savdo karvonlari Kattaqo'rg'on, Dobusiya orqali Qoracha tog'laridagi buloq suvlaridan bahramand bo'lib, Tim qishlog'iga yetib kelgan va so'ngra janub tomonga Qarshi, g'arb tomonga Buxoro tomon o'z safarlarini davom ettirganlar. Chunki Tim qishlog'i

markaziy, gʻarbiy va janubiy Sugʻdni birlashtirib turgan savdo karvon yoʻlining chorrahasida joylashgan maskan hisoblangan.

Xullas, Tim qishlogʻi bugungi kunda uzoq oʻtmishmizning tarixiy obidalarini oʻz bagʻrida saqlagan sir-sinoatlarga boy makonlaridan biri boʻlib, uni asrab-avaylamoq biz avlodlar zimmasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.— Ўзбекистон ССР ФА А.С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти. Москва. “Рус тили” нашриёти.1981.
2. Зоҳидов П.Ш. Тимдаги мақбара. – Тошкент.1984.
- 3.А.Э. Бердимуродов., С.С.Суюнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1–том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2–қисм. - Самарқанд: “Зарафшон”, 2015.
4. Религии Центральной Азии и Азербайджана. Том V. Ислам. Самарканд: МИЦАИ, 2020.
5. Эшманов Ғ. Абдиат остонаси.—Тошкент. 2017.

NUROBOD TUMANI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI

*Yorqulov A. –
tadqiqotchi (Jom qishlog‘i)*

Miloddan avvalgi II asrda shakllangan Sharqdan G‘arbga qarab 12.000 km ga cho‘zilgan Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘ida joylashgan Nurobod tumani viloyatimizning hududi jihatidan eng kattasi hisoblanadi. Tumanimiz hududidan o‘tadigan Toshkent–Samarqand; Nasaf–Termiz; Kobul hamda Xiva–Buxoro; Shahrisabz karvon yo‘lida bir qancha qadimiy yodgorliklar mavjud. Bular Samarqand–Qashqadaryo yo‘nalishidagi; Tepaqul; Sazag‘an, Eyrig‘ul, Oqsoy, Mehnatkash, Qizil karvon, Sarikul, Anjirli, Ibrohimota va Jom qishloq. Xiva–Shahrisabz yo‘nalishida esa Tim, Buloqboshi, Musaqoq, Ulus, Jom, Beshbarmoq, Cho‘nqaymish, Yo‘rg‘abuloq qishloqlari. Bundan boshqa ham qishloqlar bo‘lib, ular unchalik katta bo‘lmagan.

Tumanimizdagi bugungi kungacha o‘rganilgan arxeologik yodgorliklari unchalik ko‘p emas. 2015-yilda Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti olimlari tomonidan tayyorlagan Nurobod tumanining Arxeologik katalogida 47 ta yodgorlik tepalari va ularning qisqacha tavsifi, davri kodi, saqlanishi, maydoni, o‘rganilgan vaqti aerofototasviri, arxeologik topilmalaridan namunalar keltirilgan. Ayrim arxeologik yodgorliklar esa kiritilmay qolgan. Masalan, Jom qishlog‘ida faqat Katta tepalik kiritilgan. Girdiqo‘rg‘on, Qo‘sh-tepa, Said Kamol mozor tepalilari, Sonsuvloq ota, Rabot, Qirg‘intepa, Yakkatol kiritilmagan. Faqat tepaliklar kiritilgan. Vaholanki, faqat Jom qishlog‘ining o‘zida 50 ga yaqin topilma obyektlari ma‘lum.

Tumanimizdan topilgan eng qadimiy topilmalardan biri Jomdagi Gazabetdan topilgan bundan 20.000-yil oldin yasalgan tosh quroldir. Undan keyingilari o‘rta tosh, yangi tosh, bronza, antik davr va keyingi davrlarga tegishli ashyolardir. Mezolit o‘rta tosh va neolit yangi tosh davri faqat Sazag‘an qishlog‘ida qazib o‘rganilmoqda. Jomda faqat razvedka ishlari birozgina o‘rganilgan xolos. Qadimda odamlar feruza va chaqmoqtosh konlarni ham topib, ulardan turli asboblardan yasagan. Masalan, Changalli qishlog‘ida temir rudasi qazib olingan. Jomdagi ohaktosh pishirilib G‘ishtband to‘g‘onini qurishda foydalan-

gan. Jom qishlog'idan topilgan mis tesha Samarqand yoshini 1000-yilga qadamiylashtirib, 3500 yoshga oshirdi. Bu Rimdan 500-yil avval sivilizatsiya shakllanganini isbotlaydi. Bronza davriga oid bug'u tasviri ishlangan bronza haykalcha, oyna, zirak – bilaguzuk, munchoqlar, toshdan ishlangan mon paykonlari bu hududda bundan 5000-yildan avval odamlar mohir usta hunarmandlar bo'lganligini bildiradi. Yana bir muhim manba hisoblangan turk runiy alifbosi va Zardushtlikda hosildorlik ma'budi bo'lmish Anaxita ramzi tushurilgan bug'doy boshog'i tasviri ham Jomda Kaltasoy mavzesidan topilgan.

Bu belgi qadimgi Shumer davlati alifbosidan ham uchraydi. Bu shuni ko'rsatadiki, Jomda ma'rifatga intilish o'sha zardushtlik davrida ham mavjudligini isbotlaydi.

Faqat Jom qishlog'ining o'zida sayyohlarni qiziqtiradigan borib ko'radigan tepalar, qoyatoshlar, rasmlar, g'orlarni ham hisoblasak 30 dan oshadi. Bularni ro'yxatini keltiramiz;

Tepaliklar;

- 1.Kattatepa
- 2.Sonsuvloq tepa
- 3.Qo'shtepa
- 4.Girdiqorg'on
- 5.Said Kamol qabristoni
- 6.Yakkatol
- 7.Nomsiztepa
- 8.Qirg'intepa
- 9.Qiziltepa

Boshqa tarixiy obyektlar:

- 1.Do'g'ob
- 2.Beshbarmoqda
- 3.Cho'nqaymishda
- 4.Annaziratda Taloqyopgan
- 5.Cho'nqaymish masjidi
- 6.Jomdagi eski Mulla Muhiddin masjidi YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

- 7.So'fi Olloyor manzili
8. Yalangoyoq eshon ziyoratgohi
- 9.Qurbonlik toshi
- 10.G'ishtband suv ombori

11. Suv tegirmon - Cho‘nqaymish
12. Arab yozuvi toshi
13. Kaptarxona g‘ori
14. Qizilg‘ori g‘ori
15. Haprinbobo qabrtoshi
16. Beshbarmoq g‘alati toshlari
17. Annazirat toshlari
18. Annazirat yorg‘uchoq toshlari
19. Taxti Iso xarsangtoshi
20. Cho‘nqaymish tutlari
21. Tutzor bronza davri manzilgohi
22. O‘rtabuloq
23. Jom ota ziyoratgohi
24. Sonsuvloq ziyoratgohi

Jom qishlog‘idagi tarixiy obidalar

1. Kattatepa V-VIII asrlar 1,5 gektar
2. Sonsuvloq tepa – davro noaniq, aniqlanmagan
3. Qo‘sh tepa – antik davr
4. Girdiqo‘rg‘on – V-VIII asrlar
5. Said Kamol tepa (qabriston)
6. Yakkatol mil.avv. III asrlar (antik davr)
7. Qizg‘intepa
8. Qizilqat tepa – o‘rganilmagan

Boshqa tarixiy obyektlar

1. Dog‘ol qoyatosh rasmlari mil.avv. I ming yillik
2. Beshbarmoq petrogliflari mil. avv. I – milodiy VII asr
3. Cho‘nqaymish petrogliflari mil. avv. I va milodiy yilliklar
4. Talqiyopgan oxrada chizilgan tasvirlar mil.avv. 10 000 yil
5. Cho‘nqaymish masjidi, XIX asr oxiri XX asr boshlari
6. Jomdagi Mullo Muhiddin masjidi, XIX asr oxiri XX asr boshlari
7. So‘fi Olloyor manzili (Cho‘nqaymishda) XVIII asr
8. Yalanoyoq eshon ziyoratgohi (Beshbarmoq q-g‘i)
9. Qurbonlik toshi (Qizilqatda) eramiz boshlari mil.avv. 2 – milodiy VII asr
10. G‘ishtband suv ombori XII asr (Qoraxoniylar davri)
11. Suv tegirmon XIX asr

12. Arab yozuvli tosh Annazirat sharqida davri noma'lum
13. Qizilg'o'ri go'ri (Beshbarmoq q-g'i) mil.avv. I ming yillik
14. Haprinbobo qabristoni XIV asr
15. Annaziratdagi yurg'uchoq toshlari ilk o'rta asrlar
16. Tutzor (Gala sherik) bronza davri mil.avv 3-2 ming yillik
17. Galasherik So'nggi bronza (Andronova madaniyati) davri
18. O'rtabuloq (Antik davri) qabriston. Sopol antic davrga tegishli
19. Kaltasoy bitiktoshi mil.avv. I ming yillar – milodiy VII asr



*Antik davr tangalari.
(chapdan o'ngga) Antioy, geliokl, kushonshohlar tangalari.*



*Zardushtiylik dinidagi hosildorlik ma'budi Anaxita ramzi hisoblangan
bo'g'doy boshog'i. Miloddan avvalgi 1 ming yillik*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Э. Бердимуродов., С.С.Суюнов, Х.Я. Сориёв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1–том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2–қисм. - Самарқанд: “Зарафшон”, 2015. 22-26 бетлар.

2. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010-2011 йиллар 8 сони. Самарқанд, 2012. 6. 90-100.

3. Soriyev X.Y., Botirov I.R. Nurobod ham qadimiy maskan. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. -№12/3 (121), 2024 y. – 84-92 betlar.

4. Avanesova N, Shaydullaev Sh, Yorkulov A. Dzam - ein neuer bronzezeitlicher Fundort in der Sogdiana // AMIT. Band 33. - Berlin, 2001. P.321-337.

AG‘RON – QADIMIY QISHLOQ

*Soriyev X.Y. – O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
STOM Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik
kafedrasi katta o‘qituvchisi.,
Xudayberdiyeva Sh.M. – Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
arxeologiya kafedrasi II kurs magistranti.,
Eshnayev E.X. – Nurobod tumani
55-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi.*

Qadimiy yurtimiz boy va betakror tarixga ega. Yurtimizning qay go‘shasiga qadam qo‘ymang, albatta biror bir muqaddas ziyoratgoh yoki o‘ziga xos betakror bunyodkorlik echimiga ega bo‘lgan tarixiy yodgorlikka duch kelasiz. Jumladan, bugungi kunda 160 mingdan ortiq aholi yashayotgan Nurobod tumani hududida ham ko‘plab tarixiy joylar, me’moriy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, tarixi uzoq-yillarga borib taqaluvchi qishloqlar mavjud.

Tumanning 7 mingga yaqin aholisi istiqomat qilayotgan Ag‘ron qishlog‘i tarixi ham uzoq o‘tmishga, ya’ni bundan bir yarim ming-yillarga (bizningcha) borib taqaladi. Qishloq hududida joylashgan va bugungi kunda Usmon ota qabristoni deb ataladigan qabriston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar buni yaqqol tasdiqlaydi.

2024-yil 10-aprel kuni Nurobod tuman hududida arxeologik tadqiqot olib borayotgan Samarqand arxeologiya instituti ilmiy ekspeditsiyasi a’zolari bilan institut yetakchi ilmiy xodimi Komiljon Rahimov rahbarligida Ag‘ron qishlog‘i hududida dala qidiruv tadqiqot ishlarini olib bordik. Bu yerda birinchi navbatda e’tiborni tortadigan holat Usmon ota qabristoni deb atalgan tepalik ustiga qurilgan gumbazli xonaqohdir. Xo‘sh, bu xonaqoh bu yerda qachon va qay tarzda paydo bo‘lgan? Bu savolga javob topish uchun avvalo bu qabriston – tepalikning o‘zi qachon va qay tarzda paydo bo‘lgan degan savolga javob topishga to‘g‘ri keladi.

Geografik jihatdan olib qaraganda, tepalik shimol tomondan shu hududda muhim strategik mavqega ega, hudud ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan Changalli, Ostonabobo,

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

shimoliy-gʻarb tomondan Tim, janubiy sharq tomondan Jom qishloqlari oʻrtasida joylashgan. Bizning fikrimizcha, Usmon ota qabristoni joylashgan tepalik V-VII asrlarda turk hoqonligi davrida mustahkam harbiy qoʻrgʻon boʻlib, koʻchmanchi-chorvador aholining savdogarlar bilan qizgʻin savdo-sotiq qiladigan muqim joy boʻlgan. Usmon ota qabristonida loy pishiriladigan xumdon qoldiqlarining topilgani bu yerda hayot naqadar gavjum boʻlganini tasdiqlaydi. Buni qabriston hududida topilgan sopol pishirish qoldiqlari (shlaklar) tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm.

Bu haqda Samarqand arxeologiya instituti olimlari Amriddin Berdimurodov, Samaridin Suyunov va mahalliy tarixchilardan Xolmurod Soriyevlar tomonidan 2011-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar maʼlumot beradi. Oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, bu tepalikda joylashgan qoʻrgʻon bir paytlar gavjum joy boʻlgan, u harbiy istehkom vazifasini bajarish bilan bir qatorda muhim savdo markazi sifatida faoliyat koʻrsatgan. Qoʻshni Tim, Sahoba, Changalli qishloqlaridan chiqqan savdo karvonlari aynan shu yerda toʻxtab (hududdan topilgan arxeologik topilmalar ham buni tasdiqlaydi), ular suv quduqlarining mavjudligi sababli koʻchmanchi chorvador aholi bilan savdo-sotiq qilishib, bir tarafi Qarshiga, ikkinchi tarafi Jomga qarab oʻz yoʻllarida davom etishgan.

Arxeolog olimlar A.Berdimurodov va K.Rahimovlarning xulosalariga ko'ra, Usmon ota qabristonidagi gumbazli xonaqoh g'ishtlari XVI asrga ya'ni Abdullaxon II hukmronligi davriga oid bo'lib (tarixdan ma'lumki, ushbu hukmdor davrida yurtimizda hunarmandchilik, savdo-sotiq keng rivojlangan), faqat gumbazli xonaqoh hozirgi qad ko'targan joyida emas, birmuncha sharq tomonda bo'lgan. Taxminan 250-300 yillar oldin eski g'ishtlari ko'chirib olinib, hozirgi turgan joyiga qayta qurilgan. 1966-yilda esa mahalliy ustalar tomonidan yangisi qurilgan (2-rasm).



2-rasm.

Movarounnahr hududida arablar hukmronligining o'rnatilishi, hududga islom dinining tarqalashi bilan bu qo'rg'onning ahamiyati yanada ortgan. Endi arab xalifaligi hukmdorlari qo'rg'onidan islom dini keng yoyishda, aholini musulmon diniga kiritishda keng foydalanishgan. Shu bilan birga, bunday aholi bilan gavjum joylarning tarixini, nomlanishini islom olamidagi mashhur kishilar kelib chiqish tarixi bilan bog'lash an'anasi paydo bo'lgan. Fikrimizcha, Nurobod tumani hududidagi Arab ota, Sahoba ota, Usmon ota, Jom ota kabi nomlanishlar shu holat bilan bog'liq bo'lsa kerak. Shuningdek, doimo gavjum bo'ladigan yerda aholi bilan o'zaro muloqot qilish, ularni islom diniga kirishga targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish imkoniyati yuqori bo'lgan. Shu sababdan hududdagi ko'chmanchichorvador aholini islom diniga kiritish uchun Tim qishlog'ida O'rta

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

Osiyodagi ilk diniy markazlardan biri – Arab ota maqbarasi va bu yerda islom dinini chuqur o'rgatadigan diniy markaz sifatida faoliyatini boshlagan bo'lishi mumkin. Afsuski, bu diniy markaz faoliyati haqida ilmiy-tadqiqot ishlari hali olib borilmagan.


Usmon ota ziyoratgohi ham xuddi shu maqsadda, ya'ni aholi gavjum joy bo'lgani uchun tanlangan, shu yerdan turib aholini islom diniga kirish targ'ib qilingan va keyinchalik vafot etganlarni dafn etadigan qabristonga sifatida vujudga keladi. Bu yerda ko'plab diniy ulamolarning dafn etilganini isbotlovchi qabr tosh(16-18 asrlar)lar borligi buning isbotidir (3-rasm).



3-rasm.

Usmon ota qabristoni deb ataladigan qadim qo'rg'ondan uncha uzoq bo'lmagan masofadagi Saritepa yodgorligidan yaqinda topilgan tarixiy buyumlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu yerdan V-VII asrlarda dafn etilgan turk jangchisining qabri topilgan. Turkiy xalqlar odatiga ko'ra, jangchi qurol-yarog'lari va oti bilan birgalikda dafn etilgan. Shuningdek, qabrda topilgan kamon o'qlari va sopol idishlar,

ot bosh suyagi qoldiqlari o'sha davr hunarmandchiligi va madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sopol idishlardan jangchi-ning suvdoni juda yaxshi saqlangan. Suvdonning bir tarafi belga yoki otga osib olib yurish uchun yassi, silliq qilib yasalgan. Eng qizig'i, bu buyumlar bilan birga xuddi tuxumga o'xshash tosh ham topildi (4-rasm).



4-rasm.

Ag'ron qishlog'ining shimoli-g'arbiy qismida Ingichkasoy suv tarmog'idan bosh olgan eski quruq o'zanlari qayd etildi. Bu uzan orqali Saritepa yodgorligi atrofidagi yerlar o'zlashtirilgan⁶⁶. Qo'rg'on-ning oldingi pastki qismidan mavsumiy oqar suv – hududdan sharq

⁶⁶А.Е. Бердимуродов., С.С.Суёнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1-том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2-қисм. - Самарқанд: "Zarafshon", 2015. 31-бет.

tomonda joylashgan qo'shni Qo'rg'oncha, Buloqboshi qishloqlaridagi tog'lardan boshlangan Ingichkasoy shu yerdan oqib o'tib, hozirgi Qashqadaryo viloyatining Koson tumani hududiga borib qurib qolgan. Nurobod tuman suv xo'jaligi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, bahor oylarida Ingichkasoydan 0,25 m³/sek gacha suv oqqanligi kuzatilgan. Tadqiqotlar Ingichkasoydan sel kelgan vaqtlarda ortiqcha suvlar Qashqadaryo viloyatining Koson tumani hududidagi yerlarni sug'orishga sarf bo'lganligini ko'rsatadi. Bu xulosa isbotini topdi. (S.K.Kabanov ham tadqiqotlarida shunday fikrni ilgari surgan).

Ingichkasoy, Tepaqulsoy havzalarida aholining o'troqlashuvi miloddan avvalgi II-I asrning boshlarida vujudga kelgan (Jo'raqulov, Avanesova, 1984, B. 32)⁶⁷. Fikrimizcha, Ag'ron qishlog'i hududlarida aholining o'troqlashuvi ilk o'rta asrlar (milodiy V-VII asrlar) davrlarga to'g'ri keladi.

O'rta asrlarda hozirgi Ag'ron hududi Abg'ar rustoqi tarkibiga kirgan. IX-XII asrlarga oid arab manbalarida Abg'arni rustoq sifatida tilga olib u Darg'om rustoqiga tutash bo'lgan. Al-Istaxriy asarida Abg'ar rustoq sifatida tilga olinib, uning qishloqlari Samarqand rustoqlaridagidan ko'p bo'lganligi qayd etilgan. Ibn Havqal esa "Abg'ar aholisining asosiy boyligi chorva bo'lib, bu yerda oqar suv yo'q. Abg'ar rustoqining uzunligi taxminan ikki kunlik yo'lni tashkil etadi. Ayrim hollarda bir qishloqqa qarashli yerlar ikki va undan ortiq farsaxni tashkil etadi. Aytishlaricha, agar Abg'arning hosili nobud bo'lmay butun qolsa, uning o'zi Sug'dga yetarli bo'ladi", deb zikr etadi⁶⁸.

As-Sam'oniylar asarida Abg'ar tarkibida bir necha qishloqlar mavjud bo'lganligi qayd etilib, ulardan faqat Samarqanddan 5 farsax uzoqlikda joylashgan Xar'un va Taxsija nomli qishloqlar eslatib o'tilgan. Al-Muqqaddasiy "Abg'arning qishloqlari ko'p. Uning yerlari ko'pincha yomg'ir suvi bilan sug'oriladi. Agar hosil yaxshi bo'lsa, butun Sug'dni ikki yil boqishini" qayd etadi. Abg'ar nomi qadimgi eronchada upa (abi) –gari "tog' usti" so'zidan yasalgan bo'lib, V.V.Bartoldning qayd etishicha, Abg'ar XX asrda Chashmaob deb nomlangan⁶⁹.

⁶⁷ Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010-2011 йиллар 8 сони. Самарқанд, 2012. 6. 90-100

⁶⁸ Ибн Ҳавқал. Китоб сурут ал – ард / Араб тилидан ўзбек тилига Ш.С. Камолиддин таржимаси. – Тошкент, 2011. Б. 62-63.

⁶⁹ Асланов А. Марказий Суғднинг Абгар рустоқи ва Зарман қишлоқлари локализацияси хусусида. "Ўзбекистон археологиясининг долзарб масалалари" мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари.–Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. 32-34-бетлар

Manbalarda zikr etilgan Abg‘ar rustoqini hozirgi Nurobod tumani hududiga joylashtirish mumkin. Arxeologik qidiruv ishlari natijasida aniqlanishicha, Abg‘ar rustoqi hududida qishloqlar ahamoniylar davridan boshlab shakllangan hamda antik va ilk o‘rta asrlarga kelib, ularning soni yanada ortgan. Abg‘ar rustoqining markaziy shahri Jom qishlog‘i hududidagi Kattatepa o‘rnida bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. Mazkur yodgorlik Samarqanddan Kesh, Termiz va Nasafga ketadigan yirik savdo yo‘llari ustida joylashgan yirik shahardir. Hozirgi kunlarga Kattatepaning arki to‘laligicha, shahristonning esa kichik bir qismi saqlanib qolgan. Shaharning qolgan qismlari zamonaviy uy-joylar qurilishi munosabati bilan buzilib ketgan⁷⁰.

Abg‘ar qishloqlari Zarafshon tog‘ tizmalaridan mavsumiy oqib keluvchi Ohaliksoy, Mironqulsoy, Sazag‘onsoy, Oqsoy, Sarig‘ilsoy, Anjirlisoy kabi soylardan suv ichganlar. Biz tarixini o‘rganayotgan Ag‘ron qishlog‘i hududiga esa hozirgi Ingichka qo‘rg‘oni old qismida joylashgan tog‘lardan boshlangan Ingichkasoy suvlari mavsumiy oqib turgan.

Endi qishloqning nima uchun Ag‘ron nomi bilan atalish xususida fikrlarimiz. Bu haqda hozirda ikki xil qarash mavjud. Birinchisi, ba‘zi mahalliy ziyolilarining ta’kidlashicha, Ag‘ron – “suv bo‘yi” degan ma’noni bildirar ekan. Ular buning isboti sifatida maqolamiz yuqorisida keltirilgan Usmon ota qabristoni janub tomonidan oqib o‘tgan qadimgi Ingichkasoyning irmog‘ini va shu yerda bugungi kunda mahalliy aholi tomonidan shevada “Dubo” (Du-ob – forsiy, ikki suv) ataladigan tepalikni misol keltirishadi. Haqiqatdan ham bu yerda eng qadimgi davrlarda suv oqqanligini va Dubo tepaligi ikki tarafidan suv aylanib oqib o‘tganligini ham isbotlovchi daryoning qurigan o‘zani, mayda qumlar mavjud. Lekin, bizning fikrimizcha, bu holat qishloq nomining bunday atalishiga sabab bo‘la olmaydi. Etnograf, tarixchi va filolog olimlar (akademik K.Shoniyozov, professor-olimlar E.Musurmonov, S.Qoraev, Y.Nafasov, J.Yuldashev)-ning ilmiy tadqiqotlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, “Ag‘ron” atamasiga etnonim (hududda yashagan qabila, urug‘ nomi) sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Ya’ni, o‘zbekning 92 urug‘laridan biri bo‘lgan nayman urug‘ining bir tarmog‘i ag‘ron deb atalgan. Bu xususda S. Qorayevning quyidagi fikri ham muhim: “Naymanlar, asosan,

⁷⁰ Kўрсатилган адабиёт, Самарқанд: СамДУ нашриёти 2022 йил, 32-бет.

Zarafshon vodiysida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida o‘rnashib qolganlar; Xiva vohasi va Farg‘ona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar bo‘lgan. XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urug‘dan iborat bo‘lgan. Bular – qo‘shnamg‘ali, sadirbek va uvox-tamg‘ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi *ag‘ran*, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, boltali, bo‘qalay, burunsov, jag‘albayli, jastavon, *jilonli (ilonli)*, jumaloqbosh, *oltio‘g‘il*, oqto‘nli, po‘lotchi, segizuruv, sarinayman, *to‘rttuul (to‘rt-o‘g‘il)*, to‘rttamg‘ali, urguch, ukrash, *changali*, cho‘michli, g‘ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak, *qarg‘ali*, qiltamg‘ali, qo‘ltamg‘ali kabi tarmoqlarga ham bo‘lingan. Demak, bugungi kunda Nurobod tumanidagi Ag‘ron, Changalli, Qo‘chqorli, Qarg‘ali, Ilonli, Oltio‘g‘il, Tortuvli kabi qishloqlarning nomlanishida etnonimlar muhim rol bajargan va qishloqning uzoq o‘tmishidan xabar berib turuvchi argument sifatida tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda⁷¹.

Hali bu hudud ilmiy jihatdan deyarli o‘rganilmagan. Yuqorida berilgan ma’lumotlarning ham ko‘pi hali bahsli, munozarali masalalardir. Kelgusida bu ishlarni amalga oshirishga bel bog‘lagan fidoyi olimlarimizga omad tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал–ард/ Араб тилидан ўзбек тилига Ш.С. Камолиддин таржимаси. –Тошкент, 2011. Б. 62
2. А.Е. Бердимуродов., С.С.Суюнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1–том Самарқанд вилояти Нуробод тумани 2–қисм. - Самарқанд: “Zarafshon”, 2015.
3. Сандибоев А.Н. Маймурғ мулклиги илк ўрта асрларда (археологик ва ёзма манбалар асосида) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд, 2020. 48 б.
4. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нуробод воҳасида 2011 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010-2011 йиллар 8 сони. Самарқанд, 2012. б. 90-100.

⁷¹Yuldashev J.U. Nurobod tumanidagi ayrim etnooykonimlar xususida mulohazalar. TAMADDUN NURIjurnali, 2024-yil, 1-son, (52) 121-bet.

5. Асланов А. Марказий Суғднинг Абғар рустоқи ва Зарман қишлоқлари локализацияси хусусида. “Ўзбекистон археологиясининг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. 32-34-бетлар.

6. Soriyev X.Y., Botirov I.R. Nurobod ham qadimiy maskan. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. -№12/3 (121), 2024-y. – 84-92 betlar.

7.Yuldashev J. Nurobod tumanidagi ayrim etnooykonimlar xususida mulohazalar. TAMADDUN NURI_jurnali, 2024-yil, 1-son, (52) 121-bet.

CHANGALI QISHLOG‘I YODGORLIKLARI

*Botirov I.R. – Nurobod tumanidagi
47–umumta’lim maktabining
tarix fani o‘qituvchisi*

Nurobod tumanidagi Changalli qishlog‘i sharq tomondan Samarqand, g‘arb tomondan Buxor yo‘nalishida Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida, viloyat markazidan qariyb 130 kilometr uzoqlikda joylashgan. Manbalarga ko‘ra, qadimda qishloq Jing‘ilsoy nomi bilan ham atalgan va savdo markazlaridan biri bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm.

Buyuk Ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishida joylashgan bu ko‘hna qishloq insoniyat tarixning eng qadimgi makonlaridan biri sanaladi. Chunki uning bag‘rida o‘tmishdan sado beruvchi sir–sinoatlar yastanib yotibdi.

Chanagli nomi qanday paydo bo‘lgan?

Qishloq nomi butasimon jing‘il, ya’ni jangal o‘simligi bilan bog‘liq. Zirabuloq tog‘ tizmasining shimoli-g‘arbiy qismidan boshlanuvchi Changalisoy o‘z davrida nihoyatda sersuv bo‘lib, manbalarda keltirilishicha, yetti tegirmon suv o‘tgan. Qishloq esa o‘z davrida

jangal o'simligi keng hududlarni egallagan changalzordan iborat bo'lgani uchun shunday nom olgan.

Zirabuloq tog' tizmasining etagida, dengiz sathidan 750 metr balandlikda, tabiiy chuqurlikdagi ushbu mo'jazgina go'sha tarixining boshlanish nuqtasi miloddan avvalgi 2 ming yillikning boshlariga borib taqaladi. Chunki bu davrda qishloqdan uzoq bo'lmagan hududda qalay ma'dani kovlab olingan va jarayon milodning o'rtalariga qadar davom etgan.

Changali qishlog'i madaniy yodgorliklarga juda boy. Jumladan, keyingiyillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududda miloddan avvalgi II asrga oid G'ildirorvik qabristoni, milodiy V asrga oid Chil-tepa qal'asi, VI-VII asrlarga oid xumdonlar, ilk va o'rta asrlarga oid qoyatosh suratlari⁷², XVIII asrga oid Qo'shtut supasi, XIX asrga oid masjid-maktab va xalq tilida avliyolar deb nomlangan "Oqtosh avliyo", "Jomon avliyo", "Jangal avliyo", "Katta avliyo", "Pattali avliyo" qadamjolari, "Arab mozar" va "Jilg'a" kabi botin joylar aniqlangan.

Oqqat g'ori.

Ushbu g'or Changali qishlog'idan janubi-sharqda joylashgan bo'lib, taxminan 6,5 kilometr masofani tashkil etadi. G'or ohaktosh, gips, dolomit va turli tuzlaning yuvilishi natijasida hosil bo'lgan. Vertikal yo'nalishda tor va murakkab yo'laklardan iborat. G'ordan sharq tomonda Tepalk qishlog'i joylashgan va uni aylanib oqib o'tuvchi Shovvoz soy bor. G'orning og'zi janubga qaragan bo'lib, bu yer insoniyatning qadim manzil makonlaridan biri bo'lgan. Hudud xalq tilida "Oqqat" deb atalgani bois shunday nomlangan. G'or noyob tabiat kompleksi bo'lib, geoxronologik tahlil asosida aytishimiz mumkinki, g'or tarkibi tog' jinsi bo'r yotqiziqlardan iborat (2-rasm).

⁷² Холматов А.Н., Сандибоев А.Н., Сориёв Х.Я., Ботиоров И. Ўрта Зарафшон ҳавзасининг қоятош суратлари устида олиб борилган дала қидирув тадқиқотлар// Ўзбекистон археологик тадқиқотлар: 2022-йил. 15-сон. Самарқанд, 2023. Б. 292-295.



2-rasm.

Chiltepa qal’asi.

Qishloqning g‘arbiy qismida Chiltepa deb ataluvchi qadimiy qal’a mavjud. Maydoni 120x80 metr bo‘lib, ikki qismdan iborat. Quyi qismi V–VI asrlarga oid bo‘lsa, yuqori qismi X–XI asrlar ya’ni qoraxoniylar davriga tegishli. Qal’a 1219–yilning bahorida Chingizxon boshliq mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan vayron qilingan va qayta tiklanmagan. Zirabuloq tog‘larining etagida joylashgan bu qal’a o‘z davri-ning muhim strategik mudofaa qo‘g‘roni hisoblangan (3–rasm).



3-rasm.

Qal'ning yuqori qismi X-XI asrlar qoraxoniylar davriga tegishli ekanligi haqida bu yerda shu davrga oid topilgan g'ishtlar guvohlik deradi. Bu g'ishtlar o'lchami 30×15 sm.ga eni esa 4 sm.ga teng bo'lib, g'ishtlar maxsus yarim aylana xumdonlarda 1000 °C da pishrilgan (4-rasm).



4-rasm.

Tarixdan ma'lumki, bunday o'lchamli g'ishtlar aynan qoraxoniylar davriga oid bo'lib, arablar istilosidan keyin vayron bo'lgan Chiltepa qal'asi aynan XI asrda qoraxoniy hukimdorlar tomonidan qayta tiklangan hamda muhim strategik mudofaa qurg'oniga aylangan.

Bu qal'a uzoq muddatli tanaffusdan so'ng, XI asrga kelib qoraxoniylar davrida qayta tiklangan. U asosan mudofaa qal'asi hisoblanib, Zarafshon vohasida istiqmoat qiluvchi o'troq aholining dasht ko'chanmchilaridan himoya qilish uchun barpo etilgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. 1212-yilda Xorazmshohlar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi tufayli qal'aning ahamiyati yanada ortgan. 1219-yilda Chingizxon tomonidan Movarounnanhrning bosib olinishi tufayli qal'a tarix sahnasidan butkul o'chirilgan.

2300-yil oldin yasalgan ma'buda haykali.

Changali qishlog'idan taxminan 10 chaqirim g'arbda Qizqo'rg'on qal'asi joylashgan. 2010-yilda bu yerdan noyob haykalcha topilgan va olimlarimiz tomonidan 2300-yil oldin yasalgan deb taxmin qilishmoqda. Bu davrda yunonlarga ko'p xudolikka asoslangan din mavjud

bo‘lgan. Shu bois bu noyob topilma ham biror ma’budning tashqi ko‘rinishini o‘zida mujassam etgan bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, qishloqda Sartarosh, Kalvashtepa, Qoravultepa, Laylakuya kabi topografik nomlar saqlanib qolganki, bu tepaliklar muhim kuzatuv nuqtasi vazifasini bajargan. Changalisoyning o‘ng sohilida xalq tilida “Pishaktosh” nomi bilan ataladigan yana bir g‘or bor. Keksa avlod vakillarining aytishicha, bu g‘or chor Rossiyasining bosqini davrida keksalar va go‘daklar uchun boshpana vazifasini o‘tagan. Shuningdek, qishlog‘imizda Bulbultosh, Otkamarsoy va Oxona singari ekoturistik joylar ham mavjud. So‘nggi besh yilda esa turli davrlarga tegishli turk-runik yozuvlari (hozicha taxmin), metal konlari, qoyatosh suratlari va turli buyumlar topilganini alohida qayd etish kerak.

Changalidagi ohaktoshga bitilgan suratlar

Nurobod tumanining Jarquduq mahallasidagi atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan mo‘jazzina Changalli qishlog‘ida ana shunday tarixiy durdonalar mavjud. Bir qarashda boshqa qishloqdardan farq qilmaydigan ushbu hududda ko‘p yillik tariximizdan xabar beruvchi javohirlar ko‘z o‘ngimizda namayon bo‘ladi. Qishloqning sharqiy qismi, tog‘ yonbag‘rida ohaktoshga o‘yib ishlangan bronza davri va o‘rta asrlarga oid qoyatosh suratlari ko‘rish mumkin. Bu suratlar ba’zi joylarda ustma-ust ishlangan holatlarda ham uchraydi. Bu yerda asosan o‘rta asrlarga oid suratlar saqlangan bo‘lib, ijtimoiy ma’no va mazmunga boy (5-rasm).



5-rasm.

Qishloqning markaziy qismida XIX asrga oid masjid xarobalari saqlanib qolgan. Bu ilm maskanida shu qishloq atrofidagi qishloqlar aholisi farazndlari diniy ta'lim olgan. Masjid faoliyati XX asning 20-yillari oxiriga qadar davom etgan, so'nga "Bid'at" tamg'asi ositda buzib tashlangan.

Masjiddan 60 metrlar quyi masofada ko'hna tarixdan xabar beruvchi "Qo'shtut supasi" joylashgan. Bu yerda tkilgan tut daraxtlari 400 yoshda bo'lib, ashtarxoniylar hukmdori Abdulazizxon davrida ekilgan (6-rasm).



6-rasm.

Keyinchalik ularning soyasida supa barpo qilinga. Buxoro amirligi davrida bu yerga amirlik vakillari tashrif buyurgani va mashvaratlar o'tkazgani xalq tilida bugunga qadar aytib kelinadi. Sovetlar hukmronligi o'rnatilgan supa ham "eskilik sarqiti" deya buzib yuborilgan.

Shunisi ahamiyatliki, qishloqda o'rta asrlarda hunarmandchilik rivojlanagan. Buning dalili sifatida qishloqning sharqiy qismidan hunarmandchilik mahsulotlari pishiriladigan, diametri 2 metrga yaqin, qalinligi 15 santimetr atrofida, balandligi 1,5 metr bo'lgan xumdon o'choq topildi. Aynan o'sha joydan 400 metrlar uzoqlikda xuddi shunday ohaktosh pishiradigan o'choq borligi ma'lum bo'ldi.

Changali qishlog'idan 1,6 km shimoli sharqda Kesiktosh qalayi ma'dan koni joylashgan. Kon dengiz sathidan 850 metrdan ziyodroq balandda soy yon bag'rida joylashgan. Kondan ilk bor miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab qalayi ma'danini kovlab olingan.

NUROBOD – QADIMIY MASKAN

Kon eni 0,5-2 metrgacha, chuqurligi 2-15-25 metrgacha, uzunligi 5-20-50 metrgacha bo‘lgan⁷³(7-rasm).



7- rasm.

Bunda chuqurga pista-bodomni tanasini qalab yoqib yarim tayyor mahsulotni 200 metr uzoqlikdagi pechda eritilgan va mahsulot holiga keltirilgan. So‘ngra tayyor bo‘lgan qalayi ma’danini Buyuk ipak yo‘li yo‘nalishida joylashgan 25 km uzoqlikdagi Rabinjon qo‘rg‘oniga olib kellingan va shu yirdan boshqa hududlarga olib ketilgan.

Bu yerdagi qalayi ma’dani konlaridan bronza davri, ya’ni eramzdan oldingi II-ming yilliklardan davrlar mobaynida to‘xtab va yana qayta ishga tushirilib to milodiy XII asrlarga qadar kovlab olish ishlari olib borilgan⁷⁴.

O‘tmishni bilmoq, o‘zlikni anglamoqdir. O‘zbekistonimizning sir-sinoatlarga boy chekka qishloqlari tarixini o‘rganish, madaniy meros bo‘lgan qadimiy yodgorliklarni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish asosiy burchimiz hisoblanadi.

⁷³ Аванесова Н. Древние горняки Зарафшана. Археология Узбекистана, 2012, № 1 (4). С 11.

⁷⁴ Ko‘rsatilgan adabiyot, 2012, № 1 (4). 5-13 betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Э Бердимуродов., С.С.Суюнов, Х.Я. Сorieв. Ўзбекистоннинг археологик ёдгорликлари каталоги. 1-том Самарқанд вилояти Нурубод тумани 2-қисм – Самарқанд: “Зарафшон”, 2015.
2. Бердимуродов А.Э., Суюнов С.С. Нурубод воҳасида 2011-йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2010-2011-йиллар 8 сони. Самарқанд, 2012. 6. 90-100.
3. Soriyev X.Y., Botirov I.R. Nurobod ham qadimiy maskan. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№12/3 (121), 2024-y. 84-92 betlar.
4. Сандибоев А.Н., Раҳимов К.А., Холматов А.Н., Раҳмонов Ҳ.Ў., Хўжамов С.Ҳ., Алибеков А., Алимов Н., Ботиров И. 2022 йилда Самарқанд вилоятида олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари//Ўзбекистон археологик тадқиқотлар: 2022 йил. 15-сон. Самарқанд, 2023. Б. 249–256.
5. Холматов А.Н., Сандибоев А.Н., Сorieв Х.Я., Ботиров И. Ўрта Зарафшон ҳавзасининг қоятош суратлари устида олиб борилган дала қидирув тадқиқотлар// Ўзбекистон археологик тадқиқотлар: 2022 йил. 15-сон. Самарқанд, 2023. Б. 292-295.
6. Аванесова Н. Древние горняки Зарафшана. Археология Узбекистана, 2012, № 1 (4). С 3-35.

NUROBOD TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLAR LUG‘ATI

*To‘plovchi: Sharifjon Saxatov.,
tarixchi, muzeysunos.*

Samarqand viloyati Nurobod tumani hududining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tumandagi toponimlar, tepaliklar, toshbitiklar bunga yaqqol misol bo‘ladi. 2023-2025 davomidagi dala tadqiqot ishlarimizda tuman tarixini o‘rganishga intildik. Tadqiqotlarim davomida tuman tarixi naqadar buyuk ekanligiga guvoh bo‘ldim.

Ag‘ron – Nurobod, Pstdarg‘om tumanlaridagi qishloq nomi. Nayman urug‘ining bir tarmog‘i ag‘ron deb yuritiladi. 1926-yilgi aholi ro‘yxatida Narpay tumani Qo‘rg‘on fuqarolar yig‘inidagi Ag‘ron qishlog‘i qayd qilingan. Ag‘ron – etnonim sifatida paydo bo‘lgan etnotoponim.⁷⁵

Abg‘ar – Samarqandga qarashli tuman(rustiq). Unda qishloqlar bir-biriga ulanib ketgan.⁷⁶

Azlar tepa – Nurobod tumani Jom qishlog‘idagi qabriston. Azar tepa, Azlar tepa, Azarbuloq, Azlarbuloq kabi joy nomlari tog‘li va tog‘bag‘ridagi tumanlarda bir nechta. Nomning qadimiy shakli – Azar tepa. Tarkibi: azar-tepa. Azar so‘zi azaliy birligiga daxldor aziz, ma‘nosi “yuksak, baland”. Qadimgi turkiy tilda aziz/adiz, ma‘nosi – “yuksak, baland”. Aziztog‘ – “baland tog‘, ulkan tog‘”. “Hibatul haqoyiq”da: aziz/adiz – “baland, ulkan, yuksak”. Adir egiz (balandlik, balandlik turi) so‘zlari ham aiz/adiz so‘zi bilan bir xil asosga ega. Aziztepa/Azar tepa – “baland tepa, yuksak balandlik, ulkan tepa”. Nom tarkibidagi *-lar* qo‘shimchasi keyin qo‘shilgan. Nom tarkibi rasmiy tarzda o‘zgartirilgan bo‘lishi ham mumkin.⁷⁷

Annazirat – Nurobod tumani Omondara MFYdagi qadimiy qishloq nomi. On Hazrat – hazrati oliylari, janobi oliylari. Muqaddas zotlarni yoki oliy darajali mansabdorlarni ulug‘lash uchun ishlatila-

⁷⁵. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati Tuzuvchilar : Karimov . S. A. (va boshqalar). “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti Samarqand–2025. 11–bet.

⁷⁶. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (ал-ансоб) (VIII-XII асрда яшаган ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот) Нашрга тайёрловчи Комилжон Раҳимов. Тошкент–2017. 95–бет

⁷⁷. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 9–bet.

digan iborat.⁷⁸ Anazirat – Ona ziyorati, Iso payg‘ambar onasi Bibi Maryamni shu yerga kelib ziyorat qilgan afsonalar mavjud.⁷⁹

Achamayli – Nurobod tumani Nurbuloq shaharchasiga yaqin qishloq, Nurobod, Urgut tumanlaridagi qishloqlarning nomi. Ipakli, Yettiuyli deb ham atashadi. Bulung‘ur, Bekobod, Bo‘ka (Toshkent viloyati), Kitob (Qashqadaryo viloyati) tumanlarida ham bor. Achamoyli/Ochamoyli shakllarida talaffuz qilinadi. Qo‘ng‘irot qabilasining vaxtamg‘ali bo‘limi, kenagas, yuz, durmon, nayman, qurama, marqa qabilalarining bir urug‘i achamayli atalgan. Achamayli boshqa turkiy xalqlar tarkibida, jumladan, qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi. (ashamayli). S.Qorayev ho‘kiz yoki qo‘tosga uriladigan egar yoyinki bolalar minishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay (achamay) degan qadimgi qabila nomi bilan aloqador bo‘lsa kerak deydi. T. Nafasov fikricha, bu izoh etnonimning lingvosotsiologik xususiyatiga to‘g‘ri kelmaydi. Achamay–maybay/moy–boy qushining bir turi, bu shu qabilaning totemi sanalgan. Totem etnonimga aylanib, *-li* affikisi qo‘shilgach, jamlik–kishilar jamoasi ma’nosini ifodalagan. A.L.Xromov fikricha, o‘zbek xalqining qadimiy etnik birligi bo‘lganligi bois so‘nggi davrlarda turli qabila va urug‘lar tarkibiga singishib ketgan. Shu bois qo‘ng‘irot, kenagas, yuz, do‘rmon, nayman, qurama, marqa qabilalari tarkibida achamayli urug‘i mavjud. Achamayli umumturkiy etnonim, qoraqalpoq va qozoqlarning achamayli/atamayli urug‘i borligi aniqlangan. Achamayli/ashamayli etnonimining tarkibi: acha+mayli/mayli. Ba’zi manbalarda achamay+li tarzida talqin qilingan. Ho‘kiz, qo‘tosga uriladigan egar yoki bolalar minishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay/achamay deyilgan. Achamayli – tamg‘asi egar shaklidagi urug‘ demak. Achamayli etnonim sifatida paydo bo‘lgan etnotoponim.⁸⁰

Aprin – Nurobod tumani Jom qishlog‘idagi qadimiy qishloq nomi. 1926-yilgi aholi ro‘yxatida Damariq rayon (hozirgi Nurobod tumani) Jom MFYdagi qishloq deb ko‘rsatilgan. Etimologiyasi noma’lum. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, Xaprin ota (Xafirin) degan mulla-

⁷⁸. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar : Karimov . S. A. (va boshqalar) “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti Samarqand–2025.17–bet.

⁷⁹.Вяткин.В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. СКСО. 1902. Вып VII. Самарканд. Стр 55.

⁸⁰. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 21–bet.

ning nomiga qo'yilgan. Aprin – shaxs nomi bilan atalgan qishloq, ya'ni antroponim.⁸¹

Bibi Maryam – Nurobod tumani Omondara MFY, Chunqaymish qishlog'idagi qabriston nomi. Iso alayhissalomning onasi Bibi Maryam nomi bilan bog'liq joy. Yozuvlari o'chgan qadimiy qabrtoshlar mavjud.

Bog'onali – Nurobod, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om, Narpay tumanlaridagi qishloq, etnonim. Bog'ona – qorako'l terisining bir turi. Xalq kasbi etnonimga o'tgan. Bu so'zning – “ustun” ma'nosi ham bor. O'zbek urug'larining bir tarmog'i – bag'onali. Yana bir ma'nosi – “yosh qo'zining terisi” demakdir.

Beshbarmoq – Nurobod tumani Omondara MFY dagi qishloq nomi. Qipchoq qabilalarining bir tarmog'i beshbarmoq deyiladi.⁸² Qipchoqlar yashagan qishloq. Beshbarmoq yaqinidagi qipchoq – saroylar yashaydigan mahalla Beshchashma deyiladi. Mahalliy aholining fikricha, Beshbarmoq – besh irmoq, ya'ni Juzsoy, Dorsoy, Qizilqot, Qoragaza, Kattasoy kabi soylarning umumiy nomi. Beshbarmoq etnonim sifatida paydo bo'lgan etnotoponim.⁸³

Bozortosh – Nurobod tumani Beshbarmoq qishlog'idagi qadimiy tosh nomi. Mahalliy manbalarga ko'ra, qadimda bu yerda qul bozori bo'lgan. Bozortoshning g'arbiy tomonida bir g'or bo'lib, u juda chuqur, ichi qorong'i. Mahalliy shevada bu g'or zindon deb yuritiladi. G'orda qullar saqlangan degan ma'lumotlar bor. Bozortosh oronimi tarixiy arxeologik mohiyatga ham ega, undagi g'orda oy, quyosh, ot va qo'y echkilar suruvi tasvirlangan tosh suratlar saqlanib qolgan.⁸⁴ 1936-yilda arxeolog I.A. Suxarev ilmiy ekspiditsiya uyushtirib, Bozortosh qoyatosh suratlarini o'rgangan.⁸⁵

Budroj – mulkdorning yeri, boyligi demakdir.⁸⁶ Nurobod tumani-dagi Boybachcha nomli qishloq yonidagi qadimiy aholi yashash joyi. Eski Anhor kanali bo'yida joylashgan (hozirgi Usku qishlog). Qip-

⁸¹. Ko'rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 17–18 bet.

⁸². Азим Маликов. Тюркские этнотопонимы долины Зерафшана в XVIII–начале XX в. // Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). Ташкент: Muharrir nashriyoti, 2018, С 149-150.

⁸³. Dala tadqiqot manbalari 2023-2025 yillar. Nurobod tumani. Respondent.Shodi bobo 65 yosh.

⁸⁴. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug'ati. Tuzuvchilar : Karimov S. A. (va boshqalar) “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti Samarqand–2025. 37-bet.

⁸⁵. Сухарев.И.А. Отчёт об археологической разведке в Самаркандской группе районов за 1935-1936 года. Самарканд Давлат музей–кўрикхонаси архиви. Ед х/р № 559. Кўлёзма.

⁸⁶. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent 2023. I–IV jild. 619, 452–bet.

choq qabilalarining budak nomli urug‘i bor.⁸⁷) Budrojda qadimiy Omontepa, Niyoztepa, Eshmontepa, Keskanjartepa yodgorliklari mavjud. Bu tepaliklar antik davrga tegishli tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. 1959–1989-yillarda bu tepaliklarda olib borilgan arxeologik qazish ishlarida terrakota haykalchalari, temirdan yasalgan tesha, Buxoroda zarb etilgan 832/1428-yilga oid Mirzo Ulug‘bek davri tangalari, sopol xumlar, ostodon bulaklari topilgan.

Boybacha – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi (hozirgi Usku qishlogi).

Boyqishloq – Nurobod tumani Omondara MFYdagi qadimiy qishloq, Qo‘shrabod, Urgut tumanidagi qishloq, qabriston nomi. Boylarning qishlog‘i, katta qishloq.⁸⁸

Boshquduq – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq, mahalla, qabriston nomi. Boshquduq – suvi ko‘p, eng katta, chuqur quduq.⁸⁹ Naymanlar urug‘i yashaydi.⁹⁰

Bo‘ritosh – Nurobod tumani Beshbarmoq qishlog‘idagi qadimiy tosh nomi. O‘tmishda bu yerda bo‘ri uya qurib, bolalagani bois shunday atalgan. Zooronim – “bo‘ri uya qurgan tosh” degan ma’noga ega.⁹¹

Bo‘rilik – Nurobod tumani Beshbarmoq qishlog‘idagi qoya nomi. Ba‘zilar bu qoyani Murilik ham deyishadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Bo‘rilik atrofida chorvador qabilalar yashashgan. Manzildan qadimiy tosh qurollar, kamon o‘qi topilgan. Shuningdek, u yerda qoyatoshga chizilgan chorva hayvonlarining rasmlari saqlanib qolgan. Bu dalillar qoyani Bo‘rilik deb atashini tasdiqlaydi. Oronim – “bo‘rilar makoni” degan ma’noga ega.⁹²

Egriqo‘l – Nurobod tumani Oqsoy qishlog‘i yonidagi qadimiy qishloq nomi. Amir Temur qo‘shinida dushman qo‘shinini ikki yondan o‘rab olib fath etuvchi harbiy bo‘linma. Keyinchalik bu harbiy

⁸⁷.Азим Маликов. Тюркские этнотопонимы долины Зерафшана в XVIII–начале XX в. // Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII–начало XXв.). Ташкент: Muharrir nashriyoti, 2018, С 149–150.

⁸⁸.Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: Karimov S.A va boshqalar. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand–2025. 37–bet.

⁸⁹. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 40 – bet.

⁹⁰. Dala tadqiqot manbalari. 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

⁹¹. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 45–bet.

⁹². Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 44–bet.

qismdagilar yashagan hudud toponimga aylangan. Go‘l yoki qo‘l (qul) – Amir Temur qo‘shinida markazda joylashgan harbiy qism.⁹³

Egartosh – Nurobod tumani Beshbarmoq qishlog‘idagi tosh nomi. Katta tosh shaklan egarga o‘xshagani bois shunday atalgan.⁹⁴

Eski Anhor kanali – miloddan avvalgi II asrlarda qazilgan. Manas nomi bilan yuritilgan. Dastlabki uzunligi 300 km dan ortiq bo‘lgan. VI-VIII, VIII-XIII asrlarda, mo‘g‘ullar istlosi davrida vayron qilingan. Temuriylar davrida tiklangan. So‘nggi to‘rt asr davomida qarovsiz qolgan. Darg‘om kanalidan suv oladi. Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yerlarini sug‘oradi. 1955-yilda qayta tiklangan. Manas nomining ma‘nosi qadimgi turkiy xalqlar tilida manas – “to‘rt dan biri” demakdir. Darg‘om kanali suvining to‘rt dan bir qismi Eski Anhor ya‘ni Manas kanaliga qo‘yilgan. Shu sabab Manas nomi bilan yuritilgan.⁹⁵

Galabek – Nurobod tumani Boshquduq qishlog‘i yonidagi qishloqning nomi. Bek avlodi, beklar to‘pi, oqsoqoli. “Ko‘p (gala bek) ovul” ma‘nosida.⁹⁶

Ingichka – Nurobod tumani Mehnatkash qishlog‘i o‘rnidagi qadimiy qishloq nomi. Mo‘g‘ulcha “g‘ulbig‘ar (g‘ulbag‘ar) – inja, ingichka, cho‘zinchoq” degani. Bundan qilich atamasi kelib chiqadi. Qilich yasovchilar yurti demakdir.⁹⁷

Markaz – Nurobod tumani Kechkeldik, Ko‘ktosh qishloqlari yonidagi qadimiy qishloq nomi. Markaz – qalb, qo‘l. Amir Temur qo‘shinida makziy qism qalb yoki qo‘l deyilgan. Qo‘lda harbiy xizmat qilgan harbiylar yashagan hudud toponimga aylangan.⁹⁸

Sarig‘ul – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Bosh qo‘l, katta qo‘l. Amir Temur qo‘shinida harbiy xizmat qilgan katta markaz,

⁹³. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Тошкент. Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991. 47–бет.

⁹⁴. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: Karimov S.A. (va boshqalar) “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand–2025. 63–bet.

⁹⁵. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eski_anhor.

⁹⁶. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 68–bet.

⁹⁷. Хайтбай Абдисадиқов. FB ijtimoiy tarmog‘idagi maqolasidan 2025-yil yanvar. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

⁹⁸. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Тошкент. Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991. 80–бет.

harbiy qism. Sarig‘ul qishlog‘ida 1959-yilda tuzilgan shajarada temuriylar davrida harbiy xizmat qilgan harbiylarning nomlari keltirilgan.⁹⁹

Sozog‘on – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Sozqurol-aslaha. Qurol yarog‘ yasovchilar yurti. Sazag‘on nomli urug‘ ham qayd etilgan. Sazag‘on – Ajdarho ma’nosini ham beradi.¹⁰⁰

Ibrohim ota – Nurobod tumani Jom qishlog‘i yonidagi qadimiy qishloq nomi. Ahmad Yassaviyning otasi Xoja Ibrohim nomi bilan bog‘liq.¹⁰¹

Chortut – Chortug‘. Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Amir Temur harbiylariga bir necha tug‘ bergan. Shulardan biri Chortug‘ deyiladi. Tug‘ bayroq demakdir.¹⁰²

Chunqaymish – Nurobod tumani Omondara MFYdagi qadimiy qishloq nomi. Chiy va qamish o‘simligi nomidan kelib chiqqan, qamishzor, chiyyor demakdir.¹⁰³

Langar – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Musofirxona, darveshlar, qalandarlar mehmonlar tunab qoluvchi joy.¹⁰⁴

Ostonabobo – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Ustozlarni ziyorat qilish, ulardan ta’lim olish, ilm o‘rganish demakdir. Ishqiya tariqati pirlari Xudoyquli shayx, Ilyos shayx, Muhammad shayx ziyoratga kelgan ziyoratchilar pining ostonasiga keldik deyishgan.¹⁰⁵

Nurobod – Samarqand viloyatidagi tumanlardan birining nomi. Tuman markazi – obod topoleksemasi atoqli va turdosh otlardan, ba’zan sifatlardan geografik nom yasaydi. “Obod” so‘zi toponimist T.Rahmatov qayd qilishicha, nomlar tarkibida kelib, “yangidan qurilgan, tashkil qilingan” ma’nosini beradi. Markaziy Osiyoda Obod terminining kirib kelishi arab bosqini davrida, taxminan VII-VIII asrlarda fors-tojik dialektlarining tarqalishi bilan bog‘liq. Yoqut Hamaviyning xabar berishicha, XIII asrda ayniqsa mahsuldor bo‘lgan. Viloyatimizda Rahmatobod arig‘i (Samarqand tumani), Yangiobod

⁹⁹. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani. Kўrsatilgan adabiёт. 1991. 80–bet.

¹⁰⁰. Навоий асарлари луғати. Матн: луғат нашрга тайёрловчи С.Рафиддинов. Тўлдирилган ва тузатилган 2-нашри. Тошкент. “Akademnashr” 2023. 467–бет.

¹⁰¹. Dala tadqiqot manbalari. 2023–2025 yillar. Nurobod tumani. Respondent Fayzi Toshpo‘latov. 1941-yil tug‘ilgan. O‘qituvchi.

¹⁰². Kўrsatilgan adabiёт. 1991. 80–бет.

¹⁰³. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹⁰⁴. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹⁰⁵. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

arigi (Bulung‘ur tumani) singari ko‘plab geografik nomlar mazkur terminning joy nomlari yasashda hozir ham sermahsul ekanligini ko‘rsatadi.¹⁰⁶

Nayman – Naymanobod. Nurobod, Paxtachi, Narpay, Jomboy, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Payariq, Oqdaryo, Pastdarg‘om, Tayloq tumanlaridagi qishloqlar nomi. Samarqand shahri, Kattaqo‘rg‘on, Paxtachi, Toyloq, Jomboy, Samarqand tumanlaridagi mahallalar nomi. Naymanlar, A.D.Grebenkin ma‘lumotlariga qaraganda, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon vodiysida, Farg‘ona vodiysi va Xorazmda yashagan va uchta yirik uruqqa – qo‘shnamg‘ali, sadirbek, va voxtamg‘ali urug‘lariga bo‘lingan. Bulardan tashqari, naymanlar ag‘ron, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, bo‘qalay, burunsov, jag‘alboyli, jestovon, jilonli (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oqto‘nli, sagizuruv (sakkizuruq), sari-nayman, to‘rtuul, (to‘rto‘g‘il, to‘rtovul), to‘rttamg‘ali, urguch, uchul, changali, cho‘michli, qozoyoqli, qoragadoy, qorasiyroq, qarg‘ali, qiltamg‘ali, qo‘ltamg‘ali, chirqirovuq, chuvilloq, oltamg‘ali, ochamayli, galabek, boybicha, kechkeldik, kabi mayda tarmoqlarga ham bo‘linadi.¹⁰⁷ Narpay tumanidagi naymanlar: po‘latchi, ulus, zarman, kichkildik, osnayman, achchili nayman, kattaki, to‘rg‘oq, uyshun nayman kabi urug‘larga bo‘lingan. O‘zbek kenagaslari va juz (yuz)lari tarkibida ham nayman shaxobchasi uchraydi.¹⁰⁸

Qoraqursoq – Nurobod tumani Nurbuloq shaharchasi yonidagi qishloq nomi. O‘zbek xalqi yuz qabilasi xitoy yuzi urug‘i o‘n ikki otaga bo‘linadi, shuning o‘n birinchisi qoraqursoq deb nomlanadi. Baxmal tumanida ham Qoraqursoq qishlog‘i bor. Nurobod va Baxmal tumanidagi Qoraqursoq qishloqlarida yuz urug‘i vakillari yashaydi. Qoraqalpoq qo‘ng‘irotlarning qo‘shnamg‘ali tarmog‘ining bir urug‘i ham qoraqursoq deb ataladi. O‘zbek qo‘ng‘irotlari tarkibida bunday urug‘ uchramaydi. Qoraqursoq etnonim sifatida paydo bo‘lgan etnotoponim.¹⁰⁹ Nurobod tumani Qoraqursoq qishlog‘i aholisi o‘zlarini nayman urug‘iga mansub deb bilishadi. Naymanlar kenagas va juz(yuz) urug‘lari tarkibida ham bor.¹¹⁰

¹⁰⁶. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar : Karimov S. A va boshqalar. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand–2025.153–bet.

¹⁰⁷. Ko‘rsatilgan adabiyot. Samarqand–2025. 147–bet.

¹⁰⁸. Vikipediya . Nayman. 2025 –yil.

¹⁰⁹.Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: Karimov S. A.(va boshqalar) “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand – 2025. 136–bet.

¹¹⁰. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

Tim – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloqlardan biri. Yoqut Hamaviy (XIII asr) Ibn ai-Faqqga tayanib, Samarqand Sug‘didagi Tim qishlog‘i haqida o‘z asarida yozib qoldirgan. Hozirgi Tim qishlog‘i yaqinida joylashgan, 400-500 m² maydonga ega bo‘lgan o‘rta asr makoniga mansub tepalik, mazkur qishloqning o‘sha davrlarda anchagina katta mavqega ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tim qishlog‘i 977–978-yillarda bunyod etilgan Arabot yodgorligi bilan mashhur. “Tim” atamasi sug‘d yozuvlari va o‘rta asr musulmon adabiyotida uchraydi. U “do‘kon savdo binosi” ma‘nosini bildiradi. Sug‘dcha “tiym” (arabcha “tim”) so‘zi tarixchilarning ta’kidlashicha, xitoy tilidan o‘zlashgan. Yoqut Hamaviy “tim” so‘zini “xon” (savdogarlar yashaydigan mehmonxona) ma‘nosida qo‘llashlarini qayd etadi. Shuningdek, bu so‘z forslar tomonidan “karvonsaroy”, ya’ni matolar sotiladigan joy ma‘nosida ishlatilgan.¹¹¹

Taxsija – Samarqanddan besh farsax masofada joylashgan qishloq. Abg‘ar rustoqida (tumanida) joylashgan qishloq.¹¹² Bu hozirgi Chunqaymish qishlog‘i yonida bo‘lgan.

Taxti Iso – Nurobod tumani Zarafshon tog‘ tizmalaridagi cho‘qqi, qoya, toshtaxt. Rivoyatga ko‘ra, Iso payg‘ambar shu taxtga tushib ibodat qilgan.⁽¹¹³⁾ Chunqaymish qishlog‘i yonida joylashgan.

Tovoqbuloq – Nurobod tumani Sozog‘on qishlog‘i yonidagi qishloq nomi. Oqarsuv o‘yib tovoq singari o‘yiq hosil qilingan joydagi buloq yonida tashkil topgan qishloq.¹¹⁴

Uyrig‘ul – Nurobod tumani Oqsoy, Sozog‘on qishloqlari yonidagi qadimiy qishloq nomi. Amir Temur qo‘shinida qo‘l ya’ni markazda harbiy xizmat qilgan harbiylar yashagan hudud. Keyinchalik toponimga o‘tgan. Uyri–qo‘shinni bir joyga to‘plangan markaz qismi.¹¹⁵ Irovul Amir Temur qo‘shinida ayg‘oqchi harbiy qism.¹¹⁶

Oqtosh ota – Nurobod tumani Omondara MFY dagi qabriston nomi, mikrotoponim. Toponim oq tosh va ota qismlaridan tashkil

¹¹¹. Nuriddin Begaliyev. Tim toponimi. Samarqandim jurnali telegram sahifasi. 2025–yil 13–avgust. https://t.me/s/samdueduuz?Joy_nomlari_tarixi.

¹¹². Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (ал-ансоб) (VII–XII асрда яшаган ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот) Нашрга тайёрловчи Комилжон Раҳимов. Тошкент-2017. 102–бет.

¹¹³. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹¹⁴. Samarqand viloyati joy nomlarining izohli lug‘ati Tuzuvchilar: Karimov S. A. (va boshqalar). “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. Samarqand–2025. 143–bet.

¹¹⁵. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹¹⁶. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2017. 257–bet.

topgan. Qadimgi turkiy tilda ota/ata soʻzi “balandlik, doʻnglik” maʼnosini ifodalaydi. Mikrotoponimni doʻnglikdagi oq rangli toshlar mavjud boʻlgan joy deb izohlash mumkin.¹¹⁷

Jom – Nurobod tumanidagi qadimiy qishloq. Qipchoq qabilalari-ning bir tarmogʻi jom, jomboy deb ataladi. Qipchoplar yashaydigan hudud.¹¹⁸

Oʻrtuk – qadimgi turkiy tilda muqaddas mozorlarga yopiladigan mato boʻlagi.

Koʻktosh ota – Nurobod tumani Markaz, Koʻktosh qishloqlaridagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. Qabrtoshlarda hijriy 851-milodiy 1451-yilda vafot etgan Davlat Xoja ibn Amir Ahmadning qabrtoshi bor. Xalq uni ziyorat qilishadi.¹¹⁹

Kuyuk mozor – Nurobod tumanidagi Qoraqursoq qishlogʻidagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. 1870-yilda Bobon Aliboy oʻgʻli qoʻzgʻolonida rus askarlari bilan shiddatli jang boʻlib, jangda rus askarlari qishloqqa olov berib yuborishgan. Barcha uylar yonib koʻl boʻlgan. Aholi bu joyni keyin Kuyukmozor deb atashgan.¹²⁰

Keskanjar – Eski Anhor kanalining Nurobod tumani Boybachcha qishlogʻi hududidan oqib oʻtgan uzaniga mahalliy aholi tomonidan berilgan nom. Boisi, kanal uzani togʻsimon tepalikni kesib oʻtgan. Shu sababli kanalning maʼlum qismi Keskanjar deb nomlanadi.

Jom ota mozori – Nurobod tumanidagi Jom qishlogʻidagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. Maqbarada Mavlono Jom ota dafn etilgan.

Arabota mozori – Nurobod tumani Tim qishlogʻidagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. Arabota maqbarasi nomi bilan mashhur. X asrda barpo etilgan.

Chunqaymish mozori – Nurobod tumani Chunqaymish qishlogʻidagi qadimiy qishloq qabristoni nomi.

Yalangoyoq Eshonbobo mozori – Nurobod tumani Beshbarmoq qishlogʻidagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. Yalangoyoq Eshonbobo mozorida hiriy 1251-yil, milodiy 1839-yilda vafot etgan Muham-

¹¹⁷. Koʻrsatilgan adabiyot. Samarqand – 2025. 165–bet.

¹¹⁸. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹¹⁹. Dala tadqiqot manbalari. 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹²⁰. Иззат Бекмуродов Каттакўрғоннинг қисқача тарихи. (Масъул муҳаррир–тарих фанлари номзоди, доцент Ҳ.Аминов). “Зарафшон” нашриёти, Самарқанд, 1993, 37–бет.

mad Same' Xoja ibn Mirza Xojaning qabrtoshi, maqbarasi mavjud. Aholi bu joyni ziyorat qilishadi.¹²¹

Oqjirim bobo – Nurobod tumani Boybachcha (Uski) qishlog'ida-gi qabriston nomi. Eski Anhor kanalining yaylovni ikkiga ajratib o'tgan qismiga Ajrim deyiladi. Qipchoq qabilalarining gumbaz urug'i-da oqjirim, oqjahra kabi tarmoqlari bo'lgan. Hayit bayramlarining ikkinchi kuni Oqjirim bobo qabristoni yonida Oqjirim (Ajrim) sayili o'tkazilgan. Sayilda kurash, kupkari, milliy o'yinlar o'tkazilgan, marhumlarning qarindoshlari yaqinlariga taomlar ulashgan, savdo yarmarkalari tashkil etilgan.¹²²

Oqsoy mozori – Nurobod tumani Oqsoy qishlog'idagi qadimiy qishloq qabristoni nomi.

Ibrohim ota mozori – Nurobod tumani Ibrohim ota qishlog'idagi qadimiy qishloq qabristoni nomi.

Saxoba ota mozori – Nurobod tumani Saxoba ota qishlog'idagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. XVI asrda qurilgan Abdullaxon ravoti, uch oshyonli nomozxona, xonaqoh mavjud.

Usmon ota mozori – Nurobod tumani Ag'ron qishlog'idagi qadi-miy qishloq qabristoni nomi. Ag'ron, Qo'shquduq qishloqlari qabris-toni. G'ishtlari XVI asrga oid masjid – xonaqoh, 1966-yilda Ag'ron xalqi tomonidan pishiq g'ishtdan qurilgan masjid mavjud.

Ostona bobo mozori – Nurobod tumani Ostona bobo qishlog'i-dagi qadimiy qishloq qabristoni nomi. XVI asrga oid qabrtoshlar, Maryam Shayx Ilyos qizi, Shayx Xudayquli 822/1419, Ilyos shayx, Muhammad shayx, Abdxoliq ibn Ahmat shayx XVI asr.

Taloqyopdi – Nurobod tumanidagi qadimiy qoyatosh rasmlari nomi. Anazirat qishlog'idagi Taloqyopdi qoyatosh rasmlarida 20x40 sm hajmdagi ikkita ho'kiz rasmi, ovchilar, inson qo'lining besh barmog'i tushirilgan rasmlar mavjud.

¹²¹. Dala tadqiqot manbalari 2023–2025 yillar. Nurobod tumani.

¹²². Dala tadqiqot manbalari 2025 yil 22 noyabr. Nurobod tumani. Respondent Qahramonov Misr. 1968–yilda tug'ilgan. O'qituvchi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
<i>Soriyev X.Y.</i> NUROBOD – QADIMIY MASKAN.....	5
<i>Xolmatov N.U., O‘rozov D.N.</i> NUROBOD TUMANI TOSH DAVRI MADANIYATI TARIXIDAN LAVHALAR.....	22
<i>Raimqulov A.A., Raxmatova D.J.</i> JOM QADIMIY YO‘LLAR CHORRAHASIDA.....	54
<i>Berdimurodov A.E.</i> OSTONABOBO ZIYORATGOHI.....	60
<i>Berdimurodov A.E., Suyunov S.S.</i> NUROBOD VOHASINING SUG‘ORILISH TARIXI TO‘G‘RISIDA YANGI MA‘LUMOTLAR.....	71
<i>Yunusov M.A.</i> ARAB OTA MAQBARASI-ILK ISLOM ME‘MORCHILIGINING NOYOB NAMUNASI.....	81
<i>Indiaminova Sh.A.</i> JOM – SO‘G‘D VA XUROSON SAVDO- KARVON YO‘LINING CHORRAHASIDA.....	89
<i>Sandiboev A.N., Botirov I.R.</i> ABG‘OR RUSTOQINING TOPOGRAFIYASI TO‘G‘RISIDA YANGI MULOHAZALAR..	94
<i>Suyunov S.S.</i> ESKI ANHOR IRRIGATSIYA RAYONI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI.....	98
<i>Rahimov K.A., Eshnayev E.X.</i> MARKAZIY OSIYO ILK O‘RTA ASRLAR KULOLCHILIGIDA CHANGALLI XUMDONLARINING AHAMIYATI.....	103
<i>Yuldashev J.U.</i> NUROBOD TUMANIDAGI AYRIM ETNOOYKONIMLAR XUSUSIDA MULOHAZALAR	107
<i>Rayimkulov A.</i> XV-XVI ASRLAR SAMARQAND VILOYATI NUROBOD NUMANI “OSTONA BOBO” SO‘FIYLAR MASKANI ME‘MORCHILIGI.....	112
<i>Kurbonboyev I.M.</i> NUROBODNING QADIMGI TASVIRIY SAN‘ATI.....	121
<i>Sandiboyev A.N., Rahimov K.A., Xolmatov A.N., Rahmonov H.O‘., Xo‘jamov S.H., Alibekov A., Alimov N., Botirov I.</i> 2022-YILDA SAMARQAND VILOYATIDA OLIB BORILGAN QIDIRUV TADQIQOTLARI.....	128

<i>Xolmatov A.N., Sandiboyev A.N., Soriyev X.Y., Botirov I.</i>	
2022-ILDA O'RTA ZARAFSHON HAVZASINING	
QOYATOSH SURATLARI USTIDA OLIB BORILGAN	
DALA QIDIRUV TADQIQOTLAR.....	136
<i>Eshmanov G'.</i> ABADIYATGA DAXLDOR TIM QISHLOG'I.....	142
<i>Yorqulov A.</i> NUROBOD TUMANI ARXEOLGIK	
YODGORLIKLARI.....	146
<i>Soriyev X.Y., Xudayberdiyeva Sh.M.</i> AG'RON – QADIMIY	
QISHLOQ.....	151
<i>Botirov I.</i> CHANGALI QISHLOG'I YODGORLIKLARI.....	160
<i>Saxatov Sh.</i> NUROBOD TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLAR	
LUG'ATI.....	168

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

***Muqovada:** Salavkiylar hukmdorlaridan Antiox I va Yunon-Baqtriya hukmdorlaridan Geliokl I tasviri tushirilgan tangalar, Tim qishlog'i, Ostonabobo maqbarasi, Usmon ota qabristonidagi gumbazli xonaqoh, Oqmasjid, Arabota maqbarasi, Tim qishlog'idagi ming yillik archa.*

Ilmiy ommabop nashr
NUROBOD – QADIMIY MASKAN
Miloddan avvalgi va milodiy davrlar
MONOGRAFIYA (MULLIFLAR JAMOASI)
Samarqand: “Access service”, 2025. 180-bet.

Muharrir: D.Urinbaeva
Texnik muharrir: A.Shakarov
Sahifalovchi: U.Islamov

Bosishga 25.11.2025-yilda ruxsat etildi. Ofset bosma usulida chop etildi. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman” garniturasida.
Adadi 80 nusxa. Hajmi 11,25 bosma taboq. Buyurtma 20.

“Access service” nashriyoti
Samarqand shahri, So‘lim shaharchasi, B.Yalangtush MFY, 128/74.

ISBN: 978-9910-611-08-7

“Sardor poligraf” OK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Xishrav MFY.